


A. I. Alikulov, U. T. Eshmuradov, U. R. Raximova

BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH

o'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

A.I.Alikulov, U.T.Eshmuradov, U.R.Raximova

BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH

O'quv qo'llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazi, 2026**

UO•K: 338 : 657 (07)
BBK: 65.052.201.2 : 65.053

A.I.Alikulov, U.T.Eshmuradov, U.R.Raximova.
Boshqaruv hisobiga kirish. O'quv qo'llanma / – Samarqand davlat
veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
nashr matbaa markazi, 2026. 196 bet.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy
ta'lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan o'quv adabiyotini
ekspertizadan o'tkazganlik natijasi bo'yicha ma'lumotnomasi
(№3146-0769-c549-4ed9-f952-7527-8903, 26.03.2026)
asosida nashr qilishga tavsiya etilgan

3367



Muvaffaqiyatli biznesning asosi — to'g'ri hisob-kitob va oqilona boshqaruv qarorlaridir. "Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv qo'llanmasi talabalarga ana shu mahorat sirlarini ochib beradi. Qo'llanmada xarajatlar tahlilidan tortib, strategik rejalashtirishgacha bo'lgan barcha jarayonlar nazariya va amaliyot uyg'unligida bayon etilgan.

"Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv qo'llanmasi korxonalarni samarali boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini o'zlashtirishda ishonchli yo'l ko'rsatuvchi manbadir. Mazkur kitob nafaqat xarajatlarni turkumlash va tannarxni aniqlash usullarini o'rgatadi, balki har bir muayyan vaziyatda eng maqbul boshqaruv qarorlarini tanlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Qo'llanma 60410200 – "Buxgalteriya hisobi" yo'nalishi talabalari uchun asosiy qo'llanma bo'lishi bilan birga, soha mutaxassislari, tadqiqotchilar va boshqaruv samaradorligini oshirishga intilayotgan barcha izlanuvchilar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Taqrizchilar:

I.N.Qo'ziyev

– Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Audit" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.N.Tashnazarov

– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.A.Rahimov

– Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ISBN: 978-9910-640-88-9

KIRISH

Iqtisodiy sohalarida kechayotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim tizimini, xususan, davlat ta'lim standartlarini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda boshqaruvning yangicha metodlari, zamonaviy bozor mexanizmlari hamda iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining joriy qilinishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobining ajralmas va istiqbolli qismi hisoblangan boshqaruv hisobining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Binobarin, boshqaruv hisobi korxona faoliyatini tezkor va strategik boshqarishda markaziy o'rin tutishi, xalqaro standartlar talablariga to'liq javob berishi hamda xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini belgilab berishi lozim.

Boshqaruv hisobini tizimli tashkil etish va yuritish sifati buxgalteriya hisobi yo'nalishida tahsil olayotgan kadrlarning bilim darajasi va malakasiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda foydalaniladigan o'quv materiallarining sifati hamda ularning amaliyot bilan uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini rivojlantirish jarayoni yangicha yondashuvlar, innovatsiyalar va ilg'or ilmiy ishlanmalarni izchil tatbiq etishni talab qilmoqda.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fanining mazmuni, odatda, ushbu sohaga oid fundamental tamoyillar va tushunchalarni qamrab oladi. O'quv dasturi xo'jalik yurituvchi subyektlarda rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarida buxgalteriya ma'lumotlaridan samarali foydalanish metodikasini o'rgatishga qaratilgan. Bundan tashqari, mazkur fan xarajatlarni boshqarish, byudjetlashtirish va faoliyat natijadorligini baholash bo'yicha tushunchalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarga strategik va taktik qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi.

"Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv qo'llanmasi talabalarda korxonalarda shakllangan boshqaruv hisobi va uning rivojlanish tendensiyalari, sohaning nazariy asoslari va amaliy tizimlari haqida tasavvur uyg'otadi. Shuningdek, xarajatlar turkumlari, hisobni to'g'ri yuritish va har bir muayyan vaziyat uchun mos tannarx usulini tanlash bo'yicha nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ko'maklashadi.

Ushbu qo'llanmada boshqaruv hisobining nazariy va amaliy poydevori yoritilgan bo'lib, u xo'jalik subyektlaridagi moddiy va mehnat xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish metodlari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, transfert bahosini belgilash hamda segmentar hisobotlar kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'quv qo'llanmada boshqaruv hisobining xalqaro tajribasi va undan milliy korxonalarda yangicha hisob tartibini joriy etishda foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmani o'rganish orqali talabalar boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari, xarajatlar tasnifi, tahlil va byudjetlashtirish usullari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, turli texnik vositalardan foydalanish, xarajatlarni hisoblash va samaradorlikni o'lchash tizimlarini tushunish, strategik qarorlar qabul qilish jarayonida (narx strategiyasi, mahsulot tarkibi tahlili va h.k.) moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash yuzasidan har tomonlama malaka shakllantiradilar.

Talabalar ushbu tushuncha va metodlarni o'zlashtirish orqali nafaqat boshqaruv hisobi bo'yicha mustahkam bilim bazasini yaratadilar, balki bugungi o'zgaruvchan biznes muhitida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va muammoli vaziyatlarni tezkor hal etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil ishlar jarayonida bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur qo'llanma boshqaruv tizimlarini loyihalash va hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'stirishga, tashkilot faoliyatini

nazorat qilish va uni strategik maqsadlarga muvofiqlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu o'quv qo'llanma 60410200 – "Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishining o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda jahon ilmfani yutuqlari, xorijiy ilg'or tajribalar hamda mualliflarning ilmiy izlanishlari (PhD dissertatsiyalari) natijalaridan foydalanilgan. Har bir mavzu mazmuni puxta, ravon va talabani qiziqtiradigan shaklda bayon etilgan bo'lib, boblar yakunida qisqacha xulosalar, nazorat savollari, tayanch iboralar, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Mualliflar qo'llanma haqida bildirilgan har qanday fikr-mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi hamda o'z tashakkurini izhor etadi.

I BOB. "BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH" FANIGA KIRISH

1.1. Boshqaruvning ahamiyati, paydo bo'lishi va rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xo'jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini boshqaruvning har bir pog'onasida tizimli yo'lga qo'yilgan boshqaruv hisobisiz ta'minlash qiyin. Ushbu tizim korxona menejerlari uchun zarur bo'lgan barcha hisob ma'lumotlari va bosqichlarini qamrab oladi. Boshqaruv hisobi xarajatlarni rejalashtirish, shakllantirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda, asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim paydevor bo'lib xizmat qiladi.

Boshqaruv to'g'risidagi zamonaviy ta'limot amerikalik muhandis-olim F.Teylorning 1911-yilda chop etilgan "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" asari bilan boshlangan. Teylor tomonidan ilgari surilgan "Ilmiy boshqaruv" konsepsiyasi quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: an'anaviy tajribalar o'rniga — ilm-fan; ziddiyatlar o'rniga — uyg'unlik; yakka tartibdagi mehnat o'rniga — jamoaviy hamkorlik; unumdorlikni cheklash o'rniga — maksimal natijadorlik; har bir xodimning eng yuqori darajadagi samaradorlikka va farovonlikka erishishi. Teylor korxonada boshqaruvni samarali tashkil etish uchun to'rtta asosiy mezonga tayanish lozimligini isbotlab bergan: ilmiy asoslanganlik, tanlov, hamkorlik va mas'uliyat.

Mamlakatimizda boshqaruv hisobini mustaqil fan sifatida rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash uchun uning tarixiy shakllanish bosqichlarini tahlil qilish zarurati mavjud.

Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobi tizimidan ajralib, 1972-yilda rasman mustaqil fan sifatida tan olindi. Aynan shu davrda Amerika buxgalterlar assotsiatsiyasi bitiruvchilarga "buxgalter-tahlilchi" malakasini beruvchi maxsus diplomli dasturlarni joriy qildi. Ushbu sohaning shakllanishi kalkulyatsiya qilish va ishlab chiqarish hisobi metodlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Kalkulyatsiya hisobi xo'jalik yuritish tizimi bilan bir vaqtda tovar ayirboshlash munosabatlari natijasida yuzaga kelgan. "Kalkulyatsiya" atamasi lotinchadan olingan bo'lib, "calcul" – toshcha, ya'ni "toshlar yordamida hisoblash" ma'nosini bildiradi. Ikkiyoqlama yozuv usulining paydo bo'lishi kalkulyatsiya hisobini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Umumiy buxgalteriya tarkibida kalkulyatsiya hisobining alohida ajratilishi esa butun tizimni yanada takomillashtirishga zamin yaratdi.

Raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida axborotlarni foydalanuvchilarga tezkor yetkazish va tijorat sirlarini saqlash ehtiyoji buxgalteriyani ikki mustaqil qismga — moliyaviy va kalkulyatsiya hisobiga bo'linishini taqozo etdi. Bu jarayon moliyaviy hisobning markazlashuviga, kalkulyatsiya hisobining esa nomarkazlashuviga olib keldi. Natijada kalkulyatsiya hisobi boshqaruv jarayonini tezkor tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash, korxona bo'linmalaridagi xarajat va daromadlarni nazorat qilish funksiyalarini bajara boshladi. Bu esa o'z navbatida xarajat me'yorlarini ishlab chiqish, normativ kalkulyatsiyani shakllantirish va haqiqiy ko'rsatkichlarning me'yordan og'ishini tezkor nazorat qilish hamda tannarxni chetlanishlar bo'yicha boshqarish usulini vujudga keltirdi.

Rivojlangan mamlakatlarda boshqaruv fani bugungi kunga qadar o'z tamoyillarini boyitib bormoqda. Bu borada turli ilmiy maktablar va ularning qarashlarini o'rganish boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etishda muhim hisoblanadi. Shunday maktab namoyandalaridan biri Emerson bo'lib, u asosiy e'tiborni ishchilarning emas, balki boshqaruvchilarning mehnat samaradorligini oshirishga qaratgan. Uning fikricha, tabiiy va insoniy resurslarning isrof qilinishiga asosiy sabab — noto'g'ri tashkil etilgan boshqaruv tizimidir.

Boshqaruv fanining shakllanishida Anri Fayolning (1841-1925) ilmiy xizmatlari beqiyosdir. Fayol birinchi bo'lib "boshqaruv" tushunchasiga ilmiy ta'rif bergan: boshqarish — bu korxonadagi

barcha mavjud resurslardan samarali foydalangan holda, tashkilotni belgilangan maqsadlar sari yo'naltirishdir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti turli maktablar tajribasi asosida bosqichma-bosqich rivojlangan. Ushbu yo'nalishlarning har birini mustaqil ravishda o'rganish va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish har qanday korxonada boshqaruvni samarali tashkil etish uchun zaruriy shartdir.

Ilmiy boshqaruv maktabining (1885-1920) yirik vakillari sifatida Teylor, Frenk va Liliya Gilbertlar hamda Genri Gantlarning tavsiyalarini keltirish mumkin. Mazkur maktabning asosiy yutug'i shundaki, ular boshqaruvni mustaqil mutaxassislik sifatida isbotlab berishdi. Ya'ni, ishlarni rejalashtirish va boshqarish bilan bevosita ijrochilar emas, balki professional menejerlar shug'ullansa, korxona yuqori natijalarga erishishi asoslab berildi.

XX asrning 40-yillari oxiriga kelib, AQSh va G'arbiy Yevropada "ishlab chiqarish hisobi" tushunchasi o'rnini "boshqaruv hisobi" egalladi. Bu davrda buxgalteriya korxona siyosatini belgilashda faol rol o'ynay boshladi. Buxgalterlar endilikda nafaqat hisob-kitob, balki prognozlash, rejalashtirish va boshqaruv qarorlari uchun zarur axborotlarni shakllantirish jarayonlariga mas'ul bo'ldilar.

Boshqaruv hisobining rivojlanishini kalkulyatsiya va ishlab chiqarish hisobidan ayri holda ko'rib bo'lmaydi. Yagona buxgalteriya bazasida ikki mustaqil — moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlarining qo'llanilishi amaliyotdagi katta qadam bo'ldi. Bu bo'linish Yevropa mamlakatlaridagi milliy hisob rejalariga ham ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropa iqtisodiyotiga AQSh kapitalining kirib kelishi buxgalteriya hisobida ingliz-amerika yondashuvining kuchayishiga sabab bo'ldi. Chunki boshqaruv hisobidagi rejalashtirish va prognozlash funksiyalarining yagona tizimda bo'lishi tijorat sirlarining fosh bo'lish xavfini tug'dirar edi. Shu sababli, Yevropa milliy hisob tizimlari ko'p hollarda moliyaviy hisobot tuzish va tashqi foydalanuvchilar uchun ma'lumot berish doirasida rivojlandi.

1.2. Boshqaruv hisobining predmeti, metodi va vazifalari

Raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining har bir bosqichida iqtisodiy ma'lumotlarning haqqoniyligi, tezkorligi, xolisligi va aniqligi kabi mezonlar muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda shakllantirilayotgan axborotlar nafaqat ichki va tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi, balki minimal resurs hamda vaqt sarfi evaziga tayyorlanishi zarur.

Shu bilan birga, iqtisodiy ma'lumotlar korxonaning istiqbolli rejalarini belgilash, byudjetlashtirish, xarajatlar tahlili va tannarxni to'g'ri shakllantirish bo'yicha asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tayanch bo'lishi lozim. Aynan ushbu omillar mamlakatimizda "Boshqaruv hisobiga kirish" fanini o'qitish va uning rivojlanish strategiyalarini belgilashga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fanining predmeti — bu xarajatlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish, byudjetlashtirish, investitsiya loyihalarini tahlil qilish, segmentar hisobotlar tuzish hamda transfert baholarini belgilashning nazariy-uslubiy va tashkiliy asoslarini o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kompaniya va firmalar buxgalteriya sohasidagi umumiy ish vaqtining qariyb 90 foizini aynan boshqaruv hisobini yuritishga sarflaydilar. Mazkur sohani boshqarish esa mutaxassislardan yuqori darajadagi malaka va mahoratni talab etadi.

Boshqaruv predmeti — bu ishlab chiqarishda yuqori natijalarga erishish maqsadida xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqaruv obyekti yoki jarayoniga tizimli ta'sir o'tkazishdir. Boshqaruv tizimi rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, muvofiqlashtirish va rag'batlantirish kabi funksiyalar orqali o'z maqsadlariga erishadi. Boshqaruv hisobi aynan shu vazifalarni bajarish orqali boshqaruvning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi yaxlit tizimni shakllantiradi.

Boshqaruv hisobining obyekti sifatida xo'jalik subyektlarning yaxlit faoliyati yoki uning alohida tarkibiy bo'linmalari (segmentlari) tushuniladi.

Boshqaruv hisobi — bozor munosabatlari talablari asosida shakllangan, korxona va uning bo'g'inlari faoliyati yuzasidan taktik va strategik qarorlar qabul qilish uchun daromadlar hamda xarajatlar haqida ma'lumot beruvchi tizimdir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— Korxonaning hisob siyosatiga tayangan holda byudjetlashtirish, investitsiya tahlili va xarajatlarni hisobga olishning ilg'or usullari;

- Javobgarlik markazlari bo'yicha hisobotlar shakllantirish va ichki transfert baholarni belgilash;

- Evolyutsion tarzda rivojlanib boruvchi, bir necha iqtisodiy fanlar tutashuvida vujudga kelgan kompleks soha.


Xo'jalik subyektlarida boshqaruv hisobining samaradorligi hujjatlar aylanish tezligi, ichki hisobot shakllarining mukammalligi, ularni taqdim etish davriyligi va axborot tizimining zamonaviyligiga bevosita bog'liqdir.

Boshqaruv hisobi obyekti bo'lgan ko'rsatkichlarning turli metodlar yordamida ma'lumotlar tizimida aks ettirilishi boshqaruv hisobi metodi deb yuritiladi. Ushbu metod korxona obyektlarini yagona axborot tizimida ifodalovchi uslublar majmuidir. Bunga moliyaviy hisobning an'anaviy elementlari (hujjatlashtirish, inventarizatsiya, kalkulyatsiya, schyotlar, ikkiyoqlama yozuv, balans) bilan bir qatorda iqtisodiy tahlil, matematik va statistik modellashirish usullari ham kiradi.

Boshqaruv hisobining to'g'ri tashkil etilishi oqilona qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish, ishlab chiqarishni tizimli rejalashtirish va nazorat qilish orqali umumiy samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

Xo'jalik subyektlarida boshqaruv hisobi quyidagi faoliyat yo'nalishlari kesimida amalga oshiriladi (1.1-rasm):

Korxonalarda ta'minot va tayyorlov jarayoni takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlovchi poydevor hisoblanadi. Shu sababli, boshqaruv uchun zarur bo'lgan dastlabki axborotlar aynan ushbu bosqichda to'planadi va qayta ishlanadi.



1.1-rasm. Boshqaruv hisobining faoliyat turlari

Boshqaruv ma'lumotlar bazasini yaratishda ishlab chiqarish jarayoni markaziy bo'g'in hisoblanadi. Mazkur bosqichda sarf-xarajatlar strukturasi, ularning dinamikasi, mas'uliyat markazlari kesimidagi hisobi, shuningdek, tannarxni kalkulyatsiya qilish hamda me'yoriy ko'rsatkichlardan og'ishlarni aniqlash ishlari bajariladi.

Moliya-tijorat yo'nalishida esa korxonaning tarkibiy segmentlari doirasida realizatsiya hajmi hamda ma'muriy xarajatlar smetalari (byudjetlari) shakllantirilib, ularning ijrosi muntazam monitoring qilinadi.

Tashkiliy jarayonlarda boshqaruv hisobining yuritilishi bo'linmalar rahbarlaridan xarajatlar miqdori va ularning natijadorligi haqidagi ma'lumotlarni tayyorlashni talab etadi. Bu bosqichda ishlab chiqarishning kritik (zararsizlik) nuqtasi hisoblanadi hamda o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar bilan foyda o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi.

Boshqaruv hisobi faqatgina xarajatlarni qayd etish yoki tannarxni aniqlash bilan cheklanib qolmasligi, balki rahbariyatga operativ va strategik qarorlar qabul qilishda asosiy konsultativ vosita bo'lib xizmat qilish lozim.

Hozirgi kunda boshqaruv hisobining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish zarurati quyidagi fundamental omillar bilan izohlanadi:

- Xalqaro amaliyotga muvofiq, buxgalteriya hisobini moliyaviy va boshqaruv yo'nalishlariga differensiyalash;

- Xarajatlarni nazorat qilish va tannarxni shakllantirishda "Standart-kost" (Standard-costing) tizimining tatbiq etilishi;

- Xarajatlarni o'zgarmas va o'zgaruvchan turlarga ajratish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish va kalkulyatsiya qilishning zamonaviy metodlarini rivojlantirish;

- Iqtisodiy amaliyotga "zararsizlik chegarasi", "marjinal foyda", "operatsion richag" kabi yangi tushunchalarning kirib kelishi hamda ularning ishlab chiqarish hajmi va natijadorlik o'rtaidagi bog'liqlikni ta'minlashdagi o'rni;

- Resurslarni rejalashtirish, zaxiralarni strategik boshqarish, transfer narxlarni belgilash va daromad-xarajat modelini yaratish kabi muhim vazifalar;

- Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va hisob jarayonlarini raqamlashtirish (avtomatlashtirish) ehtiyoji.

Boshqaruv hisobi korxonaning ichki ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, o'ziga xos "nou-xau" (tijorat siri) hisoblanadi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Istiqbolli rivojlanish rejalarini tuzish uchun zarur axborot bazasini yaratish va rahbariyatga taqdim etish;

- Menejerlarni tezkor boshqaruv uchun aniq, ishonchli va yuqori samaradorlikka ega ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- Tannarxni real baholash, belgilangan me'yorlardan og'ishlarni aniqlash hamda ularning yuzaga kelish omillarini tahlil qilish.

Boshqaruv hisobi ma'lumotlari tashkilotning operativ va uzoq muddatli maqsadlariga erishishida muhim vositadir. Operativ (tezkor) vazifalarga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarish strukturasini ichki va tashqi muhit omillarini hisobga olgan holda optimallashtirish;

- Faoliyatning zararsizlik nuqtasini belgilash;

- Mahsulot turlari va sotuv hajmini rejalashtirish;
- Qo'shimcha buyurtmalarni qabul qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash;

- Narx shakllanishi bo'yicha oqilona qarorlar chiqarish.

Strategik vazifalar uzoq muddatli istiqbolga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- Yirik kapital qo'yilmalar va investitsiya loyihalarini jalb qilish;
- Biznes modelini va faoliyat tarkibini transformatsiya qilish;
- Yangi mahsulot turlarini yaratish va bozorlarni o'zlashtirish.

Boshqaruv hisobining strategik yo'nalishi uzoq muddatli loyihalar tahlili, prognozlash, byudjetlashtirish hamda transfer narxlar orqali boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirishni anglatadi. Taktik yo'nalish esa joriy ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya, shuningdek, kundalik qarorlar ijrosini nazorat qilish va javobgarlikni belgilashni o'z ichiga oladi.

1-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Boshqaruv hisobining shakllanish poydevori xarajatlar hisobini tizimli tashkil etish jarayoniga borib taqaladi. Shu sababli, uning asosiy mazmunini turli yo'nalishlar bo'yicha o'tgan davr tahlili hamda kelgusi davrlar uchun prognoz qilinadigan ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tashkil etadi.

Dunyoning iqtisodiy jihatdan yetakchi davlatlarida boshqaruv hisobi fani izchil taraqqiy etib, bugungi kunda o'zining mustahkam konseptual tamoyillariga ega bo'ldi. Ushbu sohada shakllangan turli ilmiy maktablar va ularning nazariy qarashlarini atroflicha o'rganish, boshqaruv hisobini amaliyotga samarali joriy etish hamda uning mohiyatini to'g'ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona faoliyatini byudjetlashtirish, istiqbolli strategiyalarni belgilash hamda xarajatlar va mahsulot tannarxini optimallashtirish bo'yicha oqilona qarorlar qabul qilishda boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosiy tayanch vazifasini o'taydi. Aynan shu zaruriyat respublikamizda "Boshqaruv hisobiga kirish" fanining o'quv

tizimiga kiritilishi va uning ilmiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun bosh omil bo'lib xizmat qildi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Boshqaruv hisobi, boshqaruv hisobining shakllanishi, boshqaruv hisobi strategiyasi, boshqaruv hisobining metodi, boshqaruv hisobining faoliyat turlari, ta'minot-tayyorlov faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati, moliya-tijorat faoliyati, tashkiliy faoliyat, boshqaruv hisobi vazifalari, boshqaruv hisobi axborotlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Boshqaruv hisobining mohiyati, uning qamrab oladigan sohalari va asosiy maqsadlariga tavsif bering.
2. Boshqaruv hisobini yuritishga ehtiyoj tug'diruvchi asosiy sabab va omillarni ko'rsatib o'ting.
3. Boshqaruv hisobi tizimi qaysi tarkibiy qismlardan (elementlardan) tashkil topadi?
4. Korxonani samarali boshqarishda boshqaruv hisobining tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib bering.
5. Boshqaruv hisobida qo'llaniladigan asosiy uslub va metodologik yondashuvlarni sanang.
6. Xo'jalik yurituvchi subyektlar ishida ta'minot va tayyorlov jarayonlarining o'ziga xos ahamiyatini asoslab bering.
7. Subyektlarning moliya-tijorat faoliyati davomida yuzaga keladigan xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
8. Boshqaruv hisobi tizimi oldida turgan asosiy funksional vazifalarni bayon qiling.
9. Boshqaruv hisobining uzoq muddatli rivojlanishga qaratilgan strategik vazifalarini tushuntiring.
10. Boshqaruv hisobining strategik va taktik yo'nalishlari qanday mazmunga ega?

II BOB. BOSHQARUV HISOBIGA KIRISHNI TASHKIL QILISH

2.1. Boshqaruv hisobi funksiyalari, tamoyillari, hisob tizimi va tarkibiy qismlari

Boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosli qarorlar qabul qilish, kelajakni rejalashtirish hamda resurslardan unumli foydalanishni ta'minlovchi hayotiy vosita hisoblanadi.

Mazkur tizim korxonaning umumiy axborot majmuasining ajralmas bo'lagidir. Ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish ko'p hollarda tarkibiy bo'linmalar, bo'limlar va mas'uliyat markazlari faoliyatiga doir tezkor ma'lumotlarga tayanadi. Boshqaruv hisobi aynan mana shunday axborotlarni turli bo'g'indagi rahbarlarga oqilona qarorlar qabul qilishlari uchun tizimlashtirib beradi.

Boshqaruv hisobining mohiyatini anglash yana bir muhim jihatni yuzaga chiqaradi: boshqaruv funksiyalari bilan boshqaruv hisobi zimmasidagi vazifalar o'zaro chambarchas va uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.


Boshqaruv hisobining funksiyalarini tavsiflashda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar olimlarining quyidagi yondashuvlarini alohida qayd etish mumkin:

1. Boshqaruv hisobi barcha boshqaruv bo'g'inlarini zarur axborotlar bilan ta'minlab, tezkor nazorat va istiqbolli rejalashtirish vazifalarini bajaradi.

2. Mazkur tizim boshqaruv qarorlari uchun ma'lumotlar tayyorlaydi, turli darajadagi rahbarlar uchun tahliliy hisobotlarni shakllantiradi hamda e'tiborni me'yorlardan og'ishlarni (chetlanishlarni) boshqarishga yo'naltiradi.

3. Boshqaruv hisobi biznesni tizimli yuritish maqsadida barcha boshqaruv bo'g'inlarini relevant (dolzarb va muhim) ma'lumotlar bilan ta'minlaydi hamda korxonaning tarkibiy qismlarini boshqarish uchun zaruriy axborot bazasini yaratadi.

Boshqaruv hisobining asosiy funksiyalari 2.1-rasmda aks ettirilgan:



2.1-rasm. Boshqaruv hisobining asosiy funksiyalari

Rejalashtirish jarayonida boshqaruv hisobi korxona uchun strategik ahamiyatga ega. Mazkur bosqichda istiqboldagi harakatlar yo'nalishlari belgilanadi. Bu aniq maqsadlarni shakllantirish, ulardan kelib chiqib vazifalarni belgilash, maqsadga yetishishning optimal yo'llarini izlash va turli muqobil variantlarni tahlil qilishni qamrab oladi. Rahbariyat byudjet ko'rsatkichlari va ularni amalga oshirishning moliyaviy manbalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi shart.

Nazorat qilish funksiyasi rahbarlar tomonidan rejalarning ijrosini tekshirishni nazarda tutadi. Bu jarayon obyektning amaldagi holatini baholash, erishilgan natijalarni reja bilan qiyoslash, zarurat tug'ilganda rejaga tuzatish kiritish hamda belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishlarni aniqlashdan iboratdir. Nazorat va rejalashtirish o'zaro shunday chambarchas bog'liqqi, ularni bir-biridan ajratish deyarli imkonsizdir. Har qanday boshqaruv qarori faoliyat natijalariga tayangan holda qabul qilinadi va rejalashtirish hamda nazorat tizimi o'zaro yaxlitlikni tashkil etadi.

Samaradorlikni baholash — qaror qabul qilish jarayonining yakuniy tahliliy bosqichi hisoblanadi. Bunda qo'yilgan maqsadlar, rejalashtirishdagi nuqsonlar, samarasiz harakatlar yig'indisi va nazorat tizimining kamchiliklari aniqlanadi. Ushbu funksiya

natijasida eng yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'linmalar aniqlanadi va ularni munosib taqdirlash imkoniyati yaratiladi.

Tashkiliy ishlar deganda korxonaning maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladigan bo'lim va guruhlarining optimal tizimini yaratish tushuniladi. Bu jarayon xodimlar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash, ichki ma'lumotlar almashinuvi asosida boshqaruv darajalarini birlashtirish hamda turli yo'nalishdagi aloqalar orqali ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

Rag'batlantirish korxonaning strategik maqsadlariga erishish yo'lida motivatsiya beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda byudjetlar va ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlar markaziy o'rin tutadi. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) joriy etiladi, bu esa javobgarlik markazlarini tahlil qilish va muvaffaqiyatli natijalar uchun mukofotlash tizimini yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Ichki axborot aloqasi korxona bo'limlari va tarkibiy qismlari o'rtasidagi doimiy ma'lumot almashinuvini anglatadi. U turli bo'linmalar faoliyatini umumiy maqsad sari muvofiqlashtiradi, kelgusi davr uchun vazifalarni oydinlashtiradi va har bir bo'linmaning ishlash sharoitlari hamda cheklovlarini belgilaydi. Amaliy natijalar haqidagi hisobotlar har bir rahbarga o'z ishini baholash va samaradorlikni pasaytiruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga imkon beradi.

Yuqorida qayd etilgan boshqaruv vazifalari hamda ularni ta'minlovchi axborotlar boshqaruv hisobining quyidagi funksiyalarini shakllantiradi:


- Boshqaruvning barcha darajadagi rahbarlarini joriy rejalashtirish, nazorat va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumot bilan ta'minlash;

- Boshqaruv darajalari va bir xil darajadagi turli tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi ichki muloqot aloqalari vositasi bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlarni shakllantirish;

- Belgilangan maqsadga erishish yo'lida xo'jalik subyekti va uning ichki bo'linmalari faoliyat natijalarini joriy nazorat qilish va baholash;

- Faoliyat natijalarining amaldagi tahlili va baholash asosida kelgusida xo'jalik subyektining istiqbolli rejalashtirilishi va rivojlanishini muvofiqlashtirish.

Boshqaruv hisobining fan sifatida shakllanishida o'n ikki tamoyili nomi bilan tanilgan Emerson quyidagi tamoyillarni (2.2-rasm) belgilab bergan:




2.2-rasm. Emersonning o'n ikki tamoyili

Boshqaruv hisobining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining uzluksiz davom etishi, rejalashtirish va hisob jarayonlarida yagona o'lchov mezonlaridan foydalanish hamda tarkibiy bo'linmalar ish natijalarini xolis baholash, boshqaruv qarorlari uchun birlamchi hamda oraliq axborotlarning ko'p marta qo'llanilishi, korxona ichidagi axborot almashinuvi va kommunikatsiya tizimi, xarajatlarni hamda moliya-tijorat faoliyatini boshqarishda byudjetlashtirish usulidan foydalanish, hisob obyektlariga doir ma'lumotlarning to'liqligi va analitik darajasining yuqoriligi hamda subyektning

hisob siyosatida belgilangan ishlab chiqarish va tijorat jarayonlarining muntazamligi.

Xo'jalik subyektini boshqarish borasidagi qarashlari bilan tanilgan yana bir olim Anri Fayol tomonidan e'tirof etilgan zaruriy boshqaruv tamoyillari quyidagilardir (2.3-rasm):



2.3-rasm. Anri Fayol boshqaruv tamoyillari

2.2. Boshqaruv va moliyaviy hisobning farqli jihatlari

Xo'jalik subyektlarida buxgalteriya hisobini istiqbolli rivojlantirish uning asosiy bo'g'inlari — moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tadqiq etishni talab qiladi. Moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlari o'rtasida ko'plab

o'xshashliklar mavjud, boisi har ikkala yo'nalish ham korxonaning yagona axborot manbalaridan foydalanadi.

Moliyaviy hisobning tan olingan prinsiplari boshqaruv hisobi uchun ham asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki rahbarlar o'z faoliyatida tasdiqlanmagan taxminlarga emas, balki aniq faktlarga tayanishi shart. Bundan tashqari, har ikki quyi tizim ma'lumotlaridan asosli boshqaruv qarorlarini shakllantirishda foydalaniladi.

Boshqaruv hisobi va moliyaviy hisob o'rtasidagi asosiy tafovutlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Hisobning maqsadli yo'nalishi. Moliyaviy hisobning bosh vazifasi korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini aks ettirish, aktiv hamda majburiyatlar harakatini umumlashtirish va yillik hisobotlarni tayyorlashdan iborat. Bu ma'lumotlar ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar) uchun mo'ljallangan bo'lib, ular korxonaning to'lov qobiliyati va jozibadorligini standartlar asosida baholaydilar. Boshqaruv hisobining maqsadi esa rahbariyatni oqilona qarorlar qabul qilishlari uchun xarajatlar va natijalar haqidagi ishonchli ichki axborot bilan ta'minlashdir.

2. Hisob siyosatining shakllanishi. Moliyaviy hisobda siyosat hisob yuritish qoidalari va hisobot taqdim etish tartibini belgilasa, boshqaruv hisobida asosan byudjetlashtirish, prognozlash, tannarx hisobi va transfert narxlarni belgilash masalalari ustuvor hisoblanadi.

3. Axborotlarni schyotlar tizimida aks ettirish. Moliyaviy hisob 21-sonli BHMS asosida resurslar holati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi. Boshqaruv hisobida esa strategik boshqaruv, byudjetlashtirish va "Xarajat-hajm-foyda" tizimi bo'yicha natijalarni aniqlash uchun moslashuvchan schyotlar tizimi qo'llaniladi. Bu amaliyotda ikki razryadli tizimdan to'rt razryadli tizimga (balans va operatsion schyotlarga) o'tishni taqozo etadi.

4. Axborotdan foydalanuvchilar. Moliyaviy hisob asosan tashqi hisob hisoblanib, uning natijalari ochiq e'lon qilinishi mumkin.

Boshqaruv hisobi esa ichki hisob bo'lib, undan faqat korxona xodimlari va menejerlari foydalanadilar.

5. Axborotni taqdim etish shakllari. Moliyaviy hisobot qonun bilan belgilangan qat'iy shakllarda (balans, natijalar to'g'risidagi hisobot va h.k.) tayyorlanadi. Boshqaruv hisoboti esa foydalanuvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, ixtiyoriy shaklda tuziladi.

6. Hisobni yuritish majburiyati. Moliyaviy hisob yuritish barcha xo'jalik subyektlari uchun qonuniy majburiyatdir. Boshqaruv hisobi esa faqat korxona rahbariyatining xohish va talabiga ko'ra tashkil etiladi.

7. Hisobni tashkil etish qoidalari. Moliyaviy hisob qat'iy standart va tamoyillarga muvofiq olib boriladi. Boshqaruv hisobi tartib-qoidalari esa korxonaning ichki xususiyatlari va strategik maqsadlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladi.

8. Hisob tamoyillari. Moliyaviy hisob ikkiyoqlama yozuv, aniqlik va xolislik kabi umumiy tamoyillarga tayanadi. Boshqaruv hisobida ham ushbu tamoyillar bilan birga ehtiyotkorlik va ko'rsatkichlarning tahliliyligiga alohida e'tibor beriladi.

9. Hisobning asosiy obyektlari. Moliyaviy hisobotda korxona yaxlit obyekt sifatida ko'riladi. Boshqaruv hisobi esa korxonaning alohida bo'limlari, sexlari va hatto alohida ish joylari faoliyatini tahlil qiladi.

10. Hisobning asosiy tuzilmasi. Moliyaviy hisob aktivlar, kapital va majburiyatlar tengligiga asoslanadi. Boshqaruv hisobi tuzilmasi esa foydalanuvchi ehtiyojiga qarab xarajatlar va daromadlar kategoriyalariga tayanadi.

11. Axborotning maxfiyligi. Moliyaviy hisob ma'lumotlari davlat organlari va boshqa tashqi foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari esa tijorat siri hisoblanadi va tashqariga berilmaydi.

12. Aks ettirish usullari. Moliyaviy hisob faqat qiymat o'lchovida va ikkiyoqlama yozuv asosida yuritiladi. Boshqaruv hisobida esa moliyaviy usullar bilan birga matematika, statistika va tahlil metodlaridan keng foydalaniladi.

13. Axborotlarni o'lchash. Moliyaviy hisobda faqat pul (qiymat) o'lchovi qo'llanilsa, boshqaruv hisobida natural, mehnat va qiymat o'lchovlarining barchasidan foydalaniladi.

14. Hisobot tuzish davriyligi. Moliyaviy hisobot belgilangan muddatlarda (choraklik, yillik) topshiriladi. Boshqaruv hisoboti esa zaruratga qarab har kuni yoki har hafta tayyorlanishi mumkin.

15. Axborotning vaqt doirasi. Moliyaviy hisob korxonaning o'tmishdagi (sodir bo'lgan) tarixini aks ettiradi. Boshqaruv hisobi esa o'tmish tahlili asosida istiqboldagi investitsiya va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

16. Aniqlik darajasi. Moliyaviy axborot aniq faktlarga asoslanadi va auditorlik tekshiruvidan o'tadi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari esa ko'proq kelajakka mo'ljallangani sababli ehtimollik va subyektiv xarakterga ega bo'lishi mumkin.

17. Guruhlash usullari. Moliyaviy hisobda xarajatlar kalkulyatsiya moddalari bo'yicha, daromadlar esa faoliyat turlari bo'yicha guruhlanadi. Boshqaruv hisobida xarajatlar va daromadlar bo'linmalar va mahsulot turlari kesimida batafsilroq tahlil qilinadi.

Boshqaruv va moliyaviy hisoblar turli mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etiladi. Bizningcha, yuqoridagi belgilar ushbu ikki tizim o'rtasidagi tafovutlarni eng to'liq va xolis aks ettiradi. Boshqaruv hisobi tizimi foydalanuvchi ehtiyojiga qarab xarajat, daromad va aktivlar kategoriyalarini o'zida mujassam etadi va bunda asosiy mezon axborotning foydalilik darajasidir.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi korxonaning umumiy hisob tizimining bir qismi bo'lib, moliyaviy va ishlab chiqarish qismlariga bo'linadi. Ishlab chiqarish hisobining tahliliy ma'lumotlari mutlaqo ichki boshqaruv uchun xizmat qiladi. Moliyaviy hisobda esa tashqi foydalanuvchilar uchun umumlashtirilgan ma'lumotlar to'planadi. Boshqaruv hisobi esa shunchaki hisob amallaridan iborat bo'lmay, boshqaruvning boshqa funksiyalari bilan uyg'unlashgan holda korxona samaradorligini ta'minlaydi.

2-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Boshqaruv hisobi korxonalarda oqilona qarorlar qabul qilish, istiqbolli rejalashtirishni yo'lga qo'yish va mavjud resurslarni samarali taqsimlashda muhim mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Mazkur bo'limda boshqaruv hisobining fundamental jihatlarini, jumladan, uning vazifalari, asosiy prinsiplari va tarkibiy qismlari atroflicha ko'rib chiqildi.

Ushbu soha xo'jalik subyektining umumiy axborot tizimining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning natijadorligi ko'p jihatdan korxonaning tarkibiy tuzilmalari, bo'limlari va mas'uliyat markazlari faoliyatiga oid tezkor ma'lumotlarga tayanadi. Boshqaruv hisobi aynan shunday ma'lumotlarni shakllantirib, ularni turli darajadagi rahbarlarga asosli qarorlar qabul qilishlari uchun taqdim etadi. Boshqaruv hisobining tub mohiyatini anglash yana bir muhim xulosaga kelish uchun zamin yaratadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Boshqaruv hisobi va uning asosiy funksiyalari, boshqaruv hisobi tamoyillari hamda tizimi, boshqaruv hisobining tarkibiy elementlari, hisobning maqsadi va hisob siyosatini shakllantirish jarayoni, axborotlarni buxgalteriya hisobi schyotlari tizimida aks ettirish, axborotdan foydalanuvchilar va uni taqdim etish shakllari, hisobni yuritish majburiyati va hisobni tashkil etish qoidalari, hisobning asosiy obyektlari va tuzilmasi, axborotning oshkoralik darajasi, axborotni aks ettirish hamda o'lchash usullari, hisobot tuzish davriyligi, axborotning sodir bo'lish vaqti, aniqlik va ishonchlilik darajasi, xarajatlar va daromadlarni guruhlash yo'llari, hisob turlari, moliyaviy hisob va xarajatlar hisobi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Boshqaruv hisobining fundamental funksiyalari va vazifalarini sanab bering.

2. Boshqaruv hisobini moliyaviy buxgalteriyadan farqlovchi asosiy xususiyatlarni tahlil qiling.

3. Boshqaruv hisobini yuritishning metodologik tamoyillariga tavsif bering.

4. Boshqaruv hisobi tizimi qaysi tarkibiy qismlar va komponentlardan tashkil topadi?

5. Axborot iste'molchilari doirasiga ko'ra boshqaruv va moliyaviy hisob o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.

6. Ma'lumotlar bazasini shakllantirish manbalari jihatidan boshqaruv va moliyaviy hisobning o'zaro tafovutini tushuntiring.

7. Hisobotlarni taqdim etish va rasmiylashtirish shakllariga ko'ra ushbu hisob turlarining farqini yoritng.

8. Boshqaruv hamda moliyaviy hisob tizimlarining fundamental tuzilishini o'zaro qiyoslang.

9. Xo'jalik faoliyati natijadorligini baholashda boshqaruv hisobi qanchalik muhim o'rin tutadi?

10. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari korxonani rejalashtirish jarayonida qanday ahamiyatga ega?

11. Boshqaruv hisobi bilan xarajatlar hisobi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni izohlang.

III BOB. BIZNES JARAYONLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH

3.1. Biznes jarayonlarining ahamiyati va hisob ko'rsatkichlari

Xo'jalik subyektlaridagi biznes jarayonlari muayyan operatsiyalar majmuidan tashkil topadi. Xo'jalik operatsiyasi deganda buxgalteriya hisobi obyektlarining tarkibi, ularning taqsimlanishi va shakllanish manbalarida yuzaga keladigan harakat va o'zgarishlar tushuniladi. Umuman olganda, biznes jarayonlari tashkilotning o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlariga erishishi va iste'molchilarga sifatli xizmat ko'rsatishi uchun bajariladigan vazifalar va tadbirlar yig'indisidir.

Ushbu jarayonlar muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq bosqichlarni qamrab oladi. Ular ishlab chiqarish, marketing, moliya va kadrlar boshqaruvi kabi turli funksional yo'nalishlarni birlashtirib, resurslarni oqilona taqsimlash va tashkiliy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratishda biznes jarayonlarining o'rni beqiyos bo'lib, doimiy innovatsiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifati va mijozlar sodiqligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda biznes yuritishning bir qancha keng tarqalgan shakllari mavjud. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlik — yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs faoliyatidir. Nodavlat notijorat tashkilotlar esa daromad olishni asosiy maqsad qilib ko'zlamaydigan va olingan foydani o'z a'zolari o'rtasida taqsimlamaydigan tuzilmalar hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat bir yoki bir nechta ta'sischi tomonidan tashkil etilib, ishtirokchilar jamiyat majburiyatlari bo'yicha faqat o'z hissalarining qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Korporatsiya yirik aksiyadorlik birlashmasi sifatida kapitalning markazlashuviga va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Kooperatsiya esa jismoniy yoki yuridik shaxslarning ixtiyoriylik asosida birgalikda faoliyat


yuritishining universal shaklidir. Qishloq xo'jaligi kooperativi esa aynan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun pay usulida birlashgan mustaqil tijorat tashkilotidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlarining faoliyati, ularning qaysi tarmoqqa tegishliligidan qat'i nazar, xo'jalik hisobi prinsiplariga asoslanadi. Bunda buxgalteriya hisobi mol-mulkning harakatini uzluksiz, to'liq va yoppasiga aks ettirish vazifasini bajaradi. Biznes jarayonlarini kuzatish va moliyaviy natijalarni xolis baholash uchun turli iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish talab etiladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar xo'jalik hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni raqamlar orqali ifodalovchi tushunchadir. Ularning yordamida biznes-rejalarning bajarilishi, moddiy zaxiralar me'yorlari va kadrlar intizomi ustidan nazorat o'rnatiladi. Ko'rsatkichlar mazmuniga ko'ra miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga, qo'llanish sohasiga ko'ra umumiy va maxsus turlarga, ifodalanish usuliga ko'ra mutloq va nisbiy ko'rinishlarga bo'linadi. Shuningdek, ular shakllanish xususiyatiga ko'ra reja, hisob, hisobot va tahliliy ko'rsatkichlar kabi turlarga ham ajratiladi.

Biznes jarayonlarini baholash ko'rsatkichlari korxona faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mahsuldorlik, rentabellik va vaqt samaradorligi kabi mezonlarni o'lchash orqali subyektning operatsion samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin. Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, biznes jarayoni korxonaning barcha jabhalarini qamrab oluvchi, o'zaro bog'liq bo'lgan ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya bosqichlaridan tashkil topadi.

Ta'minot bosqichida xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish unumdorligini ta'minlash maqsadida zaruriy resurslarni tashqaridan xarid qiladilar yoki ichki imkoniyatlar hisobiga jamlaydilar. Ushbu jarayonda buxgalteriya hisobining asosiy e'tibori sotib olingan aktivlarning hajmi, ularning boshlang'ich qiymati hamda xarid jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni rasmiylashtirishga qaratiladi.



3.1-rasm. Biznes jarayonlarining ketma-ketligi

Ishlab chiqarish jarayoni mehnat resurslarining moddiy vositalar bilan uyg'unlashuvi natijasida yangi iste'mol qiymatiga ega mahsulot, ish yoki xizmatlarning yaratilishini anglatadi. Mazkur bosqichda hisob obyektlari sifatida xarajatlarning tarkibiy elementlari va moddalari, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan jami sarf-xarajalar, tayyor mahsulot hajmi hamda uning rejadagi va amaldagi tannarxi namoyon bo'ladi.

Sotish (realizatsiya) bosqichida tayyor mahsulotlar iste'molchilarga yetkazib berilib, tovar shaklidan pul shakliga o'tadi. Sotish jarayonida buxgalteriya hisobi quyidagi obyektlarni qamrab oladi: mahsulotni sotish bilan bog'liq tijorat xarajatlari, realizatsiya qilingan tovarlarning haqiqiy tannarxi, sotuv hajmi va assortimenti, olingan tushum (daromad) hamda faoliyatning yakuniy moliyaviy natijasi hisoblangan foyda yoki zarar.

Mazkur jarayonlarning barchasi o'zaro uzviy zanjir hosil qiladi va ularning birortasida kuzatilgan uzilish butun xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, xomashyo ta'minotidagi kechikishlar ishlab chiqarish to'xtashiga va pirovardida tayyor mahsulot hajmining kamayishiga yoki sifatining yomonlashishiga olib keladi. Shuni ta'kidlash joizki, agar rejalashtirilgan iqtisodiyot

tizimida asosiy e'tibor ishlab chiqarish hajmlariga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida mahsulotni sotish va uning bozordagi o'rnini mustahkamlash jarayoni birlamchi ahamiyat kasb etadi.

3.2. Ta'minot jarayoni va uni hisobga olish

Kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida moddiy ne'matlar yaratiladigan asosiy bosqich — bu ishlab chiqarish jarayonidir. Biroq, ushbu jarayonning muvaffaqiyati bevosita tizimli yo'lga qo'yilgan ta'minot bosqichiga bog'liq bo'lib, usiz ishlab chiqarish faoliyatini samarali amalga oshirib bo'lmaydi.

Ta'minot bosqichida xo'jalik subyekti mol yetkazib beruvchi tashkilotlardan mahsulot tayyorlash va umumiy faoliyatni yuritish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, xomashyo, materiallar, yonilg'i-moylash mahsulotlari va boshqa moddiy resurslarni xarid qiladi. Hisob tizimida bunday tovar-moddiy boyliklar ularning haqiqiy tannarxi bo'yicha qayd etiladi. Aktivlarning haqiqiy tannarxi ikki asosiy tarkibiy qismdan, ya'ni ularning xarid bahosi va transport-tayyorlov xarajatlaridan shakllanadi.

Xarid narxi deganda, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuvga asosan rasmiylashtirilgan tovar-hisob hujjatlarida (schyot-faktura, to'lov talabnomasi va h.k.) ko'rsatilgan qiymat tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-moddiy zaxiralar talab va taklif qonuniyatlariga binoan joriy bozor baholarida sotib olinadi.

Transport-tayyorlov xarajatlari o'z ichiga resurslarni temir yo'l, suv yoki avtotransport vositalarida tashib keltirish, yuklash va tushirish ishlari, yo'lda kuzatiladigan tabiiy kamayishlar hamda ta'minot korxonalarining ustama xarajatlarini oladi. Sanoatning ko'plab tarmoqlarida ushbu xarajatlar moddiy qiymatliklar tannarxining sezilarli qismini tashkil qiladi. Ularning miqdori masofa, transport turi va boshqa tashqi omillarga ko'ra o'zgarib turadi. Buxgalteriya hisobining 4-sonli milliy standartiga (BHMS)

muvofig, transport-tayyorlov xarajatlari sotib olingan moddiy zaxiralarning umumiy qiymatiga qo'shib boriladi.

Ta'minot jarayoni xo'jalik subyektining maxsus rejasi yoki grafigi asosida amalga oshiriladi. Bunda xarid qilinadigan boyliklarning hajmi, turi va yetkazib berish muddatlari kabi ko'rsatkichlar asosiy o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib, ta'minot hisobining bosh vazifasi xaridlarning real hajmini va sotib olingan aktivlarning haqiqiy tannarxini aniq hisoblab chiqishdan iboratdir. Sintetik va analitik schyotlar tizimi orqali shakllantiriladigan ma'lumotlar ta'minot jarayonini miqdoriy va qiymat jihatidan doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, bu tizim yordamida korxonaning barcha turdagi moddiy resurslari bo'yicha umumiy xarid hajmini kuzatish mumkin.

Moddiy qiymatliklarni qayd etish uchun 1000-turkumdagi (masalan, 1010, 1020, 1030, 1040, 1050, 1060 va boshqalar) schyotlar qo'llaniladi. Amaldagi tartibga binoan, xaridor mol yetkazib beruvchiga shartnoma summasining kamida 15 foizini oldindan to'lov (avans) tariqasida o'tkazib berishi lozim. Bu jarayon bankka taqdim etiladigan to'lov topshiriqnomasi va unga ilova qilinadigan schyot-fakturalar orqali bajariladi. Yuk kelib tushgach, korxonada tegishli kirim hujjatlari rasmiylashtiriladi va yuqorida keltirilgan schyotlarning tegishlisi debetlanadi. Transport xarajatlari ham bevosita ushbu schyotlarga yo'naltiriladi. Mazkur schyotlarning debet aylanmasi hisobot davridagi umumiy ta'minot hajmini va ularning haqiqiy tannarxini anglatadi. Kredit tomonida esa materiallarning ishlab chiqarishga sarflanishi aks etadi. Debet qoldig'i esa faqat omborda mavjud bo'lgan moddiy zaxiralarning real qiymatini ifodalaydi.

Boshqaruv jarayonida umumlashtirilgan ko'rsatkichlar bilan birga, keltirilgan materiallarning har bir turi bo'yicha alohida ma'lumotlar ham o'ta zarurdir. Bunday batafsil axborotlar analitik schyotlar yordamida shakllantiriladi.

Ta'minot hisobiga doir ko'rsatkichlar korxonada ta'minot rejasining qanday bajarilayotganini tahlil qilishga yordam beradi.

Buning uchun amaldagi xaridlar hajmi rejaviy ko'rsatkichlar bilan o'zaro qiyoslanadi.

Shuningdek, haqiqiy transport xarajatlarining belgilangan normativlarga mosligi ham shu tarzda nazorat qilinadi. Ba'zi usullarda materiallar shartnoma bahosida baholanib, transport xarajatlari alohida qayd etiladi, bu esa moddiy qiymatliklarni hisobga olishning samarali yondashuvlaridan biridir.

Ta'minot jarayonini aks ettiruvchi schyotlar korxonaning barcha turdagi aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, xomashyo, yonilg'i va h.k.) bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ularning real tannarxi haqida to'liq ma'lumot berib, mehnat qurollari va buyumlari ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga xizmat qiladi.

3.3. Ishlab chiqarish jarayoni va uni hisobga olish

Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarining asosiy vazifasi mahsulot yaratish bo'lib, bu jarayon bir necha bosqichdan iborat: dastlab ta'minot jarayoni yo'lga qo'yiladi, so'ngra ishlab chiqarish amalga oshiriladi va yakuniy bosqichda tayyor mahsulot sotiladi. Ushbu uch bosqichning ketma-ket almashinuvi korxonada mablag'larning uzluksiz aylanishini va takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Boshqaruv hisobi tizimida ishlab chiqarish jarayoni ikki yo'nalishda aks etadi: birinchidan, unga sarflangan barcha mablag'lar va mehnat resurslari (xarajatlar), ikkinchidan, olingan natija (tayyor buyumlar). Sarf-xarajatlarning pul shaklida qayd etilishi barcha resurslarni yagona o'lchov birligida umumlashtirish hamda mahsulotning haqiqiy tannarxi to'g'risida yaxlit ma'lumot shakllantirish uchun zarur. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobida qiymat o'lchovi bilan bir qatorda natura va mehnat o'lchovlaridan ham foydalaniladi. Ushbu o'lchovlar pul ko'rinishidagi baholash uchun asos bo'lib, xarajatlar hajmini boshqarishda qo'llaniladi. Shuningdek, tizim mehnat vositalari va ishchi kuchi sarfini qayd

etish orqali ishlab chiqarish iste'molining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari — bu bevosita mahsulot tayyorlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan mehnat, mehnat qurollari hamda mehnat ashyolari (predmetlari) uchun qilingan barcha sarflar va boshqa bevosita xarajatlar yig'indisidir.

Mazkur xarajatlar asosan ishlab chiqarish bosqichida shakllanib, ta'minot va sotish jarayonlari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ta'minot bosqichidagi xaridlar ishlab chiqarishda xarajat ko'rinishini oladi va ushbu xarajatlar asosida korxonaning yakuniy moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar) hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi xo'jalik muomalalarini quyidagi hisobvaraqlar guruhidan foydalaniladi:

2010 – Asosiy ishlab chiqarish;

2310 – Yordamchi ishlab chiqarish;

2510 – Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari;

2610 – Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar;

3110 – Oldindan to'langan operativ ijara haqi;

3120 – Oldindan to'langan xizmat haqi;

3190 – Boshqa kelgusi davr xarajatlari;

8910 – Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari.

Korxonaning asosiy faoliyati hisoblangan mahsulot tayyorlash, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida jamlanadi.

Tashkilotning xarajatlari, ularning to'lanish muddatidan (oldindan yoki keyin) qat'i nazar, qaysi hisobot davriga tegishli bo'lsa, aynan o'sha davr tannarxiga kiritilishi shart.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ining debetida mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq sarflar, yordamchi bo'limlarning xarajatlari, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bilvosita xarajatlar hamda yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan zararlar aks ettiriladi.

Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari moddiy zaxiralar, ish haqi va boshqa tegishli hisobvaraqlarning kreditidan 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ining debetiga o'tkaziladi.

Yordamchi bo'limlarda shakllangan xarajatlar 2310 hisobvarag'ining kreditidan 2010 hisobvarag'ining debetiga hisobdan chiqariladi.

Ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq bilvosita sarflar esa 2510 "Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari" hisobvarag'i kreditidan 2010 hisobvarag'i debetiga yo'naltiriladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ining kreditida tayyor bo'lgan mahsulot yoki xizmatlarning haqiqiy tannarxi qayd etiladi. Ushbu summalar 2810 (Ombordagi tayyor mahsulotlar), 9110 (Sotilgan mahsulotlar tannarxi) yoki 9130 (Bajarilgan ish va xizmatlar tannarxi) hisobvaraqlarining debetiga o'tkaziladi.

2010 hisobvarag'ining hisobot davri oxiridagi debet qoldig'i tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini (Nezavershenka) anglatadi.

Asosiy faoliyatga ko'maklashuvchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'limlar xarajatlari 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" hisobvarag'ida yuritiladi. Mazkur hisobvaraqq quyidagi yo'nalishlardagi xarajatlarni qamrab oladi:

- a) har xil turdagi energiya (elektr, bug' va h.k.) bilan ta'minlash;
- b) transport xizmatlarini ko'rsatish;
- d) asosiy vositalarni ta'mirlash ishlari;
- e) maxsus asboblari, ehtiyot qismlari va konstruksiyalar tayyorlash;
- f) noruda materiallarni (tosh, qum, shag'al) qazib olish;
- g) yog'ochni qayta ishlash;
- h) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash (tuzlash, konservalash).

Bundan tashqari, bu yerda korxona balansidagi ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining sarflari ham aks ettirilishi mumkin.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" hisobvarag'ining debetida ushbu bo'limlarning bevosita xarajatlari, ularni boshqarish sarflari va yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan zararlar jamlanadi.

2310 hisobvarag'ining oy oxiridagi qoldig'i yordamchi ishlab chiqarishdagi tugallanmagan jarayonlar qiymatini ko'rsatadi.

Bilvosita xarajatlarni mahsulot turlari o'rtasida oqilona taqsimlash tannarxni to'g'ri hisoblash va korxonaning narx siyosatini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish sarflarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) uskunalar va texnikalarni saqlash hamda ekspluatatsiya qilish xarajatlari;

2) umumishlab chiqarish xarajatlari;

3) davr xarajatlari.

Ushbu xarajatlarning o'ziga xosligi shundaki, texnikani saqlash sarflari ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgaruvchan (shartli-o'zgaruvchan) bo'ladi. Umumishlab chiqarish va davr xarajatlari esa asosan shartli-o'zgarmas (doimiy) bo'lib, ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bevosita bog'liq emas.

Bilvosita xarajatlarni tannarxga kiritishda ularni butun korxona miqyosida yoki alohida bo'linmalar darajasida taqsimlash usullaridan foydalaniladi.

Umumkorxona miqyosida taqsimlash usulida barcha bilvosita sarflar 2510 "Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari" hisobvarag'ida to'planadi va davr yakunida yagona baza asosida mahsulotlar o'rtasida bo'linadi. Bu usul soddaligi bilan ajralib tursa-da, mahsulot turlarining haqiqiy tannarxini aniqlashda ma'lum xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Boshqaruv hisobi tizimida odatda umumishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha smetalar tuziladi va amaldagi xarajatlar ushbu smeta ko'rsatkichlari bilan doimiy ravishda solishtirib boriladi.

Umumishlab chiqarish xarakteriga ega barcha ma'lumotlar 2510 "Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari" hisobvarag'ida umumlashtiriladi.

Ushbu hisobvaraqa quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sarflar aks etadi:

- a) texnika va uskunalarni saqlash hamda foydalanish;
- b) ishlab chiqarishda band bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- d) uskunalar va binolarni ta'mirlash sarflari;
- e) ishlab chiqarish mulkini sug'urtalash;
- f) binolarni isitish, yoritish va sanitar holatini saqlash;
- g) ijaraga olingan bino va texnikalar uchun ijara to'lovlari;
- h) ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash;
- i) ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa barcha bilvosita sarflar.

2510 hisobvarag'ining debetida yig'ilgan ushbu xarajatlar davr oxirida 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" yoki 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" hisobvaraqlarining debetiga o'tkaziladi. Bilvosita xarajatlarni taqsimlash mezonlari korxonaning hisob siyosati bilan qat'iy belgilanadi.

3.4. Sotish (realizatsiya) jarayoni va uni hisobga olish

Biznes jarayonlari tizimida realizatsiya, ya'ni sotish bosqichi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon tayyor mahsulotlarni sotish, ularni tarkibiy bo'linmalararo taqsimlash yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga yetkazib berishni qamrab oladi. Sotuvni tizimli tashkil etish orqali daromadlarni to'liq shakllantirish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, mavjud resurslardan unumli foydalanish hamda ichki va tashqi bozorni iste'molga tayyor sifatli tovarlar bilan ta'minlashga erishiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib, erkin raqobat muhiti keskinlashgan sari, korxona faoliyatida ishlab chiqarish bosqichidan ko'ra sotish jarayoni strategik ustuvorlik kasb eta boshlaydi. Buning boisi shundaki, aynan shu bosqichda yaratilgan tayyor mahsulotlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar bevosita pul ko'rinishidagi mablag'larga aylanadi. Realizatsiya qilingan tovarlarning o'z vaqtida

va ishlab chiqaruvchi uchun maqbul narxlarda sotilishi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligini hamda umumiy iqtisodiy taraqqiyotini kafolatlaydi.

Agar ilgari iqtisodiy faoliyatning asosi sifatida ishlab chiqarish hajmlarini oshirish ko'rilgan bo'lsa, hozirgi raqobatli bozor munosabatlari sharoitida mahsulotni sotish va bozorda o'z o'rnini topish jarayoni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

3.1-jadval

Sotish (realizatsiya) jarayonining mohiyati hamda ta'riflarining tahlili

Mualliflar	Ta'riflar va yondoshuvlar
V.F.Paliy	"Realizatsiya jarayoni ikki tomonlama tartibdir. Bir tomondan, bu xaridorga sotish yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish obyektni topshirishning aniq jarayonidir. Boshqa tomondan, bu sotuvchi yoki pudratchi tomonidan tranzaksiya uchun to'lov va pul olish jarayoni. Jarayonlar faqat chakana savdoda vaqtga to'g'ri keladi va hatto har doim ham emas"
L.A.Bernsteyn	Realizatsiya - bu pul bo'lmagan resurslar va huquqlarni pulga aylantirish jarayoni bo'lib, u buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda sotish hajmiga nisbatan eng aniq qo'llaniladigan, pul uchun aktivlar yoki pul olish da'volaridir"
R.Entoni va J.Rays	"...sotishdan tan olinadigan daromad summasi. Sotish deganda tovar yoki xizmatlarni sotishdan tushgan pul tushumlari yoki da'volar (debitorlik qarzlari) tushuniladi"
B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, Z.A.Pardayeva	"...sotish (realizatsiya) jarayonida-ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari xaridorlarga jo'natiladi va ular qabul qilib olgan mahsulotlari uchun shartnoma narxida mol yetkazib beruvchilarga pul to'lanadi"
A.S.Sotivoldiyev	"Mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik muomalalarining majmui sotish jarayoni deyiladi"
K.B.Urazov, M.Ye.Po'latov	"Sotish jarayoni deganda, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tayyor mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni xaridorlarga sotish tushuniladi. Ushbu jarayonda olingan daromad ham

	tarmoq xususiyatiga xos ravishda nomlanadi. Masalan, ishlab chiqarish sohasida tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromad, savdoda tovarlarni sotishdan olingan daromad, qurilishda bajarilgan ishlardan olingan daromad, xizmat sohasida ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad deb ataladi"
R.D.Dusmurotov, B.Yu.Menglikulov	"Realizatsiya jarayoni xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlar ekan, korxona o'z tayyor mahsulotini xaridorlarga va boshqa korxonalarga sotadi va natijada ulardan pul kelib tushadi. Shunday qilib, bu jarayonda tayyor mahsulot pul shakliga o'tadi"
A.A.Karimov, F.R.Islomov, A.Z.Avlokulov	"Sotish jarayoni xo'jalik mablag'lari aylanishining so'nggi bosqichi bo'lib, bu bosqichda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridor va iste'molchilarga shartnomalar asosida yetkaziladi. Sotish jarayoni xo'jalik jarayonini tugallaydi va yana yangidan ta'minot jarayoni boshlanadi hamda bu jarayon oldingiga qaraganda kengroq tus oladi"

Xo'jalik subyektlari biznes jarayonining oxirgi bosqichi sotish jarayoni bo'ladi. Chunki, realizatsiya jarayonida mahsulot (ish, xizmat)lar xaridor yoki buyurtmachilarga jo'natilgan, lekin puli kelib tushmagan bo'lishi mumkin. Sotish jarayonida esa, xaridor yoki buyurtmachilarga jo'natilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot (ish, xizmat)lar puli kelib tushgan bo'ladi.

Buni quyidagicha formula bilan aks ettirish mumkin:

$$R = S + A$$

Bu yerda,

R - realizatsiya qilingan aktivlar;

S - sotishdan puli kelib tushgan aktivlar;

A - realizatsiya qilingan, lekin hali puli kelib tushmagan aktivlar.

Sotish jarayonining ahamiyatini uch holatda ko'ramiz:

1. Navbatdagi biznes jarayonining boshlanishi uchun imkoniyat yaratilishida.

2.Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovarlar sotilib, pulga aylanadi va moliyaviy natijani aniqlash imkoni bo'ladi.

3.Sotish jarayonining barqaror bo'lishi ta'minot va ishlab chiqarish jarayoniga ham ijobiy ta'sir qilib, subyekt faoliyatini samarali davom ettiradi.

Realizatsiya jarayonini hisobga olish uchun qo'llaniladigan schotlarning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bular ichida 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlar sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar», 9110-«Sotilgan mahsulot tannarxi», 9120-«Sotilgan tovarlar tannarxi», 9130-«Sotilgan ishlar, xizmatlar tannarxi» schotlari muhim o'rin tutadi. Sotilgan mahsulot, tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni to'la tannarxi 9110, 9120, 9130-schotlarining debet tomonida, olingan daromadlar 9010, 9020, 9030-schotlarning kredit tomonida aks ettiriladi. Shuningdek, realizatsiya jarayoni va moliyaviy natijalarni hisobga olishda 9200-«Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schotlar» (9210-9220), 9300-«Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9310, 9320, 9330, 9340, 9350, 9360, 9370, 9380, 9390), 9410-«Davv xarajatlarini hisobga oluvchi schotlar» (9410, 9420, 9430, 9440), 9500-«Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schotlar» (9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9590), 9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobga oluvchi schotlar» (9610, 9620, 9630, 9640, 9650, 9660, 9690), 9700-«Favqulodda foyda(zarar)larni hisobga oluvchi schotlar» (9710, 9720), 9800-«Soliqlar va yig'implarni to'lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schotlar» (9810, 9820) va 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schotlar» (9910) qo'llaniladi. Hisobot davrining oxirida olingan daromadlar xarajatlar bilan taqqoslanib, realizatsiya natijalari aniqlanadi.

Shunday qilib, sotish jarayoni subyektda xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlaydi. Bu o'z navbatida subyektga davlat byudjeti, olingan kreditlar bo'yicha banklar, mehnat haqi bo'yicha

ishchi va xizmatchilar, olingan moddiy qiymatliklar bo'yicha mol yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini yaratadi. Aksincha, belgilangan sotish rejalarining bajarilmasligi aylanma mablag'lar aylanishini sekinlashiga, xaridorlar oldida shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslikga, turli to'lovlarni kechikishiga hamda subyektning moliyaviy ahvolidan yomonlashishiga olib keladi.

Umuman olganda, sotish jarayoni biznes jarayonining oxirgi bosqichi bo'lib, buxgalteriya hisobida sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha moliyaviy natija aniqlanadi. Aslida, moliyaviy natija ishlab chiqarishda yaratiladi va sotish jarayonida aniqlanadi.

3-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Biznes jarayonlari muayyan mahsulotlarni tayyorlash yoki xizmatlar ko'rsatishga yo'naltirilgan, o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan vazifalar va chora-tadbirlar majmuini o'zida mujassam etadi. Mazkur jarayonlar, odatda, xo'jalik subyektining barcha asosiy bo'g'inlarini, xususan, ishlab chiqarish, marketing, moliya hamda kadrlar bilan ishlash kabi funksional yo'nalishlarini qamrab oladi. Biznes jarayonlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi resurslarni unumli taqsimlash va tashkiliy faoliyatni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirishda muhim poydevor hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jarayonlar mijozlar va barcha manfaatdor tomonlar uchun iqtisodiy qiymat yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv hisobi tizimida ta'minot, ishlab chiqarish hamda realizatsiya (sotish) jarayonlarining mohiyatini chuqur anglash o'ta zarurdir, boisi aynan ushbu bosqichlar buxgalteriya ma'lumotlarini shakllantirish va ularni tahliliy jihatdan sharhlash uchun birlamchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Biznes jarayonlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari, ta'minot, ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar, yordamchi va umumishlab chiqarish faoliyati, mahsulotni baholash va realizatsiya qilish jarayonlari, moliyaviy natijani aniqlash mexanizmlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Biznes jarayonlari tushunchasi va ularning xo'jalik subyektlari faoliyatidagi strategik roli.
2. Biznes jarayonlarini samarali boshqarishda iqtisodiy ko'rsatkichlar va indikatorlarning ahamiyati.
3. Ta'minot bosqichining mohiyati hamda ushbu jarayonni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Ta'minot zanjirida yetkazib beruvchilar va kontragentlar bilan ishlashni boshqarishning dolzarbligi.
5. Ishlab chiqarish siklini hisobga olish mexanizmi va uning mazmun-mohiyatini yoritib bering.
6. Mahsulotni realizatsiya qilish jarayonining konseptual asoslari va uning hisobini tashkil etish tartibi.
7. Yakuniy moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni hisobda aks ettirishning uslubiy jihatlari.
8. Sotish jarayonining asosiy komponentlari va ularning subyekt umumiy daromadliligini ta'minlashdagi ishtiroki.
9. Realizatsiya bosqichida tovar-moddiy zaxiralarini (inventarlarni) boshqarishning iqtisodiy ahamiyati.

IV BOB. BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH

4.1. Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turkumlanishi

Zamonaviy xorijiy nazariyalarga ko'ra, "xarajatlar" tushunchasi xo'jalik subyektlarining buxgalteriya hisobida aks etuvchi an'anaviy xarajat kategoriyalaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biznes jarayonlarida yuzaga keladigan sarf-xarajatlar to'g'risidagi iqtisodiy ma'lumotlarni xolis shakllantirish bevosita buxgalteriya hisobi va uning uslubiy vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda xarajatlar ko'rsatkichi strategik ahamiyatga ega. Xarajatlar deganda, mahsulot ishlab chiqarish, tovarlarni realizatsiya qilish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarflarning puldagi ifodasi tushuniladi.

Korxonalarda xarajatlar tarkibi ularning asosiy operatsion, moliyaviy va investitsiyaviy faoliyatiga bog'liq holda shakllanadi. Ishlab chiqarish subyektlari uchun, asosan, xomashyo va materiallar, energetika resurslari hamda xodimlarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq chiqimlar yetakchi o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi (305-modda)ga binoan, soliq to'lovchi tomonidan hisobot davrida mamlakat ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilgan, iqtisodiy jihatdan asoslangan hamda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan barcha chiqimlar xarajat deb e'tirof etiladi.

Iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan (asoslangan) xarajatlar deganda, qiymati pul shaklida ifodalangan va quyidagi mezonlardan kamida biriga javob beradigan chiqimlar tushuniladi:

1) Daromad olishga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida qilingan sarflar;

2) Tadbirkorlik faoliyatini saqlab turish yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hamda biznes bilan aloqasi aniq ko'rinib turgan chiqimlar;

3) Amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiqadigan majburiy to'lovlar va sarflar.

Hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar sirasiga quyidagilar asosida rasmiylashtirilgan chiqimlar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga muvofiq tayyorlangan hujjatlar;

2) Xarajat amalga oshirilgan xorijiy davlatning tartib-taomillariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar;

3) Boshqa shakldagi tasdiqlovchi hujjatlar, jumladan, xizmat safari buyruqlari, yo'l hujjatlari va shartnomaviy xizmatlar hisoboti.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar buxgalteriya hisobi qonunchiligi va Soliq kodeksi o'rtasida xarajatni e'tirof etish borasida tafovut yuzaga kelsa, soliq solish maqsadlarida Kodeksda belgilangan tartib ustuvor hisoblanadi.

Mamlakatimizda xarajatlar tarkibini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan maxsus Nizom asosiy uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu Nizom barcha yuridik shaxslar va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniqlashning yagona metodologik tamoyillarini belgilab beradi.

Mazkur hujjat buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish o'rtasidagi tafovutlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Korxonaning raqobatbardoshligini tahlil qilish va moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash buxgalteriya hisobining bosh vazifasidir.

Nizomga muvofiq, xarajatlar ro'yxati quyidagi maqsadlar uchun qat'iy belgilanadi:

- Korxona faoliyatining rentabelligi va bozordagi o'rnini baholash uchun barcha sarflar haqida buxgalteriya schyotlarida aniq axborot shakllantirish;

- Soliqqa tortiladigan bazani qonuniy va to'g'ri hisoblash.

Nizomda barcha xarajatlar quyidagi yirik guruhlariga tasniflanadi:

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) Bevosita va bilvosita moddiy sarflar;

- b) Bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- d) Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama va boshqa bevosita chiqimlar.

Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq davr xarajatlari sifatida asosiy faoliyat foydasidan chegiriladigan sarflar:

- a) Realizatsiya (sotish) bilan bog'liq xarajatlar;
- b) Ma'muriy (boshqaruv) sarf-xarajatlar;
- d) Boshqa operatsion chiqimlar va zararlar.

Korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari (umumxo'jalik foyda yoki zararini hisoblashda inobatga olinadi):

- a) To'lanadigan foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) Valyuta kurslari farqidan kelib chiqadigan salbiy tafovutlar;
- d) Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilingan mablag'larni qayta baholash zarari;

e) Boshqa moliyaviy chiqimlar;

f) Favqulodda zararlar (soliq to'langunga qadar bo'lgan foydadan chegiriladi).

Xarajatlar boshqaruv hisobining asosiy obyekti hisoblanadi. Xarajatlar kategoriyasi keng tushuncha bo'lib, qaysi faoliyatga oidligi va qachon yuzaga kelganligidan qat'i nazar hisobga olinadigan xarajatlardir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib "xarajat" tushunchasining mohiyatini aniq ta'riflash zarur bo'ladi. Shu boisdan "xarajat" tushunchasini ta'riflashga iqtisodchi olimlarning yondashuvlarni ko'rib chiqamiz (4.1-jadval).

4.1-jadval

"Xarajat" tushunchasining mohiyati bo'yicha ta'riflar va yondashuvlar

Ta'riflar va yondashuvlar	Ma'lumot manbasi
Xarajatlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xom ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag'lar) sarflari bilan bog'liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000. - 392b.

Xarajat – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari https://mf.uz/media/file/buh-uchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB_2020_IAS01.pdf
Xarajatlarda – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir	O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" (AV 09.09.2016y. 475-1-son bilan ro'yxatga olingan)
Soliq to'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko'rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari xarajatlarda deb e'tirof etiladi.	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri) 305-moddasi. 30.12.2019//lex.uz
Xarajatlarda – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir	Karimov A., Islomov F., Avloqulov A.. Buxgalteriya hisobi.-T: «Sharq» NMAK, 2004. -93 b.
«Xarajat – ishlab chiqarish hajmi – foyda» ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligida ifodalanadi	Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. Toshkent – "G'ofur G'ulom" -2008. -49 b.
Xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromadlar va xarajatlarda kontseptsiyasiga ko'ra, o'sha davrning o'zida daromad keltirishi kerak	Ibragimov A.K., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi./O'quv qo'llanma.-T.: "IQTISOD-MOLIYA" 2008. - 444 b.
Xarajatlarda – muayyan davr oralig'ida sarflangan resurslarning pul o'lchovidagi qiymatidir	Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik.-Toshkent-"IQTISOD-MOLIYA", 2019-738 b.

Xarajatlar – mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflangan xarajatlar	Ro'zmetov B., Bekturdiyev O., Yo'ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulyatsiyasi. Toshkent, "ILM ZIYO", 2006. -230 b.
Xarajatlar – mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir	Xasanov B.A., G'aniyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2018. – 23 b.
Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari.	Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: "Zamin nashr", 2021. -856 b. (363 b.)
Xarajat – xo'jalik yurituvchi subyekt maqsadiga erishish uchun mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi moddiy, nomoddiy, mehnat va boshqa sarflarning puldagi ifodasidir	Dusmuratov R.D, Tursunqulova G.B. Tannarx kalkulyatsiyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya" 2022, -24 b.
Xarajatlar – bu ko'zlangan maqsadlarga (mahsulot ishlab chiqarish, tovarlar xaridi, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, loyihalarni amalga oshirish) erishish uchun sarflangan barcha resurslar qiymatining puldagi ifodasidir.	Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_Toshnazarova.pdf

Jadvalda keltirilgan ta'rif va yondashuvlarni e'tirof etgan holda "xarajat" tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuv beramiz: "Xarajat – bu xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflagan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari qiymatining puldagi ifodasidir".

4.2. Moddiy xarajatlarning tavsifi va ularning hisobini yuritish

Boshqaruv hisobining fundamental yo'nalishlaridan biri materiallar zaxirasini boshqarish hisoblanadi. Ushbu tizim ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur resurslarni xarid qilish, ularni omborlarda saqlash va jarayonga yo'naltirish bosqichlarini samarali tashkil etishni maqsad qiladi. Materiallar — ishlab chiqarish siklida bir marta ishtirok etib, o'zining butun qiymatini yangi yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'liq o'tkazadigan mehnat buyumlaridir.

Bevosita yoki asosiy materiallar mahsulotning moddiy asosini tashkil etuvchi xomashyolardir. Masalan, transport vositasi korpusi tayyorlanadigan po'lat plitalar bunga misol bo'la oladi. Bilvosita materiallar esa ishlab chiqarish jarayoniga yordam beruvchi zaxiralar, jumladan, moylash ashyolari, turli mahkamlovchi moslamalar (vint, gayka) va boshqa xo'jalik materiallaridir. Odatda, bilvosita materiallar ishlab chiqarish ustama xarajatlarining tarkibiy qismi sifatida ko'riladi.

Moddiy xarajatlar majmuasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: mahsulot yoki xizmatlar tarkibiga kiruvchi xomashyo va materiallar; texnologik jarayonlarni ta'minlash uchun ishlatiladigan materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik buyumlari; qo'shimcha ishlov yoki montaj talab etuvchi butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar; tashqi tashkilotlar yoki ichki bo'linmalar tomonidan bajarilgan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlar; tabiiy resurslar (suv, daraxt va h.k.) uchun to'lovlar; isitish, transport va texnologik ehtiyojlar uchun sarflangan yonilg'i; barcha turdagi energiya sarfi; moddiy boyliklardagi tabiiy kamomad va nobudgarchiliklar hamda qadoqlash materiallari qiymati.

Moddiy xarajatlarning mahsulot tannarxida shakllanishi shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi: birinchidan, barcha zaruriy resurslarni sotib olish bo'lsa, ikkinchidan, ularni bevosita ishlab chiqarishga yo'naltirishdir. Materiallarni xarid qilishda nafaqat ularning shartnoma bahosini, balki boshqa qo'shimcha xarajatlarni

ham inobatga olish lozim. Bularga bojxona bojlari, qoplanmaydigan soliqlar, vositachilik haqlari, sertifikatlash va sinov sarflari hamda transport-tayyorlov xarajatlari kiradi.

Materiallar kelishini nazorat qilish xarid bo'limi zimmasidadir. Bu bo'lim yetkazib beruvchilarning shartnoma majburiyatlarini kuzatadi, sifat va miqdor bo'yicha e'tirozlar bildiradi hamda yuklarni qidirish ishlarini olib boradi. Jarayon muayyan bo'linmalarning ehtiyoji uchun talabnoma berishidan boshlanadi. Mas'ul shaxs talabnomani ma'qullagach, yetkazib beruvchi tanlanadi va xarid buyurtmasi shakllantiriladi. Yuk qabul qilinganda uning miqdori va sifati tekshirilib, maxsus xabarnoma orqali omborga kirim qilinadi.

Materiallarni hisobga olishda ikki asosiy tizim — davriy va uzluksiz hisob tizimlari qo'llaniladi. Materiallarni davriy hisobga olish tizimida yil davomida zaxiralar hisobi batafsil yuritilmaydi, faqat davr yakunida inventarizatsiya orqali aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishga berilgan materiallar quyidagi formula asosida hisoblanadi: Davr boshidagi qoldiq qo'shilgan xarid qilingan materiallar ayrilgan davr oxiridagi qoldiq tengdir ishlab chiqarishga berilgan materiallar tannarxiga. Ushbu tizim ortiqcha qog'ozbozlikni talab qilmagani uchun ko'p qo'llaniladi, biroq joriy zaxiralarni nazorat qilishda kamchiliklarga ega. Uzluksiz hisob tizimida esa har bir kirim va chiqim muntazam qayd etib boriladi, bu esa zaxiralarni tezkor boshqarish imkonini beradi.

Moddiy zaxiralarni baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Yalpi identifikatsiyalash usulida materiallar zaxirasidagi har bir birlik qaysi operatsiya orqali olingan bo'lsa, aynan o'sha qiymatda baholanadi. Bu usul qimmatbaho va noyob materiallar uchun mos kelsa-da, keng turdagi tovarlar uchun juda murakkabdir.

FIFO usuli (birinchi kelgan — birinchi chiqadi) bo'yicha zaxiralar omborga tushish tartibi asosida baholanadi. Ya'ni ishlab chiqarishga dastlab xarid qilingan materiallar yo'naltiriladi, davr

oxiridagi qoldiq esa oxirgi xaridlar narxida baholanadi. Bu usul inflyatsiya davrida yuqori foyda ko'rsatkichini beradi.

LIFO usuli (oxirgi kelgan — birinchi chiqadi) bo'yicha eng so'nggi xarid qilingan materiallar birinchi bo'lib ishlab chiqarishga beriladi. Bu usul narxlar ko'tarilayotgan davrda eng kam foyda darajasini ko'rsatadi va joriy xarajatlarni daromadlar bilan muvofiqlashtirishga yordam beradi.

O'rtacha qiymat usulida (AVECO) sotish yoki foydalanish uchun mavjud barcha materiallarning umumiy qiymati ularning miqdoriga bo'linadi va o'rtacha narx aniqlanadi. Natijada ishlab chiqarishga berilgan materiallar va davr oxiridagi qoldiq aynan shu o'rtacha bahoda hisoblanadi.

FIFO usuli almashtirish qiymati usuliga o'xshash bo'lib, materialni ishlab chiqarishga berishda joriy bozor baholarini inobatga olish uchun tuzatishlar kiritishni talab qiladi.

Me'yoriy qiymat usulida materiallar oldindan belgilangan standart narxlarda baholanadi. Haqiqiy narx va me'yor o'rtasidagi tafovutlar esa alohida og'ish hisobvaraqlarida tahlil qilib boriladi.

4.3. Mehnat xarajatlari, mehnatga haq to'lash shakllari va mehnat xarajatlarini hisoblash

Boshqaruv hisobi tizimida mehnat xarajatlarining mohiyatini chuqur anglash samarali boshqaruv qarorlarini shakllantirish va moliyaviy rejalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Mehnat xarajatlari o'z ichiga ish haqi, turli ijtimoiy to'lovlar va boshqa tegishli sarf-xarajatlarni qamrab olgan holda, xo'jalik subyektiining xodimlar salohiyatiga kiritgan jami moliyaviy investitsiyalarini ifodalaydi.

Mehnati xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayoniga sarflangan inson mehnatining qiymati ko'rinishidagi ifodasidir. Bu xarajatlar barqaror va samarali ishchi kuchini shakllantirish hamda ularni korxonada saqlab qolish uchun ajratiladigan iqtisodiy resurslar hajmini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish chiqimlarining tarkibiy qismi sifatida mehnat xarajatlari mahsulot tannarxini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va pirovardida xo'jalik subyektining moliyaviy natijadorligi hamda yuqori foyda olish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat xarajatlarini tizimli boshqarish korxonalarga o'z resurslarini optimallashtirish, bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va faoliyat barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, u mahsulot narxini belgilash, byudjetlashtirish va ish samaradorligini baholashda xarajatlar hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mehnat xarajatlari hisobi quyidagi asosiy yo'nalishlarda yuritiladi:

- Mehnat xarajatlari tarkibiga alohida bajarilgan operatsiyalar qiymati hamda tegishli ustama xarajatlarning kiritilishi;

- Ish haqini hisoblash jarayonida xodimlarga bajarilgan ish uchun haq tayinlash, soliq idoralari, pensiya jamg'armasi va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni ro'yxatga olish bilan bog'liq hisob-kitoblar.

Mehnat xarajatlarning tarkibiy elementlari xo'jalik subyektining ishchi kuchiga yo'naltiradigan umumiy investitsiyalari majmuini tashkil etadi. Mazkur elementlar sirasiga asosiy ish haqi, imtiyozlar, soliqlar, qo'shimcha ish vaqti uchun to'lovlar, bonuslar, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish sarflari hamda sug'urta xarajatlari kiradi.

Mehnat xarajatlarini hisobga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad — har bir xodimning muayyan faoliyat turiga sarflagan vaqtini maxsus buyurtma kartochkalarida yoki tabelda qayd etish hamda shunga muvofiq ravishda belgilangan soatbay stavkalarni qo'llashdir.

Mehnat xarajatlarini hisoblash jarayoni har bir xo'jalik subyektining o'ziga xos ehtiyojlari va strategik maqsadlaridan kelib chiqib, turli usullarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu moliyaviy va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat xarajatlarini hisoblashning quyidagi asosiy usullari mavjud:

1. To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar usuli;
2. Absorbsiya (to'liq xarajatlarni qoplash) usuli;
3. Faoliyatga asoslangan xarajatlar (ABC) usuli;
4. Ishga buyurtma narxi usuli;
5. Standart xarajatlar usuli;
6. Marjinal xarajatlar usuli.

Ish haqi — bu ish beruvchi tomonidan xodimga muayyan vaqt davomida bajargan mehnati yoki ko'rsatgan xizmati uchun oylik yoki yillik asosda to'lanadigan qat'iy belgilangan muntazam pul mablag'idir.

Hozirgi vaqtda mehnatga haq to'lashning quyidagi asosiy shakllari qo'llaniladi:

- Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimi;
- Mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi;
- Mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofot tizimi;
- Mehnatga haq to'lashning ishbay-kafolatlangan tizimi.

Vaqtbay haq to'lash tizimi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidan qat'i nazar, xodimning haqiqatda ishlagan vaqti (soat, kun yoki hafta) uchun belgilangan tarif stavkalari asosida hisoblanishini anglatadi.

Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimida ish haqi miqdori ishlangan vaqt miqdorini vaqt birligi uchun belgilangan tarif stavkasiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Vaqtbay-mukofot shakli vaqtbay tizimning bir ko'rinishi bo'lib, u ishlangan vaqt uchun to'lanadigan asosiy haqqa qo'shimcha ravishda ma'lum bir sifat va miqdor ko'rsatkichlariga erishilganligi (rejaning bajarilishi, mahsulot sifatining yuqoriligi va h.k.) uchun mukofotlar qo'shilishini nazarda tutadi.

Mehnatga ishbay haq to'lash tizimida esa ish haqi miqdori bevosita amalda tayyorlangan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat miqdoriga hamda ular uchun belgilangan narxlarga (rasstenka) qarab belgilanadi.

Ishchi kuchi qo'nimsizligi – bu ishdan bo'shagan xodimlarning shu davrda ishga yollangan xodimlarning o'rtacha soniga nisbatidir.

Ishchi kuchi qo'nimsizligi ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

Almashtirish lozim bo'lgan ishdan bo'shagan xodimlar soni

Barcha xodimlarning o'rtacha soni

Mehnat unumdorligini o'lchash uchun haqiqiy unumdorlik rejalashtirilgan birlikka qiyoslanadi yoki sarflangan ma'lum vaqt bilan amaldagi ishlab chiqarish me'yoriy vaqtga qiyoslanadi.

Mehnat unumdorligi koeffitsienti (mehnat samaradorligi) quyidagicha hisoblanadi:

Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur me'yoriy vaqt

Amalda sarflangan soat

$\times 100 \%$

Mehnat xarajatlari va ularni hisoblash tushunchasini chuqur o'rganish menejer-buxgalterlar uchun zarur bo'lib, bu orqali ongli qarorlar qabul qilish, moliyaviy barqarorlik va xo'jalik subyektlarida strategik o'sishga yordam beradi.

4-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Xarajatlar kategoriyasi to'lovlar tushunchasi bilan chambarchas aloqador bo'lsa-da, har qanday pul chiqimi joriy hisobot davrining mahsulot, ish yoki xizmatlar tannarxiga kiritilmaydi. Bunday amaliyotlar ko'pincha o'tgan yoki kelajakdagi davrlarga tegishli sarflarni qoplashga yo'naltirilgan bo'lib, natijada xo'jalik subyekti aktivlarining kamayishi kuzatiladi.

Shu munosabat bilan, buxgalteriya hisobi yuritilganda mahsulot tannarxiga o'tkaziladigan xarajatlar yoki davr sarflari atamalaridan foydalaniladi. Soliqqa tortish jarayonida esa foyda solig'ini hisoblashda inobatga olinadigan, ya'ni soliq bazasini shakllantirishda ishtirok etuvchi xarajatlar tushunchasi qo'llaniladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xarajatlarni boshqarish jarayoni va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari, moddiy xarajatlar hamda materiallarni boshqarish tizimi, materiallarni hisobga olishning amaldagi usullari, bevosita va bilvosita material xarajatlari, mehnat xarajatlari va ularni hisoblash

usullari, ish haqi tushunchasi, vaqtbay va ishbay ish haqi shakllari, vaqtbay mukofot hamda ishbay kafolatlangan to'lov tizimlari, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xo'jalik subyektlarida moddiy resurslarni (materiallarni) boshqarish mexanizmi va uning bosqichlarini tavsiflang.

2. Zaxiralarni hisobga olishning uzluksiz (perpetual) va davriy tizimlari o'rtasidagi fundamental farqlarni tushuntiring.

3. Materiallar qiymatini baholashda LIFO (oxirgi kirim — birinchi chiqim) uslubining iqtisodiy mazmuni va qo'llanilish xususiyatlarini bayon qiling.

4. O'rtacha tortilgan qiymat (AVECO) uslubining mohiyati va uning hisob-kitob tartibiga tavsif bering.

5. FIFO (birinchi kirim — birinchi chiqim) usulining o'ziga xos jihatlari va uni qo'llashning afzalliklarini izohlang.

6. NIFO (navbatdagi kirim — birinchi chiqim) uslubining mazmuni va boshqaruv hisobidagi o'rni haqida ma'lumot bering.

7. Material xarajatlarini hisobga olishda me'yoriy qiymat (standart-kost) usulining afzalliklari va qo'llanilish tartibini yoritib bering.

8. Mehnat xarajatlarini shakllantirish va ularni tizimli hisobga olishning iqtisodiy mohiyatini ochib bering.

9. Mehnat sarfi va unga haq to'lash xarajatlarini hisobga olishda qo'llaniladigan asosiy uslub va yondashuvlarni sanang.

10. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholovchi asosiy indikatorlar (KPI) va ularni aniqlash metodikasini tushuntiring.

V BOB. BOSHQARUV HISOBIDA MAHSULOTLAR TANNARXI VA ULARNI KALKULYATSIYA QILISH

5.1. Boshqaruv hisobida mahsulot tannarxi va uning mohiyati

Buxgalteriya hisobi tizimidagi biznes jarayonlarining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar majmuasida tannarx markaziy o'rinni egallaydi. Buning boisi shundaki, tannarx muayyan mahsulotni yaratish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun sarflangan barcha iqtisodiy chiqimlarning jamlanmasini o'zida ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich qiymat yaratish jarayonidagi barcha ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Mahsulot tannarxi — xo'jalik subyektining ishlab chiqarish, realizatsiya, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan jami operatsion chiqimlarining pul ko'rinishidagi yaxlit ifodasidir. Ishlab chiqarish jarayonida tannarxning tayanch tarkibiy qismlari sifatida xomashyo va materiallar, energetika resurslari, asosiy va qo'shimcha mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta to'lovlari hamda asosiy vositalar amortizatsiyasini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, tannarx tarkibiga bevosita ishlab chiqarish bilan aloqador bo'lmagan, biroq zaruriy hisoblangan sotuv va marketing chiqimlari, mahsulotni qadoqlash hamda yetkazib berish xarajatlari, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va reklama sarflari ham kiritiladi.

Tannarx hisoblash xarajat me'yorlari va normativlarining ilmiy asoslanganligini baholash, ularning dinamikasini nazorat qilish va tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash hamda mahsulotlarning bozor bahosini belgilash va uni tezkor qayta ko'rib chiqishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, "Tannarx" tushunchasiga ham ilmiy va o'quv-uslubiy manbalardagi yondashuvlarni tahlil qilamiz (5.1-jadval).

5.1-jadval

"Tannarx" tushunchasi iqtisodiy mazmuni bo'yicha ta'rif va yondashuvlar

Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi	Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: "Zamin nashr", 2021. -856 b. (363 b.)
Mahsulot tannarxi – mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflangan bevosita xarajatlarning yig'indisi	Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik – Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2003. -260 b.
Tannarx – xo'jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichidir	Dusmuratov R.D, Menglikulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. T.: "Fan va texnologiya", 2014. 392 b.
Mahsulot tannarxi – bu korxonaning ishlab chiqarish va mahsulot sotish uchun amalga oshirilgan jami xarajatlarning pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, uning negizida ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi	Maxkamboyev A.T., Abduvoxidov F.T., Sotiboldiyeva D.A., Shodiyev E.T. Kalkulyatsiya sebestoimosti: Uchebnoye posobiye. -T: "ILM ZIYO", 2012. - 208 s.
Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi	Ro'zmetov B., Bekturdiev O., Yo'ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent, "ILM ZIYO", 2006.- 230 b.
Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi – bu zaxiralarni qayta ishlash jarayonida foydali bo'lgan va tayyor mahsulotlarning qiymatiga olib boriladigan,	Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi https://iqtisodiyot.tsue.uz/site/s/default/files/maqolalar/4_To

xizmatlar va ishlarni bajarish jarayonida uning qiymatiga qo'shiladigan bevosita va bilvosita ishlab chiqish xarajatlardir.	shnazarova.pdf
Mahsulot tannarxi – bu korxonaning pul ko'rinishidagi jami xarajatlari bo'lib, uning negizida mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi	Керимов В.Е. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в отдельных отраслях производственной сферы. - Москва, 2005. - 246 с.
Tannarx (angl. <i>cost price</i>) – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotishi uchun amalga oshirilgan joriy chiqimlarning qiymatdagi baholanishidir	Себестоимость / Кузнецов О.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М.: Большая российская энциклопедия, 2004—2017
Tannarx – buxgalteriya hisobining markaziy kategoriyasi, ... tannarx rezervlarni axtarib topish, nazoratni o'rnatish, ishlab chiqarishning samardorligini oshirish, qiyoslama tahlilini o'tkazish, narxlashtirishni amalga oshirish, samaradorlikni belgilashda muhim ko'rsatkich	Лунин П.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости научно-технической продукции: На примере отрасли "Наука и научное обслуживание" https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat

Ushbu jadvalda keltirilgan ta'rif va yondashuvlarini o'rgangan holda "Tannarx" tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuvini keltirdik: "Tannarx – bu bir birlik mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasidir".

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda sarf-xarajatlarni tizimli hisobga olish boshqaruv hisobining ustuvor yo'nalishlaridan

sanaladi. Negaki, ishlab chiqarilgan ne'matlarning tannarxi quyidagi strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi:

- qaysi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni davom ettirish yoki to'xtatishni belgilash;
- yordamchi butlovchi qismlarni tashqaridan sotib olish yoki korxonaning o'zida tayyorlashning iqtisodiy foydasini baholash;
- bozorga chiqariladigan yangi mahsulotlar uchun maqbul narx siyosatini shakllantirish;
- ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy texnologiyalar bilan yangilash masalasini ko'rib chiqish;
- texnologik jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ilmiy asoslash.

Boshqaruv hisobi amaliyotida tannarx ko'rsatkichlari asosan quyidagi ikki obyekt kesimida hisoblab chiqiladi:

- alohida tarkibiy bo'linmalar va sexlar bo'yicha;
- mahsulotlarning muayyan turlari bo'yicha.

Bunda xarajatlarni taqsimlash mexanizmi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- dastlab xarajatlar ular vujudga kelgan mas'uliyat markazlarida jamlanadi;
- so'ngra to'plangan ushbu sarflar aniq mahsulot turlari kesimida taqsimlanadi.

Xarajatlarni taqsimlash — bu korxona faoliyatida yuzaga kelgan barcha sarflarni belgilangan hisob obyektlari bo'yicha tizimli guruhlash jarayonidir.

Xarajatlar obyekti deganda, sarflangan resurslar hisobi yuritilishi shart bo'lgan muayyan tashkiliy bo'lim yoki ishlab chiqarish yo'nalishi tushuniladi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini shakllantirish resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Moddiy, moliyaviy va inson resurslarining oqilona sarflanishi korxonaga mahsulot tannarxini pasaytirish va ichki imkoniyatlarni safarbar etish orqali foydani oshirish imkonini beradi.

Tannarxni aniq hisoblashda kalkulyatsiya birligini to'g'ri tanlash muhim uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi.

Kalkulyatsiya birligi — bu hisob obyektining o'lchov mezonini bo'lib, u mahsulotning texnik xususiyatlari, assortiment kengligi, qo'llaniladigan standartlar va ishlab chiqarish shartlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Kalkulyatsiya obyektlarini aniqlashda mahsulotning nomi, tarkibi (masalan, yog'ililik darajasi) va qadoqlash turiga e'tibor beriladi. Misol uchun: sig'imi 1 litr bo'lgan qog'oz paketdagi 3,2 foizli sut, 0,5 litrli polietilen idishdagi 20 foizli smetana yoki 250 grammlı o'ramdagi yog'siz tvorog kabilar shunday obyektlar bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish amaliyotida kalkulyatsiya birliklarining quyidagi guruhlari keng qo'llaniladi:

- tabiiy o'lchov birliklari — dona, kilogramm, tonna, metr, kub metr, kilovatt-soat va boshqalar;

- shartli-tabiiy birliklar — masalan, konserva sanoatidagi 100 shartli banka va shunga o'xshash ko'rsatkichlar;

- ekspluatatsion (foydalanish) birliklari — quvvat ko'rsatkichi, ish unumdorligi va h.k.;

- ish hajmi birliklari — tashilgan yukning bir tonnasi, yo'l qoplamasining yuz metri va h.k.;

- vaqt o'lchovlari — mashina-kun, mashina-soat, norma-soat va boshqalar.

5.2. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati

Xarajatlarni qayd etish va mahsulot qiymatini aniqlash jarayonida bevosita buxgalteriya hisobi sohasiga tegishli hisoblangan «kalkulyatsiya», «tannarxni shakllantirish» va «qiymatni hisoblash» kabi tushunchalar qo'llaniladi.

Ayrim mutaxassislar «kalkulyatsiya» tushunchasini tannarxni aniqlash jarayoni sifatida talqin etganlar. Chunonchi, I.I.Poklad bu borada shunday deydi: «Mahsulotning (buyum, tur yoki guruh)

birlik hajmi uchun xarajat moddalari kesimida tannarxni hisoblab chiqish kalkulyatsiya deb yuritiladi».

Hisob amaliyoti doirasida «kalkulyatsiyalash» hamda «tannarxni aniqlash» iboralari o'zaro chambarchas bog'liqdir, chunki mahsulot qiymatini kalkulyatsiya qilish amalda uning haqiqiy tannarxini hisoblashni anglatadi. I.A.Lamikin ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif bergan: «Ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini mahsulot birligiga nisbatan hisob-kitob qilish jarayoni tannarx kalkulyatsiyasi hisoblanadi».

Iqtisodchi olimlarning bir guruhi kalkulyatsiyani bir tomondan mahsulot tannarxini hisoblash uslubi deb bilsalar, ikkinchi tomondan uni hisob jarayonining yakuniy nuqtasi deb hisoblaydilar. Shu ma'noda P.A.Kostyuk kalkulyatsiyani «Xarajatlarni guruhlash hamda aniq metodlar yordamida mahsulot chiqishini hisobga olgan holda tannarx aniqlanadigan yakunlovchi bosqich» deya baholaydi.

Boshqaruv hisobi tizimida kalkulyatsiya mustaqil kategoriya bo'lib, u ishlab chiqarish sarf-xarajatlari hisobining uzviy qismidir. Kalkulyatsiya — bu kalkulyatsiyalash jarayonining amaliy natijasidir. Uning tarkibiy tuzilishi orqali hisob yuritish tartibi, hisob-kitob metodikasi va mahsulot qiymatiga doir axborotlar tizimi shakllantiriladi.

Tannarxni kalkulyatsiya qilishda aynan qaysi mahsulot qiymati hisoblanayotganini, ya'ni hisob obyektini aniq bilish katta ahamiyatga ega. Mahsulotning tannarxi aniqlanayotgan vaqtda aynan o'sha mahsulot kalkulyatsiya objekti sifatida e'tirof etiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlangan mahsulotlar shartli ravishda uch turga ajratiladi:

1. Asosiy mahsulot. Korxona aynan qaysi mahsulotni tayyorlash uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha mahsulot asosiy hisoblanadi.
2. Yondosh mahsulot. Iqtisodiy ahamiyati bo'yicha asosiy mahsulotga yaqin turadigan va texnologik jarayonda u bilan birga olinadigan mahsulotlar yondosh mahsulotlar deb ataladi.
3. Qo'shimcha mahsulot. Qiymati jihatidan asosiy mahsulotga tenglasha olmaydigan, biroq ishlab chiqarish jarayonida unga

qo'shimcha tarzda yuzaga keladigan mahsulotlar qo'shimcha mahsulotlardir. Asosiy va yondosh mahsulotlar kalkulyatsiya obyekti hisoblansa-da, qo'shimcha mahsulotlar odatda kalkulyatsiya obyekti bo'lib xizmat qilmaydi.

Texnologik jarayon va ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, kalkulyatsiya obyekti sifatida quyidagilar belgilanishi mumkin:

- tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlar yoxud ularning majmuasi;
- buyumlar, yarim fabrikatlar, turli nomdagi yoki yakka tartibda tayyorlanadigan buyumlar;
- qurilish sohasida yakuniga yetkazilgan qurilish bosqichlari; shuningdek, turli ishlar va xizmat turlari.

Kalkulyatsiyalash metodlari — bu korxona yoki uning bo'linmalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan usullar va uslublarning ilmiy asoslangan majmuidir.

Materiallarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflar buxgalteriya hisobining tegishli schyotlarida tizimli ravishda guruhlanadi. Tayyorlangan materiallar, tayyor mahsulotlar yoki bajarilgan xizmatlar hirligining qiymatini aniqlash jarayoni buxgalteriya hisobida kalkulyatsiyalash deb yuritiladi.

Kalkulyatsiya qilishdagi murakkabliklar, avvalo, xo'jalik jarayonlarining turliligi hamda ishlab chiqarishning texnologik shart-sharoitlari murakkablashishi bilan bog'liqdir. Ushbu murakkablik xarajatlarni guruhlash uchun asos tanlash bosqichidayoq namoyon bo'ladi. Bunda bir qancha mezonlar mavjud: kalkulyatsiya obyekti, xarajatlar elementi hamda tannarx moddalari. Kalkulyatsiyalash obyektlari — bu tannarxni hisoblash uchun sarflarni tizimlashtirish asosidir.

Buxgalter uchun kalkulyatsiyalash vazifalari xo'jalik mablag'lari aylanishining barcha bosqichlarida, ya'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida yuzaga keladi.

Mahsulotlar tannarxini aniqlashda kalkulyatsiya obyekti va birligi, shuningdek, xarajat elementi va moddasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim.

Ishlab chiqarilgan buyumlar, detallar, bir xildagi mahsulotlar guruhleri, texnologik bosqichlar hamda turli tayyorgarlik darajasidagi ish va xizmatlar kalkulyatsiyalash obyektlari sanaladi.

Kalkulyatsiya birligi — bu kalkulyatsiya obyektining o'lchov mezoni hisoblanadi. Tayyor mahsulot haqida gap ketganda, ushbu birlik ishlab chiqarish rejalaridagi natural ko'rsatkichlarga yoki mahsulot standartidagi o'lchov birligiga muvofiq keladi.

Ayrim tarmoqlarda hisob obyekti va kalkulyatsiya birligi o'zaro farq qilishi mumkin. Masalan, qayta ishlash sanoatida hisob birligi sifatida 1 kg mahsulot olinsa, kalkulyatsiya 1 t yoki 1 s mahsulot uchun tuzilishi mumkin.

Bir xildagi oraliq mahsulotlarni kalkulyatsiya qilishda ko'pincha shartli yiriklashtirilgan birliklardan (masalan, 100 juft poyafzal yoki 1000 shartli banka) foydalaniladi.

Joriy sarf-xarajatlarni tizimlashtirish elementlar va kalkulyatsiya moddalari kesimida amalga oshiriladi.

Xarajatlarni elementlar bo'yicha guruhlash korxonaning hisobot davrida aynan nimalarga va qancha mablag' sarflaganini aniqlash zaruratidan kelib chiqadi.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq, mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini shakllantiruvchi sarflar iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqarish jarayoniga tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

- ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya qiymati.

Xarajatlarning yo'nalishi va turlariga ko'ra taqsimlanishi xarajat moddalari deb ataladi. Dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi sarflar quyidagi moddalar bo'yicha hisobga olinadi:

1. Ish haqi va tegishli ajratmalar.
2. O'g'itlar hamda yem-xashak sarfi.
3. Asosiy vositalar amortizatsiyasi.
4. Urug'lik va ko'chat materiallari qiymati.
5. Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar.
6. Yoqilg'i-moylash materiallari.
7. Sug'urta to'lovlari.
8. Umumishlab chiqarish xarajatlari.
9. Boshqa turdagi xarajatlar.

Tarmoqning o'ziga xosligi va ishlab chiqarish xarakteriga qarab ushbu xarajat moddalari ro'yxati o'zgarishi mumkin. Bu turli korxonalarning xarajatlarini o'zaro solishtirish va buxgalteriya hisobini soddalashtirish imkonini beradi.

Xarajatlarni moddalar bo'yicha tizimlashtirish ichki rejalashtirish, joriy hisob va tannarxni hisoblashda qo'llaniladi. U ishlab chiqarish sarflarini hisobga olish metodikasini belgilab beradi.

O'z navbatida, xarajatlarni hisobga olish usullari korxonadagi texnologik jarayonlar, kalkulyatsiya obyektlari va ma'lumotlarni to'plash metodiga qarab turkumlanadi. Muayyan obyektlarga tegishli xarajatlarning ishonchiligi birlamchi va analitik hisobning qanchalik to'g'ri tashkil etilganiga bog'liqdir. Ayrim sarflar (xomashyo, materiallar, asosiy xodimlar ish haqi) bevosita muayyan kalkulyatsiya obyektiga yo'naltiriladi. Bunday xarajatlarni nazorat qilish ancha qulay bo'lib, ularning miqdori yuqori aniqlikda hisoblanishi mumkin.

5.3. Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish amaliyoti

Xalqaro amaliyotda xo'jalik subyektlari o'zlarining moliya-xo'jalik faoliyatini yuritishda tannarxni shakllantirish metodikasiga

qarab xarajatlar hisobini to'liq tannarx (absorption costing) yoki cheklangan tannarx (marginal usul) tamoyillari asosida tashkil etishlari mumkin.

To'liq tannarx bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usulida mahsulot qiymatiga bevosita va bilvosita, shuningdek, o'zgarmas va o'zgaruvchan sarflarning barchasi, ularning turidan qat'i nazar, to'liq kiritiladi. Mahsulotga, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirib bo'lmaydigan sarflar dastlab ular yuzaga kelgan javobgarlik markazlari kesimida jamlanadi, so'ngra tanlangan taqsimot bazasiga (masalan, ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi yoki jami ishlab chiqarish xarajatlari) mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga yuklanadi.

Ushbu metod mamlakatimiz iqtisodiyotida keng qo'llaniladi va milliy moliya hamda soliq qonunchiligi talablariga to'la muvofiq keladi. Biroq, mazkur usulning kamchiligi shundaki, u ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda birlik mahsulot tannarxida sodir bo'ladigan dinamik o'zgarishlarni yetarli darajada inobatga olmaydi.

Zamonaviy xo'jalik yuritish sharoitida cheklangan tannarx, ya'ni marginal hisob metodiga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur usulga ko'ra, mahsulot tannarxiga korxona sarf-xarajatlarining hammasi emas, balki faqat o'zgaruvchan qismi kiritiladi. Doimiy (o'zgarmas) xarajatlar esa mahsulot tannarxida aks ettirilmasdan, ular yuzaga kelgan hisobot davrining yakuniy foydasini kamaytirishga yo'naltiriladi.

Xarajatlarni umumlashtirish (oddiy) usulida mahsulot tannarxi uning alohida qismlari yoki tayyorlash bosqichlari bo'yicha aniqlanadi. Ushbu yondashuv odatda bir turdagi mahsulotlarni seriyali ishlab chiqarishda samarali hisoblanadi.

Qo'shimcha mahsulot qiymatini chiqarib tashlash usulida ishlab chiqarish natijasida olingan boyliklar asosiy, yondosh va qo'shimcha turlarga ajratiladi. Asosiy mahsulotning haqiqiy tannarxini topish uchun jami xarajatlardan qo'shimcha mahsulotlar va chiqitlar oldindan belgilangan baholarda ayirib tashlanadi.

Xarajatlarni mutanosib taqsimlash usuli bir vaqtning o'zida bir necha turdagi mahsulotlar tayyorlanadigan aralash ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladi. Bunda xarajatlar dastlab mahsulot guruhlari bo'yicha to'planadi, keyin esa iqtisodiy asoslangan mezonlar yordamida alohida mahsulot turlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Kalkulyatsiya qilishning aralash usuli yuqoridagi metodlarning birortasini yakka holda qo'llash imkonini bo'lmaganda yoki tannarxni yanada aniqroq hisoblash talab etilganda, bir necha usullarning o'zaro uyg'unlashuvini ifodalaydi.

Kalkulyatsiyaning rejaviy, me'yoriy, kutilayotgan va haqiqiy (hisobot) kabi turlari mavjud.

Reja kalkulyatsiyasi — bu alohida moddalar bo'yicha oldindan hisoblangan buyum yoki mahsulot turining kutilayotgan tannarxidir. U korxona tomonidan rejalashtirilgan tashkiliy-texnik tadbirlar natijasida erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkich bo'lib, odatda normativ kalkulyatsiyadan pastroq bo'lishi ko'zda tutiladi.

Me'yoriy kalkulyatsiya hisobot davri boshida joriy texnik daraja va amaldagi texnologik me'yorlarga tayangan holda birlik mahsulot uchun sarflanadigan resurslar miqdorini aniqlaydi.

Kutilayotgan kalkulyatsiya, asosan, qishloq xo'jaligi korxonalarida qo'llaniladi. U dastlabki uch chorakdagi real xarajatlar va so'nggi chorakdagi taxminiy ko'rsatkichlar asosida yil yakunidagi ishlab chiqarish natijalarini bashorat qilish uchun xizmat qiladi.

Haqiqiy (hisobot) kalkulyatsiyasi — bu hisobot davrida muayyan mahsulot uchun amalda sarflangan xarajatlarning real miqdoridir. U rejaviy yoki me'yoriy ko'rsatkichlardan og'ishlarni tahlil qilish va ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Haqiqiy tannarxni rejaviy ko'rsatkichlar bilan qiyoslash ishlab chiqarish samaradorligini nazorat qilish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini izlab topishda bosh po'ydevor hisoblanadi.

Umumiy ko'rinishda kalkulyatsiyalash jarayoni quyidagi mantiqiy bosqichlarni qamrab oladi:

- xarajatlarni tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash;

- yaroqsiz mahsulotlar (brak) tannarxini aniqlash va ularni tannarxga kiritish tartibini belgilash;

- ishlab chiqarishdan qaytarib olingan chiqitlarni baholash;

- barcha kalkulyatsiya moddalari bo'yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Shunday qilib, birlik mahsulot yoki xizmat tannarxini kalkulyatsiya qilishda sarf-xarajatlarni iqtisodiy mazmuni, davriyligi, mas'uliyat markazlari va moddalar kesimida tizimli guruhlash va to'liq hisobga olish talab etiladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashning an'anaviy metodlariga quyidagilar kiradi:

Oddiy usul — agar bir turdagi mahsulot olinib, xarajat va kalkulyatsiya obyekti mos kelsa qo'llaniladi. Bunda jami xarajat olingan mahsulot hajmiga bo'linadi.

Qo'shimcha mahsulot qiymatini chegirish usuli — jami sarflardan qo'shimcha mahsulotlar qiymati ayirib tashlanadi va qolgan summa asosiy mahsulot tannarxiga yuklanadi.

O'rtacha sotish baholari usuli — bunda jami xarajatlar mahsulotlarning o'rtacha sotuv narxidan kelib chiqqan holda, ularning qiymat salmog'iga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Koeffitsiyentlar usuli — jami xarajatlar qo'shimcha boyliklar qiymati chiqarib tashlangandan so'ng, qolgan qismi maxsus koeffitsiyentlar yordamida shartli mahsulot birligiga aylantirilgan miqdorlarga ko'ra bo'linadi.

Ekspert usuli — jami xarajattan qo'shimcha mahsulot qiymati ayirilib, qolgan summa asosiy va yondosh mahsulotlar o'rtasida mutaxassislar tomonidan belgilangan foizlar asosida taqsimlanadi.

Korxonalar amaliyotida ko'pincha jarayonli va buyurtmali usullarning elementlarini birlashtiruvchi aralash tizimlardan foydalaniladi. Shulardan biri muomalalar (operatsiyalar) bo'yicha tannarxni aniqlash usuli bo'lib, unda asosiy e'tibor har bir texnologik muomalaga qaratiladi. Bilvosita xarajatlar asosiy

ishchilarning ish haqi salmog'iga qarab taqsimlansa, moddiy xarajatlar mahsulotning konkret turi tannarxiga bevosita kiritiladi. Bu usulning afzalligi kalkulyatsiyani real texnologik sharoitga maksimal darajada yaqinlashtirishidir.

5-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Mazkur bo'limda ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini taqsimlash tizimining boshqaruv hisobini yo'lga qo'yish va yuritishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan uslublari mohiyati tahlil qilindi.

Tadbirkorlik jarayonlarining natijadorligini belgilovchi ko'rsatkichlar majmuasida tannarx markaziy o'rinni egallaydi. Bunga sabab, tannarx tarkibining bevosita ishlab chiqarish sarflari yig'indisidan shakllanishidir. Mohiyatan tannarx — mahsulot yaratish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy chiqimlarning yaxlit majmuidir.

Korxonaning barqaror rivojlanishi bevosita tannarxning shakllanishiga oid axborotlarga tayanadi. Zero, ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning realizatsiya narxini belgilash, yakuniy foydani hisoblash va rentabellik darajasini baholashda poydevor vazifasini o'taydi. Shuningdek, tannarxga doir ma'lumotlar ishlab chiqarishni tizimli boshqarish, kelajakni prognozlash hamda boshqaruvning ko'plab kundalik vazifalarini hal etishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mahsulot tannarxi va xarajatlar hisobini tashkil etish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni, xarajat elementlari, kalkulyatsiya obyekti va kalkulyatsiya birligi, kalkulyatsiyalashning asosiy bosqichlari, umumishlab chiqarish xarajatlari, kalkulyatsiya qilishning an'anaviy usullari, qo'shimcha mahsulotlar qiymatini chegirish usuli, o'rtacha sotish baholariga tayangan holda kalkulyatsiyalash hamda koeffitsentlar asosidagi kalkulyatsiya usuli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mahsulot tannarxining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy qismlarini tavsiflang.
2. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini aniqlashda kalkulyatsiya birlikini to'g'ri tanlashning ahamiyati nimada?
3. Kalkulyatsiya birliklarining tizimli tasnifi va ularning amaliyotda qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsating.
4. Kalkulyatsiya obyektlari tushunchasiga ta'rif bering va ularning turlarini sanab o'ting.
5. Boshqaruv hisobi amaliyotida qo'llaniladigan kalkulyatsiya-lashning asosiy turlarini bayon qiling.
6. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning mantiqiy bosqichlarini yoritib bering.
7. Tannarxni hisoblashda (kalkulyatsiyalashda) foydalani-ladigan asosiy metodik yondashuvlarni ko'rsating.
8. Boshqaruv qarorlarini asoslash uchun xarajatlarni oqilona taqsimlash uslublarini tushuntiring.
9. Umumiy ishlab chiqarish (bilvosita) xarajatlarini mahsulot birliklari o'rtasida taqsimlash mexanizmini izohlang.

VI BOB. BUYURTMALI USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

6.1. Buyurtmali usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda sarf-xarajatlarni tizimli hisobga olish boshqaruv hisobining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Zero, tayyorlangan mahsulotlarning tannarxi ishlab chiqarish yo'nalishlarini belgilash yoki to'xtatish, butlovchi qismlarni tashqi bozorlardan xarid qilish yoxud korxonaning o'zida tayyorlashning iqtisodiy foydasini baholash, sotuv narxlarini shakllantirish, texnik bazani yangilash hamda texnologik jarayonlarni takomillashtirish kabi muhim boshqaruv qarorlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xarajatlar hisobining buyurtmali usuli asosan individual va kichik turkumli ishlab chiqarishlarda, shuningdek, tajriba-eksperimental loyihalar hamda ta'mirlash xizmatlari ko'rsatish sohasida keng qo'llaniladi. Ushbu metodning mazmun-mohiyati shundan iboratki, uncha katta bo'lmagan miqdordagi mahsulotlarni tayyorlash jarayonida har bir buyurtma bo'yicha mustaqil va alohida xarajatlar hisobi yuritiladi.

Buyurtmali usulda mahsulot qiymatini aniqlash bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega: birinchidan, u yakka tartibdagi yoki bir martalik buyurtmalar uchun tatbiq etiladi; ikkinchidan, sarf-xarajatlar muayyan kalendar davri (oy, chorak) bilan emas, balki buyurtmaning bajarilish muddati bilan bog'liq holda hisoblanadi; uchinchidan, tahliliy ma'lumotlarni shakllantirishda buyurtmalar kartochkasidan foydalanilib, barcha sarflar tegishli javobgarlik markazlari kesimida jamlab boriladi.

Mazkur tizimda barcha bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) xarajatlar bajarilgan buyurtma birligiga to'liq yo'naltiriladi. Bilvosita yoki umumishlab chiqarish xarajatlari esa maxsus metodlar, xususan, me'yoriy koeffitsiyentlar yordamida taqsimlanadi va tannarxga

kiritiladi. Taqsimot koeffitsiyentlarini aniqlash uch bosqichni qamrab oladi: avvalo umumishlab chiqarish sarflarining yillik byudjeti tuziladi, so'ngra xodimlarning mehnat haqi yoki mashinasoat ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish hajmi belgilanadi va nihoyat, kutilayotgan sarflar summasi rejalashtirilgan hajmga bo'linadi.

Buyurtmali usulda kalkulyatsiya obyekti sifatida muayyan hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha olingan aniq buyurtma ko'riladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi markaziy buxgalteriya hujjati bo'lib buyurtmachi va ijrochi o'rtasidagi shartnoma xizmat qiladi. Ushbu hujjatda shartnoma obyekti, tomonlarning rekvizitlari, ish hajmi, muddatlar, kelishilgan baho va to'lov shartlari kabi muhim ma'lumotlar aks etadi.

Yakka va turkumli ishlab chiqarishlarda material sarfi, ish haqi va boshqa chiqimlar alohida taqsimlash jadvallarida tizimlashtiriladi. Buyurtmaning tannarxi u ochilgan kundan to yopilgunga qadar qilingan barcha xarajatlar yig'indisi orqali topiladi. Har bir buyurtma uchun ochiladigan alohida buxgalteriya kartochkasi butun jarayon davomida axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bevosita sarflar birlamchi hujjatlar asosida sexlar kesimida qayd etilsa, bilvosita xarajatlar korxonada qabul qilingan taqsimot bazasiga mutanosib ravishda tannarxga qo'shiladi. Buyurtma yakunlanmagunicha barcha sarf-xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Mahsulot tayyor bo'lgach, tegishli kartochka yopiladi va yakuniy hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Haqiqiy tannarxni aniqlashda umumiy summadan qaytarilgan chiqindilar, omborga qaytarilgan foydalanilmagan materiallar va tuzatib bo'lmaydigan yaroqsiz mahsulot qiymati chegirib tashlanadi. Yakka tartibdagi ishlab chiqarishda ushbu usul takrorlanmaydigan loyihalar uchun juda samarali bo'lib, xarajatlarni hisobot davri bo'yicha emas, balki ish hajmi bo'yicha to'plashga imkon beradi. Korxonada yagona «Tugallanmagan ishlab chiqarish» schyoti yuritilsa-da, uning batafsil tahlili buyurtma kartochkalarida aks etadi.

Ushbu usulning asosiy tavsiflarini quyidagicha xulosalash mumkin: ko'plab buyurtmalar muayyan muddat ichida bajariladi; moddiy sarflar, ish haqi va ustama xarajatlar har bir buyurtma kesimida jamlanadi; buyurtma kartochkasi hisob yuritishda bosh hujjat hisoblanadi; barcha to'plangan xarajatlar buyurtma to'liq yakunlangandan keyingina hisobdan chiqariladi.

6.2. Buyurtmali usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi

Buyurtmali usulda mahsulotlar qiymatini aniqlashda har bir konkret topshiriq yoki buyurtma bo'yicha xarajatlarni shakllantirish va tannarxni hisoblab chiqish jarayonlari alohida-alohida amalga oshiriladi. Buning uchun buxgalteriya tizimida har bir buyurtmaga tegishli analitik schyotlar ochilib, ularda mahsulot tannarxiga bevosita yo'naltiriladigan (to'g'ri) xarajatlar jamlab boriladi. Mahsulot qiymatiga qo'shiladigan umumiy ishlab chiqarish (bilvosita) xarajatlari esa korxona tomonidan tasdiqlangan uslubiyot asosida taqsimlanadi va har bir buyurtmaning tannarxiga qo'shiladi. Bevosita va bilvosita chiqimlarning umumiy yig'indisi asosida har bir topshiriq bo'yicha tayyorlangan mahsulotning individual tannarxi shakllanadi. Agar birgina buyurtma doirasida turli xildagi mahsulotlar tayyorlansa, xarajatlar ularning har biriga alohida taqsimlanadi. Mazkur yondashuv asosan mashinasozlik, priborsozlik va elektronika kabi sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi.

Agar buyurtma shartlariga ko'ra bir necha turdagi buyumlar ishlab chiqarilsa, jami haqiqiy xarajatlar miqdori tayyorlangan mahsulotlar hajmiga kalkulyatsiya moddalarini kesimida bo'linadi va shu orqali birlik mahsulotning qiymati topiladi.

Misol tariqasida, «BB» mas'uliyati cheklangan jamiyati buyurtma asosida tikuv mashinalari va muzlatgichlar ishlab chiqarishini ko'rib chiqamiz. Buyurtmachilar tomonidan 6 dona tikuv mashinasi hamda 8 dona muzlatgich tayyorlash bo'yicha

topshiriq berilgan va barcha ishlar yakunlangan. Bizdan har bir buyumning haqiqiy tannarxini hisoblash talab etiladi.

Buyurtmalarga oid quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

1) Amalga oshirilgan moddiy xarajatlar:

- tikuv mashinalari uchun — 2 880 000 so'm;

- muzlatgichlar uchun — 7 680 000 so'm.

2) Xodimlarga hisoblangan mehnat haqi:

- tikuv mashinalari uchun — 1 536 000 so'm;

- muzlatgichlar uchun — 4 096 000 so'm.

3) Hisoblangan umumishlab chiqarish (bilvosita) xarajatlari:

- tikuv mashinalari uchun — 384 000 so'm;

- muzlatgichlar uchun — 1 024 000 so'm.

Ishlab chiqarish jarayoniga sarflangan jami xarajatlar quyidagicha aniqlanadi:

Tikuv mashinalari bo'yicha jami: $2\,880\,000 + 1\,536\,000 + 384\,000 = 4\,800\,000$ so'm;

Muzlatgichlar bo'yicha jami: $7\,680\,000 + 4\,096\,000 + 1\,024\,000 = 12\,800\,000$ so'm.

Mazkur ma'lumotlar asosida birlik mahsulot tannarxini hisoblaymiz:

Bitta tikuv mashinasi qiymati: $4\,800\,000 / 6 = 800\,000$ so'm;

Bitta muzlatgich qiymati: $12\,800\,000 / 8 = 1\,600\,000$ so'm.

Ushbu metodning asosiy kamchiligi shundaki, bilvosita (umumishlab chiqarish) xarajatlarning real miqdori faqat hisobot davri yakunlangandagina ma'lum bo'ladi. Yil davomida buyurtmalar bo'yicha joriy tannarx hisoblanganda, amaliyotda rejalashtirilgan yoki shartli stavkalar qo'llaniladi.

Xarajatlarni aniq bir buyurtma kesimida shakllantirish uchun quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish lozim:

- Buyurtmani xarajatlar obyekti sifatida belgilash;

- Buyurtma bilan bog'liq bevosita chiqimlarni (materiallar, ish haqi) aniqlash;

- Ustama sarflarni taqsimlash uchun asos (baza) tanlash;

- Ustama sarflarni taqsimot bazasiga kiritish;

- Taqsimlash stavkasini hisoblab chiqish;
- Aniqlangan stavka yordamida bilvosita sarflarni buyurtma tannarxiga o'tkazish;
- Buyurtma bo'yicha jami tannarxni (material, mehnat va ustama sarflar yig'indisi) aniqlash.

Moddiy resurslar va ish haqi kabi bevosita sarflarni mahsulotning aniq turiga yo'naltirish oson, biroq umumishlab chiqarish xarajatlari faqat sun'iy usullar orqali taqsimlanadi. Bunda har bir bo'linma uchun belgilangan me'yoriy koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Buyurtmali kalkulyatsiya usuli, shuningdek, matbaachilik (poligrafiya), kemasozlik va konsalting xizmatlari ko'rsatish sohalarida ham keng tatbiq etiladi.

Taqsimlash stavkasini belgilash tartibi:

1. Yillik byudjetni va umumishlab chiqarish sarflari rejasini tayyorlash. Bunda xarajatlar dinamikasi va kutilayotgan ishlab chiqarish hajmi asosida prognoz miqdorlar hisoblanadi.

2. Taqsimlash bazasini tanlash. Baza sifatida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, masalan, ish soatlari, mashina-soatlar yoki asosiy xodimlarning ish haqi summasi olinishi mumkin. Muhimi, tanlangan mezon umumiy sarflar bilan tayyor mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri aks ettirishi lozim.

3. Me'yoriy stavkani hisoblash. Prognoz qilingan umumiy sarflar summasi tanlangan taqsimot bazasining miqdoriga bo'linadi.

Shundan so'ng, ushbu stavka asosida bilvosita sarflar mahsulotga o'tkaziladi: ya'ni bazaning haqiqiy miqdori me'yoriy stavkaga ko'paytiriladi. Mazkur summa material va mehnat xarajatlariga qo'shilib, mahsulotning hisoblangan tannarxi shakllanadi. Hisobot davri yakunida haqiqiy bilvosita sarflar bilan mahsulotga taqsimlangan sarflar o'rtasidagi farq aniqlanadi. Agarda xarajatlar ortiqcha taqsimlangan bo'lsa, ushbu tafovut «Sotilgan mahsulot tannarxi» [9110] schyotining debetiga o'tkazish orqali tartibga solinadi.

6-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Sarf-xarajatlarni hisobga olish tizimi boshqaruv hisobining tayanch bo'g'ini sanaladi. U muayyan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni davom ettirish yoki to'xtatish, butlovchi buyumlarni tashqaridan xarid qilish yoki ichki imkoniyatlar hisobiga tayyorlashning maqsadga muvofiqligini baholash, narx siyosatini belgilash, texnik bazani yangilash hamda texnologik jarayonlarni takomillashtirish kabi strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xarajatlarni hisobga olishning buyurtmali usuli maxsus topshiriqlar yoki bir martalik buyumlar tayyorlashda samarali qo'llaniladi. Ushbu metodning o'ziga xosligi shundaki, unda xarajatlar kalendar hisobot davri (oy, chorak yoki yil) bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq bir buyurtmani bajarish uchun sarflangan butun vaqt oralig'ida shakllantirilishi va aniqlanishi bilan ajralib turadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mahsulot tannarxi va uni kalkulyatsiyalash jarayoni, kalkulyatsiya usullari, buyurtmali hisob yuritish usuli, ishlab chiqarish xarajatlari va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, buyurtma bo'yicha xarajatlar obyekti, buyurtmalarga taqsimlanadigan ustama xarajatlar, sotilgan mahsulot tannarxi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xarajatlar hisobining buyurtmali uslubi mohiyatini va uning qo'llanilish sohalarini yoritib bering.
2. Buyurtmalar asosida tannarxni kalkulyatsiyalash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
3. Yakunlanmagan (tugallanmagan) shartnomalar bo'yicha moliyaviy natijani (foydani) aniqlash metodikasini tushuntiring.
4. Boshqaruv hisobida muayyan buyurtmaning xarajat obyekti sifatidagi maqomini asoslab bering.

5. Aniq bir buyurtma bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni identifikatsiya qilish va guruhlash tartibi nimalardan iborat?

6. Buyurtmaga ustama xarajatlarni taqsimlash uchun asos (baza) tanlash mezonlarini izohlang.

7. Buyurtma doirasida shakllanadigan umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash va hisobga olish tartibini bayon qiling.

8. Hisobot davri yakunida umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini turli buyurtmalar o'rtasida taqsimlash mexanizmini tushuntiring.

9. Xarajatlarni muayyan buyurtma tannarxiga kiritish (o'tkazish) uchun bajarilishi lozim bo'lgan amallar ketma-ketligini ko'rsating.

10. Buyurtmali usul qo'llanilganda, xarajatlarni hisobga olish davrini belgilashning o'ziga xos jihatlari nimada?

VII BOB. JARAYONLI USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

7.1. Jarayonli usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati

Mahsulot tannarxini aniqlashning jarayonli metodikasi ishlab chiqarish jarayonida xomashyoning bir necha texnologik bosqichlardan ketma-ket o'tib, yakuniy tayyor mahsulotga aylanishi bilan xarakterlanadigan korxonalarda qo'llaniladi.

Xarajatlarni qayd etish va kalkulyatsiyalashning mazkur usuli materiallar bir necha yakunlangan qayta ishlash davrlaridan o'tadigan va har bir bo'g'in oxirida tayyor buyum emas, balki oraliq mahsulot (yarim tayyor mahsulot) olinadigan hollarda dolzarbdir. Ushbu yarim tayyor mahsulotlar korxonaning o'z ehtiyojlari uchun sarflanishi yoki tashqi iste'molchilarga sotilishi mumkin. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari bo'yicha sarflar rejaviy tannarx ko'rsatkichlari asosida taqsimlanadi. Jarayonli usulni qo'llash uchun quyidagi obyektiv sharoitlar mavjud bo'lishi lozim:

- bir xil resursdan bir nechta texnologik bosqichda turli xil mahsulotlar olinishi;
- har bir bosqich natijasida olingan mahsulotning yakunlangan ko'rinishga ega bo'lishi hamda tovar sifatida sotilishi yoki keyingi siklga uzatilish imkoniyati;
- har bir jarayon kesimida sarf-xarajatlarni va olingan natijalarni alohida hisobga olish hamda ularni iqtisodiy jihatdan asoslab kalkulyatsiya qilish imkoniyatining mavjudligi.

Ayrim ishlab chiqarish turlari xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun fizik-kimyoviy, biologik yoki termik usulda bosqichma-bosqich qayta ishlashni nazarda tutadi. Bunday tarmoqlarda har bir mustaqil texnologik bosqich hisob obyeksi sanaladi. Jarayonli usul doirasida har bir ishlov berish bo'g'ini uchun alohida analitik hisobvaraqlar (schyotlar) ochiladi va ularda ishlab chiqarish chiqimlari bilan olingan natijalar mustaqil tarzda qayd

etiladi. Bu esa har bir oraliq yoki yakuniy mahsulotning tannarxini aniq hisoblashga imkon beradi.

Jarayonli metodika, odatda, bir turdagi mahsulotlarni katta hajmlarda (ommaviy) ishlab chiqarishda va mahsulot bir nechta ishlov berish fazalaridan o'tganda qo'llaniladi. Bunda sarf-xarajatlarni muayyan vaqt oralig'i (davr) bo'yicha hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Kimyo sanoati, un-yorma mahsulotlari tayyorlash, oyna va bo'yoq ishlab chiqarish sohaları bunga yorqin misol bo'la oladi. Xarajatlar alohida bo'linmalar yoki muayyan vaqtdagi jarayonlar kesimida jamlanadi, so'ngra mahsulot birligining solishtirma tannarxini aniqlash uchun jami sarflar ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga taqsimlanadi.

7.2. Jarayonli usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi

Jarayonli kalkulyatsiya metodikasi mahsulotning bir necha texnologik fazalardan o'tib tayyor holga keladigan ommaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'llaniladi. Bunda mahsulot qiymatini hisoblab chiqish ikki xil yondashuvda amalga oshiriladi:

1) O'rtacha qiymat usuli. Mazkur usulda xarajatlar, jumladan, hisobot davri boshidagi qoldiq summasi ham umumlashtirilib, shu davrda tayyorlangan shartli tayyor mahsulot birligiga bo'linadi;

2) FIFO usuli. Bu yondashuvda avval davr boshidagi tugallanmagan mahsulotlar yakunlanadi, so'ngra yangi buyumlar ishlab chiqarishga kirishiladi. FIFO usuli hisoblashda biroz murakkab bo'lsa-da, o'rtacha qiymat usuliga qaraganda aniqroq natija beradi.

Jarayonli hisob usulining amaliyotda ikki xil ko'rinishi mavjud: yarim tayyor mahsulotli hamda yarim tayyor mahsulotsiz variantlar.

Yarim tayyor mahsulotli yondashuvda har bir bosqichning yakuniy natijasi keyingi ishlov berish jarayoni uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi va u tashqi bozorga realizatsiya qilinishi mumkin. Bu esa oraliq mahsulotlarni haqiqiy, me'yoriy yoki rejaviy

tannarxda, shuningdek, sotish baholarida baholash zaruratini tug'diradi. Bunday holda yarim tayyor mahsulotlar qiymati alohida 2100 – "O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar" nomli aktiv schyotda aks ettiriladi.

Yarim tayyor mahsulotsiz uslubda har bir qayta ishlov bosqichi bo'yicha, asosan, faqatgina o'sha jarayonga ketgan ishlov berish xarajatlari hisobga olinadi. Yakuniy mahsulot tannarxi dastlabki material sarflari, barcha bosqichlardagi ishlov berish xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish chiqimlarini birlashtirish orqali aniqlanadi. Bunda faqat so'nggi tayyor mahsulot uchun kalkulyatsiya tuziladi.

Mazkur metodda sarf-xarajatlar hisobot davrida alohida bo'linmalar yoki muayyan vaqtdagi jarayonlar kesimida jamlanadi. Har bir tarkibiy bo'lim uchun "Tugallanmagan ishlab chiqarish" hisobvarag'i yuritiladi. Mahsulot tayyor bo'lgunga qadar bir nechta bo'linmalardan o'tadi va har bir bosqichda qiymat unga o'tkazib boriladi. Masalan, 1000 dona mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa va jami 6500 sh.b. sarflangan bo'lsa, birlik xarajati 6,5 sh.b.ni ($6500/1000$) tashkil qiladi.

Jarayonli kalkulyatsiya tizimida barcha ishlab chiqarish sarflari va tayyorlangan mahsulot hajmi ishlab chiqarish hisobotida umumlashtiriladi:

Ekvivalent birliklarni hisoblash. Mahsulot birligiga tushadigan sarfni topish uchun jami ishlab chiqarish xarajatlarini tayyorlangan mahsulot miqdoriga taqsimlash kerak. Bu ko'rsatkich keyingi bo'linmaga o'tkaziladigan yoki davr oxirida qoldiq sifatida qoladigan mahsulotlar qiymatini aniqlashda baza vazifasini o'taydi.

Agarda barcha mahsulotlarga ishlov berish to'liq yakunlangan bo'lsa, ya'ni tugallanmagan qoldiqlar bo'lmasa, hisob-kitoblar ancha sodda kechar edi. Biroq amaliyotda davr boshida yoki oxirida ishlov berilishi qisman tugallangan buyumlar mavjud bo'ladi va sarflar ushbu tugallanmagan birliklarga ham taqsimlanishi zarur.

Shunga ko'ra, ommaviy ishlab chiqarish subyektlarida hisobot davri davomida doimiy mavjud bo'ladigan tugallanmagan

mahsulotlar shartli ravishda tayyor buyum ko'inishiga keltirib hisoblanadi. Bu miqdor quyidagilarning yig'indisiga teng:

1. Mazkur hisobot davrida tayyorlanishi boshlangan va to'liq yakunlangan buyumlarning umumiy miqdori va

2. Davr boshidagi hamda oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish ustida bajarilgan ishlar hajmini ifodalovchi yig'indiga teng bo'ladi.

Jarayonli usulda moddiy ashyolar odatda jarayon boshida sarflanadi, mehnat va umumishlab chiqarish xarajatlari (ishlov berish sarflari) esa butun ishlab chiqarish bosqichi davomida bir maromda taqsimlanadi. Shu sababli, materiallar bo'yicha ekvivalent birliklar soni ishlov berish bo'yicha hisoblangan birliklar miqdoridan farq qilishi mumkin.

Shartli (ekvivalent) birliklarni aniqlash: Barcha resurslar faqat tayyor birlikka yo'naltirilsa, qancha buyum ishlab chiqarilishi mumkinligi hisoblab chiqiladi. Misol uchun, davr oxirida 1000 dona yarim tayyor mahsulot bo'lsa va ularning 80 foiziga ishlov berish tugallangan bo'lsa, ekvivalent ishlab chiqarish 800 birlikni ($1000 \times 80\%$) tashkil qiladi.

Shartli ishlab chiqarish ko'rsatkichi materiallar va qo'shilgan xarajatlar uchun alohida-alohida hisoblanadi.

Masalan, davr oxirida 1000 dona buyum bo'lib, materiallar bo'yicha 90% va qo'shilgan xarajatlar bo'yicha 50% tayyor bo'lsa, ekvivalent miqdor materiallar uchun 900 birlikni ($1000 \times 90\%$), qo'shilgan sarflar uchun esa 500 birlikni ($1000 \times 50\%$) tashkil etadi.

Ishlab chiqarish chiqimlari o'rtacha tortilgan usul yoki FIFO metodi orqali tugallanmagan qoldiqlarga, tayyor mahsulotga hamda sotuv tannarxiga yo'naltiriladi.

Keyingi bosqichga uzatiladigan tayyor buyumlarni va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashda ham o'rtacha tortilgan yoki FIFO usullaridan foydalanish mumkin.

O'rtacha tortilgan metod davr boshidagi qoldiq sarflarini joriy xarajatlar bilan birlashtirib, o'rtacha qiymatni shakllantiradi. Ekvivalent ishlab chiqarish esa yakunlangan buyumlar soniga

tugallanmagan qoldiqdagi shartli birliklarni qo'shish orqali topiladi. So'ngra jami sarflar (davr boshidagi qoldiq va joriy sarflar) mahsulot birligini baholash uchun mazkur ekvivalent birliklarga taqsimlanadi.

FIFO usuli tugallanmagan ishlab chiqarishdagi buyumlar davr boshida tugallanishini, so'ngra yangi buyumlar ishlab chiqarishga kiritilishini nazarda tutadi. FIFO usuli tushunish uchun murakkab bo'lsa ham o'rtacha tortilgan usulga nisbatan aniqroq natija beradi, eng muhimi esa, haqiqiy shart-sharoitga asoslanadi. Bunday yondashuv davr davomida ekvivalent birliklarni ishlab chiqarish natijasida vujudga kelgan joriy xarajatlarni taqsimlashga olib keladi. Ekvivalent ishlab chiqarish uch elementdan iborat:

1. Davr boshiga tugallanmagan ishlab chiqarishdan tugallangan birliklar;
2. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar;
3. Davr oxirida ishlov berish qisman tugallangan birliklar.

Miqdor	Shartli birlik
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar: Materiallar - 100 % Qo'shilgan xarajatlar (ishlov berish) - 40 %	4000
Ishlab chiqarishga kiritilgan birliklar	12000
Jami hisobga olingan	16000
Ishlov berish tugallangan birliklar	14000
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishdan birliklar	4000
Joriy davr xarajatlaridan ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar	10000
Davr oxirida tugallangan ishlab chiqarishdagi birliklar Materiallar - 100 % Qo'shilgan xarajatlar - 80 %	2000
Jami hisobga olingan	16000

Vazifani hal qilish uchun:

1. Ekvivalent birliklarni hisoblash
2. Mahsulot birligiga tegishli xarajatlarni hisoblash
3. Ishlab chiqarish hisobotini tuzish

O'rtacha tortilgan usul

Xarajatlar	Shartli birlik	Shartli birlik
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish: Materiallar	1000	4000
Qo'shilgan xarajatlar (ishlov berish)	3000	
Joriy davrda qilingan xarajatlar: Materiallar	24000	73000
Qo'shilgan xarajatlar (ishlov berish)	49000	
Jami xarajatlar		77000
Jami hisobga olingan		16000

Ekvivalent birliklarni hisoblash	Material	Ishlov berish
1. Davrda tugallangan birliklar	14000	14000
2. Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar Materiallar - 100 % Qo'shilgan xarajatlar - 80 % (2000*80 %)	2000	1600
3. Ekvivalent birliklarning jami	16000	15600

Mahsulot birligiga tegishli xarajatlarni hisoblash	Material	Ishlov berish	Jami xarajat
O'tgan davr xarajatlari	1000 sh.b.	3000 sh.b.	
Joriy davr xarajatlari	24000 sh.b.	49000 sh.b.	
Jami xarajatlar	25000 sh.b.	52000 sh.b.	
Ekvivalent birliklarga taqsimlash	16000	15600	
Mahsulot birligiga jami xarajatlar	1,5625	3,3333	4,8958

Ishlab chiqarish hisoboti - o'rtacha tortilgan usul

Miqdor	Shartli birlik
Bo'linmaga o'tkazilgan:	4 000
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	12 000
Jarayonga kiritilgan	16 000
Jami birliklar	
Hisobga olingan birliklarning jami	
Tugallangan mahsulot birligi	14 000
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish	2 000
Jami birliklar	16000

Xarajatlar	Jami	Material	Ishlov berish
Bo'linmaga o'tkazilgan:			
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish, sh.b.	4000	1000	3000
Joriy davr xarajatlari, sh.b.	73000	24000	49000
Jami xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000
Hisobga olingan birliklarning jami			
Tugallangan birliklar (14000*4,8958) 14000*1,5625 sh.b. 14000*3,3333 sh.b.	68541	21875	46666
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish 2000*100 %*1,5625 , sh.b. 2000*80 %*3,3333, sh.b.	8459	3125	5334
Hisobga olingan xarajatlarning jami	77000	25000	52000

FIFO usuli

1. Ekvivalent birliklarni hisoblash	Material	Ishlov berish
1. Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishni tugallash uchun zarur ekvivalent birliklar: Ishlab chiqarishga berilgan jami material Qo'shimcha xarajatlar 4000*60 % (100-40)	0	2400
2. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birlik	10000	10000
3. Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar Materiallar -100 % Qo'shilgan xarajatlar - 80 % (2000*80 %)	2000	1600
4. Ekvivalent birliklarning jami	12000	14000

2. Mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash	Material	Ishlov berish	Jami xarajat
Joriy davr xarajatlari	24000 sh.b.	49000 sh.b.	
Ekvivalent birlikka taqsimlash	12000	14000	
Mahsulot birligiga jami xarajat 1 b.	2,0 sh.b.	3,5 sh.b.	5,5 sh.b.

Ishlab chiqarish hisoboti - FIFO usuli

Miqdor	Shartli birlik
Bo'linmaga o'tkazilgan:	4 000
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	12 000
Jarayonga kiritilgan	16 000
Jami birliklar	
Jami hisoblangan birliklar	
Tugallangan birliklar	14 000
Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish	2 000
Jami birliklar	16000

Xarajatlar	Jami	Material	Ishlov berish
Bo'linmaga o'tkazilgan:			
Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarish, sh.b.	4000	1000	3000
Joriy davr xarajatlari, sh.b.	73000	24000	49000
Jami xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000
Hisobga olingan birliklarning jami			
Tugallangan birliklar			
1. Oldingi davr xarajatlari, sh.b.	4000	1000	3000
2. Davr boshida tugallanmagan ishlab chiqarishni tugallash uchun joriy xarajatlar	0	0	
Material 0*2,0.	8400		8400
Qo'shilgan xarajatlar 2400*3,50			
3. Ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar 10000*5,5	55000	20000	35000
4. Umumiy xarajatlar - tugallangan birliklar	67400	21000	46400
Davr oxirida tugallanmagan birliklar			
2000*100 %*2,0 sh.b.	9600	4000	5600
2000*80 %*3,5 sh.b.			
Jami hisoblangan xarajatlar, sh.b.	77000	25000	52000

O'rtacha tortilgan usulni FIFO usuli bilan qiyoslash

O'rtacha tortilgan usul	FIFO usuli
1. Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun joriy davr xarajatlariga jamlanadi.	Mahsulot birligiga xarajatlarni hisoblash uchun faqat joriy davr xarajatlari kiritiladi.
2. Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birlik sifatida hisobga olinadi.	Davr boshidagi qoldiqni tugallash uchun zarur ishgina ekvivalent birlik hisobiga kiritiladi. Davr boshida ishlov berish boshlangan va tugallangan birliklar alohida ko'rsatiladi.
3. Mahsulot birligidagi xarajatlarga o'tgan davr xarajatlari ham qo'shiladi.	Bir birlik xarajatlariga joriy davr xarajatlari ham qo'shiladi.
4. Ishlab berish tugallangan birliklarning hammasi (boshqa jarayonga berilgan) bir xil hisobga olinadi.	Ishlov berish tugallangan (boshqa jarayonga berilgan) birliklar ikki guruhga ajraladi: 1. Tugallanmagan ishlab chiqarish boshidagi qoldiqlardagi birlik 2. Davr davomida boshlangan va tugallangan birlik
5. Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar o'rtacha xarajatlar bo'yicha baholanadi.	Tugallanmagan ishlab chiqarishdagi birliklar so'nggi xarajatlar bo'yicha baholanadi.

7-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Sarf-xarajatlarni qayd etish hamda tannarxni aniqlashning jarayonli metodikasini yirik hajmdagi yoki uzluksiz siklli mahsulot tayyorlovchi xo'jalik subyektlari tatbiq etishlari maqsadga muvofiqdir. Mazkur usulda xarajatlar buyurtmali metodda bo'lgani kabi topshiriqning bajarilish muddatiga emas, balki muayyan vaqt oralig'ida (masalan, chorak yoki yarim yillik davrlarda) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga nisbatan hisobga olinadi.

Jarayonli yondashuv doirasida ishlab chiqarish chiqimlari buyurtmani yakunlash vaqtiga qarab emas, balki tarkibiy bo'limlar

kesimida va aniq hisobot davrlari uchun hisoblanadi. Bunda uzluksiz ishlab chiqarish sharoitida davrning boshlanishi va yakunida mavjud bo'lgan tugallanmagan jarayonlar shartli tayyor mahsulot (ekvivalent birlik) sifatida baholanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Jarayonli hisob usuli, mahsulot tannarxi va uni kalkulyatsiya qilish jarayoni, jarayonli usul asosida mahsulot tannarxini aniqlash, FIFO va o'rtacha hisoblash usullari, yarim tayyor mahsulotlardan foydalaniladigan yondashuv, ekvivalent hamda shartli ekvivalent birliklar tushunchasi, tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mahsulot tannarxini shakllantirishda jarayonli uslubning konseptual asoslari va iqtisodiy mohiyatini yoritib bering.
2. Jarayonli usul doirasida o'rtacha tortilgan qiymat metodidan foydalanish tartibi va uning o'ziga xosligini tushuntiring.
3. Tannarxni hisoblashda yarim tayyor mahsulotli (variantli) yondashuvning mazmuni va ahamiyatini asoslab bering.
4. Yarim tayyor mahsulotsiz (variantsiz) hisob yuritish usulining mohiyati va uning qo'llanilish tartibini izohlang.
5. Ekvivalent (shartli tayyor) mahsulot birliklarini aniqlash metodikasi va hisob-kitob bosqichlarini ko'rsating.
6. Boshqaruv hisobining jarayonli metodida shartli birliklar tushunchasining zaruriyati va uning hisobdagi rolini tushuntiring.
7. Jarayonli uslubning xarajatlarni turkumlash va tannarxni aniqlash bo'yicha boshqa metodlardan ajratib turuvchi fundamental farqlarini ko'rsating.
8. Qaysi iqtisodiy soha va ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun jarayonli uslubni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi?

VIII BOB. ME'YORIY (NORMATIV) USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

8.1. Me'yoriy (normativ) usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy (normativ) usuli xarajatlar hisobi tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu usulning asosiy ustunligi hisob-kitob amallarining nisbatan soddaligida ko'rinadi. Biroq, mazkur yondashuvning ayrim kamchiliklarini ham ta'kidlab o'tish joiz:

- foydalaniladigan resurslar hajmi va ularning bahosini nazorat qilish uchun me'yoriy bazaning yetarli emasligi;

- og'ish (chetlanish) sabablarini, bunga mas'ul shaxslarni va sodir bo'lgan joyni aniq tahlil etish imkoniyati cheklanganligi;

- ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tahlilini faqatgina hisobot davri yakunlangandagina amalga oshirish mumkinligi va boshqalar.

Birlik mahsulotni tayyorlash uchun belgilangan me'yoriy (normativ) sarflar quyidagi unsurlardan tashkil topadi:

- to'g'ridan-to'g'ri moddiy xarajatlarning me'yoriy qiymati;
- bevosita moddiy resurslarning me'yorlashtirilgan miqdori;
- me'yoriy mehnat sarfi (to'g'ridan-to'g'ri ish haqi xarajatlari);
- ish vaqtining belgilangan tarif stavkasi;
- o'zgaruvchan turdagi umumishlab chiqarish xarajatlarning me'yoriy koeffitsiyenti;

- doimiy turdagi umumishlab chiqarish xarajatlarning me'yoriy koeffitsiyenti.

Me'yoriy (normativ) usulni amaliyotga tatbiq etish quyidagi ijobiy jihatlarga ega:

- har bir xarajat yo'nalishi bo'yicha aniq me'yorlarning belgilanganligi;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi uchun me'yoriy tannarx kalkulyatsiyasini tayyorlash imkoniyati;

amaldagi me'yoriy ko'rsatkichlar va ulardan yuzaga kelgan chetlanishlar asosida xarajatlar hisobini yuritish.

Faqat miqdor bo'yicha me'yorlardan foydalanilganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$H_x = F_{zx} \times (M_f \pm M_{hx})$$

bu yerda,

M_f - xarajatlarning me'yoriy (normativ) miqdori;

M_{hx} - haqiqiy xarajatlarning me'yordan chetga chiqishi.

Sarflangan resurslardan ehtiyojga muvofiq me'yorda foydalanilganda quyidagi formulani qo'llash maqsadga muvofiq:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times M$$

bu yerda,

M_{xb} - sarflangan resurslarning bahosi o'zgarishi natijasida chetlanishlar.

Sarflangan resurslarning miqdori va bahosi bo'yicha me'yorlaridan foydalanib, haqiqiy xarajatlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$H_x = (F_{zx} \pm M_{xb}) \times (M_m \pm M_{ch})$$

bu yerda,

M_m - me'yoriy (normativ) miqdor;

M_{ch} - haqiqiy xarajatlarning me'yordan chetga chiqishi.

Me'yoriy hisob-kitob metodi har bir mahsulot birligi uchun oldindan normativlarni majburiy ravishda shakllantirishni ko'zda tutadi. Ushbu normativlar hisobot davri boshlanishida amalda bo'lgan xarajat me'yorlariga tayanadi. Korxonada tashkiliy hamda ilmiy-texnik yangilanishlar joriy etilishi natijasida me'yoriy sarflar o'zgarsa, unga muvofiq holda kalkulyatsiya ko'rsatkichlari ham yangilab boriladi.

Mazkur usulda xarajatlar belgilangan me'yorlar doirasida hamda ulardan yuzaga kelgan og'ishlar (chetlanishlar) bo'yicha alohida tahlil qilinadi. Chetlanishlar to'g'risidagi ma'lumotlar mahsulot tannarxining shakllanishiga operativ ta'sir ko'rsatish va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun o'ta muhimdir. Ushbu metodologiyada mahsulotning real tannarxi har bir xarajat

moddasi bo'yicha aniqlangan og'ishlarni bazaviy me'yorga qo'shish yoki undan ayirish orqali hisoblab chiqiladi.

Me'yoriy (normativ) usulni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi talablar bajarilishi shart:

- Barcha turdagi resurslar sarfi bo'yicha mukammal me'yoriy bazani shakllantirish;

- Me'yoriy kalkulyatsiyalarni ishlab chiqarish boshlanishidan avval tayyorlab qo'yish;

- Xarajatlar yuzaga kelgan joylar, chetlanishlarga sabab bo'lgan omillar va mas'ul shaxslarni ko'rsatib beruvchi birlamchi hujjatlar tizimini yo'lga qo'yish;

- Har bir bo'linma va yaxlit xo'jalik subyekti miqyosida tannarx shakllanishini nazorat qilish hamda tahlil natijalari asosida tezkor boshqaruv xulosalarini chiqarish.

Shuningdek, me'yoriy usul ombor xo'jaligining tartibli tashkil etilishini taqozo etadi. Bu o'rinda omborlarni aniq o'lchov va tarozi uskunalari bilan jihozlash, ishlab chiqarish bo'limlariga suv, gaz, bug' va elektr energiyasi sarfini nazorat qiluvchi hisoblagichlar o'rnatish, mahsulotlar nomenklaturasini tizimlashtirish hamda birlamchi hujjatlar aylanmasini sifatli rasmiylashtirish kabi tashkiliy-texnik tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

8.2. Kalkulyatsiyalashning me'yoriy (normativ) va haqiqiy usullarining farqli jihatleri

Boshqaruv hisobining eng ustuvor vazifalaridan biri korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot, bajarilayotgan ish yoki ko'rsatilayotgan xizmat birligining tannarxini aniqlash hamda uni kalkulyatsiya qilishdir. Aynan birlik mahsulotning tannarxi strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Me'yoriy (normativ) usulda rejalashtirilgan xarajatlar bilan amalda yuzaga kelgan sarflar o'rtasidagi tafovut "og'ish" (chetlanish) deb yuritiladi.

Haqiqiy kalkulyatsiya jarayonida real sarf etilgan bevosita materiallar, ish haqi va ishlab chiqarish ustama xarajatlari ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Me'yoriy (normativ) kalkulyatsiya yuritishda esa bevosita moddiy va mehnat sarflari haqiqiy miqdorlarda olinadi, biroq ustama xarajatlar rejalashtirilgan taqsimot stavkalari yordamida buyurtmalarga yo'naltiriladi.

Pudrat shartnomalari asosida tannarxni hisoblashda har bir loyiha yoki buyurtma alohida hisob obyekti sifatida ko'riladi. Shu sababli, har bir shartnoma bo'yicha xarajatlar buxgalteriya Bosh daftarida mustaqil hisobvaraqda jamlanadi. Xarajat elementlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

Asosiy materiallar. Loyiha uchun maxsus xarid qilingan yoki korxona omboridan ajratilgan materiallar qiymati shartnoma hisobvarag'ining debetida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi. Shartnomaga yo'naltiriladigan mehnat xarajatlari tarkibiga loyiha hujjatlarini tayyorlash (ofis ishlari), ishlab chiqarish operatsiyalari va bevosita qurilish maydonidagi mehnat sarflari kiradi. Qurilish uchastkasida bajarilgan barcha ishlar bevosita mehnat sifatida baholanadi. Xodimlarning ish vaqti maxsus tabel yuritish orqali hisobga olinadi va ushbu sarflar shartnoma hisobiga kiritiladi.

Bevosita xarajatlar. Material va mehnat sarflaridan tashqari, shartnoma bo'yicha ahamiyati yuqori bo'lgan boshqa bevosita chiqimlar ham mavjud. Bunga, asosan, maxsus uskunalar ijarasi yoki ekspluatatsiyasi hamda subpudrat ishlari kiradi.

Pudrat ishlari. Agar loyiha ko'lamli bo'lsa yoki maxsus mutaxassislar jalb etishni talab qilsa, korxona subpudratchilarni chaqirishi mumkin. Subpudratchi tomonidan bajarilgan xizmatlar tannarxi shartnomaning bevosita xarajati hisoblanib, shartnoma hisobvarag'ining debetida qayd etiladi.

Bilvosita xarajatlar. Ko'pgina pudratchilar bilvosita sarflarni alohida shartnomalar kesimida taqsimlashga katta e'tibor qaratmaydilar, chunki ularning qiymati bevosita xarajatlarga

nisbatan past bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ushbu xarajatlarni aniq taqsimlash loyihaning real qiymatini to'g'riroq baholash imkonini beradi.

Ekspert xulosasi va ushlab qolinadigan mablag'. Shartnomaning umumiy qiymati mijoz va ijrochi o'rtasida kelishiladi. Agar loyiha uzoq muddatli bo'lsa, pudratchi bajarilgan ish hajmidan kelib chiqib, oraliq to'lovlarni (protsentovkalarni) qabul qilib boradi.

Tugallanmagan shartnomalar bo'yicha foydani tan olish. Uzoq muddatli loyihalarda foyda ishning yakunlanish darajasi (foizi) usuli orqali hisobga olinadi. Bu foydaning faqat loyiha bitgan yili emas, balki barcha yillar davomida mutanosib taqsimlanishini ta'minlaydi. Foydani tan olishda quyidagi mezonlar muhim:

- foydani qayd etishdan avval loyihaning muvaffaqiyatli yakunlanishiga ishonch komil bo'lishi kerak;
- tan olinadigan foyda bajarilgan ish hajmiga mutanosib bo'lishi shart;
- loyiha bo'yicha kutilayotgan ehtimoliy zararlar darhol inobatga olinishi lozim.

Oraliq foydani hisoblash tartibi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-qadam. Shartnomani amalga oshirishning umumiy qiymatini (shartnoma narxini) aniqlang (a).

2-qadam. Loyihaning jami kutilayotgan xarajatlarini hisoblang (b). Bu o'z ichiga shu kunga qadar qilingan real xarajatlarni hamda loyihani bitirish uchun kelgusida zarur bo'ladigan taxminiy sarflarni oladi.

3-qadam. Loyihadan kutilayotgan umumiy foydani aniqlash uchun shartnoma qiymatidan (a) jami taxminiy xarajatlarni (b) ayirib tashlang.

4-qadam. Shu sanada tushuntiriladigan foyda shu vaqtda bajarilgan ish hajmini aks ettirishi lozim. Bu quyidagicha hisoblanadi:

Tushuntiriladigan = foyda	$\frac{\text{Qabul qilingan ish qiymati-ushlab qolinadigan summa}}{\text{Buyurtma-shartnomani bajarishning umumiy summasi}}$	Taxminiy foyda
------------------------------	--	-------------------

5-qadam. Joriy davrda tugallanmagan buyurtma-shartnoma bo'yicha foyda (ya'ni joriy yilda buyurtma-shartnoma schyotiga kirim qilinadi) 4-qadamga muvofiq hisoblanib buyurtma-shartnoma bo'yicha oldingi davrlari uchun foyda chiqarib yuborilgan kumulyativ tushuntiriladigan foydadan iborat.

Boshqa tomondan yondashganda, joriy davr uchun hisoblanadigan foyda — bu buyurtma-shartnoma bo'yicha butun davr mobaynida shakllangan (zarurat tug'ilganda aniqlashtirilgan) jami foyda ko'rsatkichidan avvalgi davrlarda tan olingan foyda summasini chegirib tashlash natijasidir.

Shunday qilib, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning me'yoriy (normativ) metodi xo'jalik subyektlarida xarajatlar hisobining o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, tayyorlangan mahsulotlarning real tannarxini yuqori aniqlikda belgilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu yondashuv sarf-xarajatlardagi tafovutlarni chuqur tahlil qilish hamda ularning yuzaga kelish omillarini oydinlashtirish imkonini beradi. Demak, mazkur metodika xarajatlar ustidan operativ monitoring o'rnatish hamda yuzaga kelgan og'ishlarni samarali boshqarishda nihoyatda qulaydir.

8-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Sarf-xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlashda normativ uslubni qo'llashning bosh ustunligi — hisob-kitob jarayonlarining soddaligidir. Biroq, ishlatilgan zaxiralar hajmi va ularning bahosi ustidan nazorat o'rnatuvchi me'yorlarning yo'qligi, yuzaga kelgan og'ishlar (chetlanishlar) sababi va aybdorlarini aniqlash imkoniyati cheklanganligi hamda sarflar tahlilining faqatgina hisobot davri yakunidagina amalga oshirilishi ushbu metodning asosiy nuqsonlari sifatida baholanadi.

Shu bois, normativ kalkulyatsiya tizimidan samarali foydalanish uchun barcha turdagi resurslar bo'yicha mustahkam me'yoriy bazani shakllantirish, kalkulyatsiyalarni oldindan ishlab chiqish va xarajatlar yuzaga kelgan nuqtalar hamda chetlanish omillarini qayd etuvchi birlamchi hujjatlar tizimini yaratish lozim. Shuningdek, har bir ishlab chiqarish bo'linmasi darajasida tannarx shakllanishini nazorat qilish natijasida operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish va zarur xulosalar chiqarish mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq sanaladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Me'yoriy (normativ) hisob usuli, mahsulotlar tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish jarayoni, me'yoriy usul asosida mahsulot tannarxini aniqlash, o'zgaruvchan hamda doimiy umumishlab chiqarish xarajatlari, haqiqiy xarajatlar va haqiqiy tannarx tushunchalari, buyurtma-shartnoma asosida hisob yuritish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xarajatlarni hisobga olishning me'yoriy uslubi va uning iqtisodiy mazmunini yoritib bering.
2. Tannarxni aniqlashda me'yoriy yondashuvning boshqa kalkulyatsiya metodlariga nisbatan asosiy afzalliklarini ko'rsating.
3. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashda me'yoriy usuldan foydalanishning kamchiliklari nimalardan iborat?
4. Qaysi holatlarda va qanday ishlab chiqarish sharoitlarida me'yoriy hisob tizimini qo'llash eng yuqori samaradorlikni beradi?
5. Me'yoriy xarajatlar tarkibiga kiruvchi asosiy elementlar va ularni belgilash tartibini tavsiflang.
6. Korxonada me'yoriy hisob mexanizmidan muvaffaqiyatli foydalanish uchun qanday tashkiliy-uslubiy shartlar bajarilishi lozim?
7. Kalkulyatsiyalashning me'yoriy (normativ) hamda haqiqiy (faktik) xarajatlar asosidagi uslublarini o'zaro qiyosiy tahlil qiling.
8. Me'yoriy uslubni tannarxni aniqlashning boshqa metodikalaridan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

IX BOB. ZAMONAVIY "STANDART-KOST" TIZIMI ASOSIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH

9.1. Zamonaviy "Standart-kost" tizimining mohiyati va ahamiyati


Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi tayyorlanayotgan mahsulotlar tannarxini aniqlashning eng takomillashgan uslublarini qo'llashni talab qiladi.

Xalqaro tajribada strategik va taktik boshqaruv qarorlari korxoning sarf-xarajatlari hamda yakuniy moliyaviy natijalari haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Bu borada xarajatlarni tartibga solishning eng unumli vositasi sifatida "Standart-kost" tizimi e'tirof etiladi. Mazkur tizimning mohiyati oldindan belgilangan me'yorlar hamda ulardan yuzaga kelgan og'ishlarni tizimli nazorat qilish va hisobga olish prinsiplariga tayanadi.

"Standart-kost" tushunchasi ikki qismdan iborat bo'lib, "standart" so'zi mahsulot birligini tayyorlashga sarflanadigan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining oldindan hisoblangan me'yorini anglatadi. "Kost" esa birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatni ifodalaydi. Binobarin, ushbu atama yaxlit holda standartlashtirilgan xarajatlar ma'nosini anglatadi.

Standartlashtirish tizimi birinchi navbatda bevosita ishlab chiqarish chiqimlarini boshqarishga xizmat qilsa, smetalar (byudjetlar) esa taqsimlanadigan bilvosita sarflarni nazorat qilish uchun qo'llaniladi.

"Standart-kost" — bu sarf-xarajatlarni hisobga olish va tannarxni shakllantirishning shunday metodologiyasiki, unda mahsulotlar qiymati dastlab puxta ishlab chiqilgan me'yorlar asosida baholanadi va so'ngra amaldagi natijalar bilan qiyoslanadi. Belgilangan me'yor va haqiqiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovut og'ish (chetlanish) deb ataladi. Aynan mana shu chetlanishlarni tahlil qilish korxona xarajatlarini samarali boshqarishning asosiy omilidir.



9.1-rasm. “Standart-kost” tizimining tamoyillari

“Standart-kost” tizimining tuzilishi mahsulot tayyorlash boshlanishiga qadar belgilab olinadigan quyidagi xarajat meʼyorlarini oʻz ichiga oladi:

- asosiy materiallar;
- ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy ishchilar mehnatiga haq toʻlash;
- ishlab chiqarishdagi taqsimlanadigan sarflar (masalan, yordamchi xodimlar maoshi, uskunalar amortizatsiyasi, ijara toʻlovlari va h.k.);
- realizatsiya (sotish) bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlar.

“Standart-kost” tizimi boʻyicha foyda quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi tushum;
2. Mahsulotning rejalashtirilgan (standart) tannarxi;
3. Yalpi foyda koʻrsatkichi;
4. Standartlardan yuzaga kelgan ogʻishlar (chetlanishlar);
5. Yakuniy foyda.

Standart va meʼyorlar yordamida tayyorlangan kalkulyatsiyalar xarajatlarni tezkor boshqarishda asosiy tayanch hisoblanadi. Amaldagi sarflarning belgilangan meʼyorlardan chetga chiqishi ushbu holatning kelib chiqish sabablarini oydinlashtirish uchun tahlil etiladi. Bu esa rahbariyatga ishlab chiqarishdagi

kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va kelgusida ham ularning oldini olish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda "Standart-kost" tizimi qat'iy me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinmagan. Shu sababli, ushbu tizim standartlarni belgilash va hisob qaydnomalarini yuritishda yagona majburiy uslubga ega emas. Natijada birgina korxona ichida ham joriy, bazaviy, mutlaq yoki taxminiy kabi turli xil me'yoriy ko'rsatkichlar amal qilishi mumkin.

Me'yorlarni shakllantirishda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo, ishchi kuchi va xizmatlar sarfini tabiiy birliklarda ifodalashga yordam beruvchi miqdoriy standartlardan keng foydalaniladi.

Taqsimlanadigan xarajatlar. Bilvosita xarajatlarni nazorat qilish maqsadida kutilayotgan ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqib, muayyan davr uchun maxsus stavkalar o'rnatiladi. Garchi bunday smetalar odatda turg'un bo'lsa-da, ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarganda sarflarni jilovlash uchun o'zgaruvchan standartlar va "sirpanchiq" (egiluvchan) smetalar tayyorlanadi.

Taqsimlanadigan xarajatlarning egiluvchan smetalari mahsulot hajmi o'zgarishiga ko'ra o'zgarmas, o'zgaruvchan va yarim o'zgaruvchan turlarga bo'linadi. Aralash xarajatlar esa, o'z navbatida, doimiy va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarga ajratiladi. Mazkur usulda smeta stavkasi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan qism va doimiy xarajatlarning me'yoriy ulushi sifatida hisoblanadi.

Mahsulotning me'yoriy tannarxini hisoblash uchun xomashyo, ishchi kuchi hamda taqsimlanadigan bilvosita sarflarning standart ko'rsatkichlari umumlashtiriladi.

"Standart-kost" tizimidan foydalanadigan korxonalar odatda quyidagi xarajat moddalari bo'yicha hisobni yo'lga qo'yadilar:

- xomashyo xarajatlari bo'yicha og'ishlar;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha og'ishlar;
- umumishlab chiqarish sarflari bo'yicha og'ishlar;
- davr xarajatlari bo'yicha og'ishlar.

Zarurat tug'ilganda (masalan, javobgarlik markazlari kesimida tahlil o'tkazishda) mazkur xarajat moddalarining har biri uchun alohida analitik hisobvaraqlar ochilishi mumkin.

9.1-jadval

"Standart-kost" tizimida xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni turkumlash

	Chetlanish turlari	Chetlanishlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning hisob-kitobi
I. Xomashyo		
1	Xomashyo qiymatidagi chetlanishlar	- xomashyo birligining me'yoriy (normativ) tannarxi; - haqiqiy baho; - sotib olingan xomashyo qiymati.
2	Xomashyo miqdori bo'yicha chetlanishlar	- mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xomashyoning me'yoriy (normativ) miqdori; - xomashyo uchun sarflangan haqiqiy xarajat.
3	Xomashyo birligiga sarflanadigan xarajatlar bo'yicha chetlanishlar	- xomashyo birligiga sarflangan me'yoriy (normativ) xarajatlar; - xomashyo birligiga sarflangan haqiqiy xarajatlar.
II. Ishchi kuchi		
1	Mehnat haqi stavkalari bo'yicha chetlanishlar	- ish haqining me'yoriy (normativ) stavkasi; - ish haqining soatbay stavkasi; - haqiqiy ishlangan vaqt.
2	Mehnat unumdorligi darajasi bo'yicha chetlanishlar	- mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun me'yoriy (normativ) vaqt; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy vaqt; - mehnatga haq to'lash me'yoriy (normativ) soatbay stavkasi.
III. Qo'shimcha xarajatlar		
1	Doimiy qo'shimcha xarajatlar bo'yicha chetlanishlar	- mahsulot birligiga sarflanadigan doimiy qo'shimcha xarajatlar me'yori; - mahsulot birligiga sarflanadigan haqiqiy doimiy qo'shimcha xarajatlar; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.

2	O'zgaruvchan qo'shimcha xarajatlar bo'yicha chetlanishlar	- mahsulot birligiga sarflanadigan o'zgaruvchan qo'shimcha xarajatlar me'yori; - mahsulot birligiga sarflangan haqiqiy o'zgaruvchan qo'shimcha xarajat; - ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy hajmi.
IV. Yalpi foyda		
1	Sotish bahosi bo'yicha chetlanishlar	- mahsulot birligining me'yoriy (normativ) tannarxi; - mahsulot birligining haqiqiy tannarxi; - sotilgan mahsulot hajmi.
2	Sotish hajmi bo'yicha chetlanishlar	- smeta bo'yicha sotish hajmi; - haqiqiy sotilgan mahsulot hajmi; - mahsulot birligiga to'g'ri kelgan me'yoriy foyda.
3	Yalpi foyda hajmi bo'yicha chetlanishlar	- me'yoriy (normativ) foyda; - haqiqiy olingan foyda.

9.2. "Standart-kost" tizimining afzalliklari va kamchiliklari

"Standart-kost" tizimining eng muhim talabi — xarajatlarning belgilangan me'yorlardan og'ishi ustidan doimiy nazorat o'rnatishdir. Bu esa sarf-xarajat standartlarini muntazam ravishda takomillashtirishga zamin yaratadi. Agar bunday monitoring mexanizmi qo'llanilmasa, "Standart-kost" tizimi shunchaki rasmiy xarakterga ega bo'lib qoladi va kutilgan ijobiy samarani bermaydi.

«Standart-kost» tizimi quyidagi ustunliklarga ega:

- «Standart-kost» tizimi sarf-xarajatlarni tezkor (operativ) boshqarish imkonini beradi. Tafovutlarni o'rganishda asosiy e'tibor reja va normativ ko'rsatkichlar mos kelmaydigan nuqtalarga qaratiladi. Bu tizimda og'ishlar boshqa uslublarga qaraganda ancha tez va yuqori aniqlikda hisoblanadi;

ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash va zamonaviylashtirishni rag'batlantiradi. Investitsiyalar tejamkor texnologiyalarga yo'naltirilishi lozimligi sababli, jarayonlar muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda nafaqat

ayrim bo'laklar, balki butun ishlab chiqarish texnologiyasi ham transformatsiya qilinishi mumkin;

- sarf-xarajatlar ustidan qat'iy va ishonchli nazoratni kafolatlaydi.

"Standart-kost" tizimi tayyor mahsulot va uning tarkibiy qismlarini real baholashga asoslanadi. Mazkur tizimda me'yoriy xarajatlar shunchaki o'rtacha ko'rsatkich emas, balki ko'p yillik tajriba hamda sinalgan metodikalar asosida shakllangan kompleks baholash mezonlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, "Standart-kost" tizimining ayrim kamchiliklari ham mavjud:

- "Standart-kost" tizimini joriy etish va takomillashtirish katta vaqt hamda mablag' talab qiladi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish unumdorligining oshishi hisobiga bu sarflar qisqa muddatda o'zini oqlaydi;

- narxlar, foiz stavkalari hamda ishlab chiqarish usullari shiddat bilan o'zgarib turadigan beqaror iqtisodiy muhitda ushbu tizim kutilgan samara bermasligi va o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Bunday sharoitda tizim tezkor nazorat funksiyasini bajara olmaydi va samarali boshqaruv vositasi rolini o'tay olmaydi;

- xususan, bozordagi raqobat ta'sirida narxlarning o'zgarishi va inflyatsiya omillari tayyor mahsulot zaxiralari hamda tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblashni murakkablashtiradi;

- standartlarni barcha turdagi ishlab chiqarish chiqimlariga tatbiq etib bo'lmaydi, natijada ayrim sohalarda nazorat sustlashishi mumkin;

- korxona qisqa muddat ichida turli xil va ko'p sonli buyurtmalarni bajarayotganda, har bir buyurtma uchun alohida standartlarni ishlab chiqish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ilmiy asoslangan me'yorlar o'rniga narx belgilash uchun asos bo'ladigan o'rtacha qiymatlar qo'llaniladi.

Ushbu nuqsonlarga qaramay, korxona rahbarlari ishlab chiqarish sarflarini kalkulyatsiya qilish, rejalashtirish hamda strategik qarorlarni asoslashda ishonchli nazorat quroli sifatida aynan "Standart-kost" tizimidan keng foydalanadilar.

Me'yoriy (normativ) uslub va "Standart-kost" tizimini qiyoslash ularning ko'plab mushtarak jihatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Har ikki tizim uchun quyidagilar tayanch tamoyillar hisoblanadi:

- xarajatlarni qat'iy tartibga solish va me'yorlashtirish;
- har bir xarajat moddasi bo'yicha me'yoriy kalkulyatsiyalarni davr boshlanmasidan avval tayyorlash;
- yuzaga kelgan og'ishlarni mas'uliyat markazlari kesimida qayd etish hamda joriy me'yorlar bo'yicha hisob yuritish;
- ishlab chiqarishdagi salbiy holatlarni bartaraf etish uchun aniqlangan og'ishlarni tizimli umumlashtirish va tahlil qilish;
- mahsulot tannarxini hisoblash hamda xarajatlar hisobi uslubiyotining keng imkoniyatlarini inobatga olish.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi umumiy jihatlar bilan birga quyidagi ayrim tafovutlar ham mavjud:

- me'yoriy uslubdan farqli ravishda, "Standart-kost" tizimida me'yorlarning o'zgarishi bo'yicha alohida hisob yuritilmaydi;
- dastlabki hisoblangan me'yoriy ko'rsatkichlar haqiqiy xarajatlarni standartlarga muvofiqlashtirish uchun qat'iy belgilangan stavkalar sifatida qabul qilinadi;
- chetlanishlar kuzatilgan taqdirda ham o'rnatilgan standart me'yorlari o'zgarishsiz qoladi;
- ushbu standartlar butun hisobot muddati davomida barqaror saqlanib qolinadi.

"Standart-kost" tizimidan farqli o'laroq, me'yoriy hisob asosan ishlab chiqarish jarayoniga ko'proq urg'u beradi va realizatsiya bosqichiga unchalik yo'naltirilmagan, bu esa mahsulotning sotuv bahosini asoslashda o'z aksini topadi.

9.3. Zamonaviy "Standart-kost" tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish

Buxgalteriya hisobining 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" milliy standartiga muvofiq, xo'jalik subyektlariga buxgalteriya hisobi obyektlarini haqiqiy yoki me'yoriy (normativ) tannarx asosida baholash, shuningdek, hisob yuritishning uslub va shakllarini mustaqil ravishda tanlash imkoniyati berilgan. Masalan, tayyor mahsulotlarning sintetik hisobini me'yoriy tannarxda yurituvchi tashkilotlar yangi hisobvaraqlar rejasiga tayangan holda 2800-"Tayyor mahsulotlar hisobi" hisobvaraqlaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu hisobvaraq hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash hamda ularning real tannarxi bilan me'yoriy tannarxi o'rtasidagi tafovutlarni (og'ishlarni) aniqlashga xizmat qiladi.

Hisobot oyi yakunlangach, 2010-"Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida shakllangan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi ushbu hisobvaraqlarning kreditidan 2810-"Ombordagi tayyor mahsulot" hisobvarag'ining debetiga tegishli buxgalteriya o'tkazmalari orqali o'tkaziladi. Natijada tayyor mahsulot haqidagi axborot ikki xil qiymatda namoyon bo'ladi: debet tomonida — haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi, kredit tomonida esa — me'yoriy (normativ) tannarx aks etadi. Oy oxirida 2810-hisobvaraqlarning debet va kredit aylanmalarini o'zaro qiyoslash orqali haqiqiy tannarxning me'yordan og'ish darajasi hisoblab chiqiladi. Aniqlangan chetlanish summasi 2810-hisobvaraqlarning kreditidan 9100-"Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi" hisobvaraqlarining debetiga o'tkazish yo'li bilan hisobdan chiqariladi. Har chorak yakunida 2810-hisobvaraq yopiladi va keyingi chorak boshiga qadar tegishli qoldiqqa ega bo'ladi.

Xo'jalik subyektlari amaliyotida me'yoriy tannarxni hisoblash tizimidan foydalanish, xarajatlar hisobini xalqaro darajadagi "Standart-kost" tizimi talablariga muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

Amaliyotda 2800-"Tayyor mahsulotlar hisobi" hisobvaraqlaridan foydalanish mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblashda ortiqcha mehnat talab qiladigan hisob-kitoblarni qisqartiradi. Boisi, ishlab chiqarilgan, yuklangan va realizatsiya qilingan mahsulotlar bo'yicha aniqlangan og'ishlar bevosita 9100-"Sotilgan mahsulotlar tannarxi" hisobvaraqlariga ko'chiriladi. Biroq shuni unutmash kerakki, ushbu yondashuv faqat mahsulot o'sha chorakning o'zida ishlab chiqarilib, sotilgan taqdirdagina realizatsiya qilingan mahsulotning real tannarxini to'g'ri aks ettiradi.

Amaldagi hisobvaraqlar rejasi korxonalarga moddiy zaxiralar hisobini me'yoriy tannarx asosida quyidagi ikki uslubda yuritish imkonini beradi:

- Haqiqiy tannarx asosida;
- Hisob baholari asosida.

Birinchi yondashuvga ko'ra, 1000-"Materiallar hisobi" hisobvaraqlarida zaxiralarni sotib olish va tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha real xarajatlar aks ettiriladi.

Ikkinchi yondashuvda esa 1510-"Materiallarni tayyorlash va sotib olish" hamda 1610-"Materiallar qiymatidagi chetlanishlar" hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Ushbu usullardan qaysi birini tanlashni tashkilot mustaqil belgilaydi va buni o'zining ichki hisob siyosatida qat'iy qayd etadi.

Materiallarning sintetik hisobi normativ usulda yuritilganda, kelib tushgan zaxiralarning haqiqiy qiymati 1510-hisobvaraqlarning debetida qayd etiladi. Bunda kirim qilingan materiallarning me'yoriy qiymati 1000-hisobvaraqlarda aks etsa, haqiqiy xarid tannarxining me'yoriy qiymatdan farqi (og'ishi) 1610-hisobvaraqlarning debetida hamda 1510-hisobvaraqlarning kreditida o'z aksini topadi.

Moddiy zaxiralar va boshqa ishlab chiqarish resurslarining hisobvaraqlar rejasida aks ettirilishidagi vaqtinchalik nomuvofiqliklar "Standart-kost" tizimini samarali qo'llashga ma'lum darajada to'sqinlik qilishi mumkin. Buning sababi, bir tomondan

tayyor mahsulot va jo'natilgan tovarlar har kuni me'yoriy tannarxda hisobga olinsa, ikkinchi tomondan materiallar va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari davr yakunida haqiqiy tannarxda qayd etiladi.

"Standart-kost" tizimi doimiy takomillashib borish tamoyillariga to'la mos keladi hamda xo'jalik subyektlarini umumiy samaradorlikni oshirish uchun mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga undaydi.

9-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Mazkur bo'limda boshqaruv hisobida "Standart-kost" tizimini yo'lga qo'yishning nazariy va amaliy asoslari, uning fundamental prinsiplari, ijobiy jihatlari, mavjud to'siqlar hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yoritildi.

Sarf-xarajatlarni qayd etish va tannarxni shakllantirishning ilg'or "Standart-kost" metodikasi boshqaruv hisobi amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, u xo'jalik subyektlarida xarajatlarni prognozlash, monitoring qilish hamda natijalarni tahlil etishda tizimli platforma vazifasini o'taydi. Ushbu zamonaviy tizim korxonadagi turli xarajat tarkibiy qismlari bo'yicha oldindan me'yorlarni belgilaydi va amaldagi natijalarni mazkur standart ko'rsatkichlar bilan doimiy ravishda qiyoslab boradi.

Asosiy tayanch tushunchalar

"Standart-kost" tizimi va uning asosiy tamoyillari, mazkur tizimning ustunliklari hamda kamchiliklari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qo'llanilishi, haqiqiy tannarx tushunchasi, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni, me'yoriy (normativ) hisob usuli, shuningdek "Standart-kost" tizimida yuzaga keladigan chetlanishlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Zamonaviy sharoitda "Standart-kost" tizimining konseptual mohiyati va iqtisodiy mazmunini tushuntirib bering.

2. "Standart-kost" tizimining boshqa xarajatlar hisobi modellari bilan bog'liq bo'lgan o'xshash va umumiy jihatlarini ko'rsating.

3. Korxona faoliyatini boshqarishda "Standart-kost" tizimining asosiy afzalliklari va ijobiy tomonlarini sanab o'ting.

4. "Standart-kost" tizimi doirasida xarajat moddalari bo'yicha yuzaga keladigan chetlanishlarni (variatsiyalarni) turkumlang.

5. "Standart-kost" tizimining amaliy faoliyatini belgilab beruvchi fundamental tamoyillar nimalardan iborat?

6. Zamonaviy "Standart-kost" tizimi orqali sarf-xarajatlarni hisobda aks ettirish va yuritishning o'ziga xos tartibini izohlang.

7. "Standart-kost" tizimini boshqa boshqaruv hisobi tizimlaridan ajratib turuvchi asosiy farqlar va xususiyatlarni bayon qiling.

8. Standart-kost" tizimning uslubiy asosini tashkil etuvchi asosiy prinsiplarning mazmunini ochib bering.

X BOB. ZAMONAVIY "DIREKT-KOSTING" TIZIMI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

10.1. Zamonaviy "Direkt-kosting" tizimining mohiyati va ahamiyati

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tayyorlanayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish tannarxni aniqlashning ilg'or va zamonaviy tizimlarini amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi.

"Direkt-kosting" tizimi milliy buxgalteriya hisobi uchun nisbatan yangi yo'nalish hisoblansa-da, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Masalan, Germaniya va Avstraliyada ushbu metod "qisman xarajatlar hisobi" deb yuritiladi. Britaniyada u "marjinal xarajatlar hisobi", Fransiyada esa "marjinal buxgalteriya" yoki "marjinal hisob" nomlari bilan ataladi. O'zbekistonda esa mazkur tizimga nisbatan "cheklangan, to'liq bo'lmagan yoki qisqartirilgan tannarx hisobi" kabi tushunchalar ishlatib kelinmoqda.

1994-yildan boshlab respublikamiz korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilishning an'anaviy bo'lmagan usuli — "Direkt-kosting" tizimi elementlari bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi.

G'arb mamlakatlarida marjinal daromad usuli ekstensiv rivojlanish modelidan voz kechib, intensiv rivojlanish modeliga o'tishning muhim vositasi sifatida qo'llanila boshladi. Bunday yondashuvdan foydalanish, o'z navbatida, sarf-xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo'shimcha, ayniqsa, doimiy va o'zgaruvchan turlarga qat'iy ajratishni hamda shu asosda strategik boshqaruv vazifalarini hal qilishni taqozo etadi.

Shuni ham qayd etish joizki, "Direkt-kosting" tizimining vujudga kelishi bevosita buxgalteriya hisobi ehtiyojlari bilan bog'liq edi. O'sha davrdagi hisob mutaxassislari barcha xarajatlar aynan

mahsulot realizatsiya qilingan hisobot davriga tegishli bo'lishi va shu davr natijalarida aks etishi lozim, degan xulosaga kelishgan.

"Direkt-kosting" tizimining bosh maqsadi — korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga qarab, o'zgarmas (doimiy) va o'zgaruvchan qismlarga klassifikatsiya qilishdan iboratdir.



10.1-rasm. "Direkt-kosting" tizimining tamoyillari

Ushbu tizimning ilk rivojlanish davrida tannarx tarkibiga faqatgina o'zgaruvchan sarflar kiritilib, o'zgarmas xarajatlar to'g'ridan-to'g'ri subyektning yakuniy moliyaviy natijalariga olib borilgan. "Direct-Costing-System" (bevosita xarajatlarni hisobga olish tizimi) iborasining kelib chiqishi aynan mana shu amaliyot bilan bog'liqdir. Keyinchalik bu tizim takomillashib, tannarx ko'rsatkichini faqat bevosita o'zgaruvchan chiqimlar asosida shakllantirishga ixtisoslashdi. Atama bilan bog'liq bo'lgan ayrim shartli jihatlar mana shu o'zgarishlar zaminida yuzaga kelgan.

Amaliy faoliyatda "Direkt-kosting"ning bir necha variatsiyalaridan foydalanish mumkin. Klassik uslubda mahsulot qiymati faqat o'zgaruvchan sarf-xarajatlar yordamida kalkulyatsiya qilinadi. Ishlab chiqarish resurslaridan samarali va to'liq quvvat bilan foydalanishni tahlil etishda barcha o'zgaruvchan xarajatlar bilan birga, umumishlab chiqarish xarajatlarning muayyan bo'lagi ham hisobga olinadi. Bu jarayon bevosita ishlab chiqarish

quvvatlarini ishlatish darajasini ifodalovchi koeffitsiyentga tayangan holda bajariladi.

“Direkt-kosting” tizimida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot tizimi quyidagi ko‘rinishda aks ettiriladi (10.1-jadval).

10.1-jadval

“Direkt-kosting” va mahsulotning to‘liq tannarxini hisoblash tizimlari bo‘yicha korxona moliyaviy natijasini aniqlashning qiyosiy ko‘rinishi

№	“Direkt-kosting” tizimi bo‘yicha	Summa	№	To‘liq tannarx usuli bo‘yicha	Summa
1.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan tushum	358357	1.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushgan tushum	358357
2.	O‘zgaruvchan xarajatlar (sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxi)	288916	2.	Sotilgan mahsulotlarning to‘liq tannarxi	334484
3.	Marjinal daromad (mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarar))	69441	3.	Asosiy (operatsion) foyda (zarar)	23873
4.	Doimiy xarajatlar (davr xarajatlari)	45568			
5.	Asosiy (operatsion) foyda (zarar)	23873			

10.1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar moliyaviy natijalarni hisoblash metodikasiga tayanib, “Direkt-kosting” uslubi va mahsulotning to‘liq tannarxini aniqlash tizimi o‘rtasidagi asosiy tafovutlarni yoritib beradi.

“Direkt-kosting” xarajatlar hisobi tizimining poydevorini o‘zgaruvchan sarflar, ruxsat etilgan xarajatlar hamda marjinal foyda (hissa marjasi) kabi elementlar tashkil etadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar — bu ishlab chiqarish hajmi yoki faoliyat darajasining tebranishiga mutanosib ravishda bevosita o‘zgarib boruvchi sarf-xarajatlardir.

Hissa marjasi — bevosita xarajatlar tizimining markaziy indikatoridir sanalib, yalpi savdo tushumi bilan jami o'zgaruvchan sarflar o'rtasidagi farqni aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'zgarmas (doimiy) xarajatlarini qoplash hamda sof foyda shakllantirish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorini belgilab beradi.

10.2. "Direkt-kosting" tizimining afzalliklari va kamchiliklari

"Direkt-kosting" tizimi, shuningdek, o'zgaruvchan yoki marjinal xarajatlar hisobi sifatida ham e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv xarajatlarni qayd etishning muqobil usuli bo'lib, asosan sarf-xarajatlarni o'zgarmas (doimiy) va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarga ajratish tamoyiliga tayanadi. An'anaviy kalkulyatsiyalash metodlaridan farqli ravishda, bu tizim marjinal foyda (hissa marjasi) tushunchasiga asoslanadi hamda ishlab chiqarish hajmining korxona rentabelligiga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

"Direkt-kosting" modelining bosh afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Mahsulot tannarxini hisoblash jarayonining soddaligi va aniqligi (chunki rejalashtirish va hisob yuritish faqat o'zgaruvchan sarflar doirasida amalga oshiriladi);
- Doimiy xarajatlarni turli mahsulotlar o'rtasida shartli taqsimlash uchun talab etiladigan murakkab va mehnattalab hisob-kitoblar zaruratining yo'qligi (mazkur sarflar tannarxga kiritilmay, bevosita davr foydasi hisobidan qoplanadi);
- Rentabellik darajasi, zararsizlik nuqtasi hamda mahsulot narxining eng quyi chegarasini aniq belgilash imkoniyati;
- Mahsulotning xilma-xil turlari bo'yicha rentabellik ko'rsatkichlarini o'zaro qiyosiy tahlil qilish;
- Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning eng maqbul hamda foydali dasturini shakllantirish;

- Muayyan mahsulot yoki xizmatni korxonaning o'zida tayyorlash yoki tashqi bozordan xarid qilish masalasida asosli qaror qabul qilish.

Mazkur tizim rahbarlarga korxona miqyosida va alohida mahsulot turlari bo'yicha marjinal daromad dinamikasiga ko'proq e'tibor qaratishga yordam beradi. Bunda eng yuqori foyda keltiradigan mahsulotlarni aniqlashda sotuv bahosi va o'zgaruvchan sarflar orasidagi tafovut doimiy xarajatlar soyasida yashirilib qolmaydi. Bu esa bozor konyunkturasi o'zgarishiga mos ravishda xaridorgir tovarlarni tezda aniqlash va ishlab chiqarishni moslashtirishga xizmat qiladi. Erkin raqobat sharoitida "Direkt-kosting" korxonani boshqarish hamda marketing strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

"Direkt-kosting" tizimi o'zgarmas (doimiy) xarajatlar ustidan operativ nazorat o'rnatishga ko'maklashadi, boisi tannarx monitoringida standart ko'rsatkichlar yoki egiluvchan smetalardan keng foydalaniladi (odatda ushbu tizim "Standart-kost" metodikasi bilan uyg'unlikda tashkil etiladi). Standartlar qo'llanilganda ham o'zgaruvchan, ham doimiy sarflar uchun qat'iy me'yorlar o'rnatiladi. To'liq tannarx tizimida bilvosita sarflarning taqsimlanmagan qismi bir davrdan boshqasiga o'tib, nazoratni qiyinlashtirsa, "Direkt-kosting" bu jarayonning murakkabligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tizimning nazariy va amaliy tahlili undagi ayrim zaif tomonlarni ham ko'rsatadi:

- Raqobat ta'sirida narxlar sun'iy ravishda keskin pasaytirilsa, marjinal foyda doimiy xarajatlarni qoplashga yetmasligi va natijada korxonaning zarar ko'rishiga sabab bo'lishi mumkin;

- Mahsulotning to'liq ishlab chiqarish tannarxini bevosita hisobvaraqlar (schyotlar) tizimida aniqlash mushkul. Shuning uchun tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqarishning yaxlit tannarxi zarur bo'lganda, doimiy sarflarni qo'shimcha ravishda taqsimlash talab etiladi;

- Faqat qisqartirilgan nomenklatura (faqat ishlab chiqarish tannarxi) asosida hisob yuritish boshqaruvning barcha ehtiyojlarini qondirmasligi mumkin, chunki ayrim hollarda mahsulotning to'liq qiymatini bilish talab etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, "Direkt-kosting" tizimi quyidagi o'ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

- Hisob tizimi birinchi navbatda oraliq moliyaviy natija sanalgan marjinal foydani aniqlashga yo'naltirilgan;

- Mahsulot tannarxi faqat o'zgaruvchan sarflar nuqtai nazaridan baholanadi va qayd etiladi;

- Doimiy xarajatlar yaxlit holda hisobga olinib, yakuniy natijani hisoblashda operatsion foydadan chegirib tashlanadi;

- Narxlarni tezkor boshqarishda marjinal foyda ko'rsatkichi asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi;

- Sotuv hajmi, xarajatlar va foyda o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi;

- Korxona faoliyatining zararsizlik chegarasini (nuqtasini) aniq belgilab beradi.

10.3. "Direkt-kosting" tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish

O'zbekiston milliy buxgalteriya amaliyotida uzoq vaqt davomida mahsulotning to'liq tannarxini hisoblash usuli an'anaviy va yetakchi yondashuv bo'lib keldi. Mazkur tizimda asosiy e'tibor mahsulotning barcha sarf-xarajatlarini qamrab oluvchi yaxlit tannarx ko'rsatkichini shakllantirishga qaratiladi. Bunda xarajatlar doimiy yoki o'zgaruvchan, bevosita yoki bilvosita bo'lishidan qat'i nazar, korxonaning barcha chiqimlari mahsulot qiymatiga kiritiladi. To'g'ridan-to'g'ri mahsulotga yo'naltirib bo'lmaydigan sarflar hisobot davri davomida maxsus yig'uvchi-taqsimlovchi hisobvaraqlar (schyotlar)da jamlanadi va keyinchalik tasdiqlangan taqsimot bazasiga muvofiq tannarxga yuklanadi. Biroq ushbu modelning kamchiligi shundaki, ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda

birlik mahsulot tannarxida sodir bo'ladigan tebranishlar inobatga olinmaydi.

Sarf-xarajatlarni o'zgarmas (doimiy) va o'zgaruvchan guruhlariga ajratish ishlab chiqarish ko'lami hamda chiqimlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikka tayanadi. Xarajatlarning bir qismi ishlab chiqarish hajmi bilan to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda o'zgarsa, boshqalari notekis dinamika namoyon qiladi, uchinchi toifa sarflar esa ishlab chiqarish hajmiga deyarli bog'liq bo'lmay, turg'un qoladi. Boshqa barcha sharoitlar teng bo'lganda, o'zgaruvchan xarajatlar mahsulot yoki ish hajmi ortishi bilan ko'payadi. Aksincha, birlik mahsulotga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar ulushi ishlab chiqarish hajmi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik kamayib boradi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi sohasida xarajatlarni bunday tasniflash chiqimlarning turli omillarga bog'liqligini aniqlashga, bo'linmalar faoliyati ustidan tezkor nazorat o'rnatishga hamda tannarxni pasaytirish bo'yicha asosli strategik va taktik qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Xo'jalik subyektlarida xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratish metodikasi turli obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko'ra hozircha cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Ta'kidlash joizki, boshqaruv hisobini "Direkt-kosting" usuli orqali tashkil etish marjinal va sof daromadni xolis belgilash imkonini yaratadi. Sarflarni segmentlar bo'yicha o'zgarmas va o'zgaruvchan qismlarga bo'lish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi tashkilotlari uchun foydalidir, chunki bu xarajatlarni bevosita tushum bilan qiyoslashga va realizatsiya muddati bilan sarf-xarajatlar qaydini muvofiqlashtirishga yordam beradi. "Direkt-kosting" tizimining qo'llanilishi quyidagi choralarni nazarda tutadi:

- hisobot davridagi barcha chiqimlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga klassifikatsiya qilish;
- umumishlab chiqarish xarajatlarini ham o'zgarmas va o'zgaruvchan qismlarga ajratish;
- tannarxni faqat o'zgaruvchan sarflar doirasida rejalashtirish va hisobga olish;

- o'zgarmas davr xarajatlari bevosita hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijalariga yo'naltirish;

- ombordagi tayyor mahsulot zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini faqat o'zgaruvchan xarajatlar asosida baholash.

Bunday yondashuv natijasida qisqartirilgan tannarx shakllanadi. O'zgarmas umumishlab chiqarish xarajatlari mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanmasdan, yaxlit summa bilan sotilgan mahsulot tannarxiga kiritiladi, davr xarajatlari esa bevosita moliyaviy natijalarda aks etadi. Bu usul yordamida marjinal daromad va operatsion foyda haqida qimmatli axborot shakllanadi. Mazkur ko'rsatkichlar tannarxni boshqarishda muhim bo'lib, ularning mahsulot narxi, ishlab chiqarish strukturasi va xarajatlar hajmiga bog'liqligini yaqqol ko'rsatib beradi.

"Direkt-kosting" tizimi ham amaldagi, ham me'yorlashtirilgan (normativ) xarajatlar tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun qishloq xo'jaligida tannarxni boshqarishda me'yoriy metod va "Direkt-kosting" uyg'unligi eng samarali yechim hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining me'yoriy metodi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

- mahsulot turlari bo'yicha davr boshidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda me'yoriy kalkulyatsiyalar tayyorlash;

- xarajatlarni belgilangan me'yorlar hamda ulardan yuzaga kelgan og'ishlar kesimida alohida hisobga olish;

- me'yorlardagi o'zgarishlarni qayd etish va hisobot kalkulyatsiyalarini shakllantirish.

Ushbu yaxlit tizim xarajatlarni oldindan nazorat qilish va boshqaruv hisobining barcha talablarini qondirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini hisoblashda me'yoriy metodning afzalliklari shubhasizdir, "Direkt-kosting" esa korxonadagi ichki holatni yanada chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Agar xo'jalik subyekti ishlab chiqarish va sotish ko'lamini kengaytirsas, birlik mahsulot tannarxi pasayadi, aksincha, hajm qisqarsa, tannarx oshishi kuzatiladi. Bunday o'zgaruvchan sharoitda

“Direkt-kosting” tizimidan foydalanish zarurati yanada dolzarb tus oladi. Sarf-xarajatlarni ushbu tizim asosida tashkil etish tashqi hisobot standartlariga (masalan, soliq hisobiga) doim ham mos kelavermasa-da, u boshqaruv qarorlarini qabul qilish va qisqa muddatli tahlillar o‘tkazish uchun eng zaruriy axborot bazasini yaratib beradi.

10-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Mazkur bo'limda xo'jalik subyektlarida “Direkt-kosting” tizimi asosida boshqaruv hisobini yo'lga qo'yishning fundamental prinsiplari, ijobiy tomonlari, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va amaliyotda tatbiq etish masalalari atroflicha yoritildi.

“Direkt-kosting” metodikasi, ko'pincha o'zgaruvchan yoki marjinal xarajatlar hisobi deb ham yuritiladi. Uning asosiy yo'nalishi — sarf-xarajatlarni o'zgarmas hamda o'zgaruvchan qismlarga klassifikatsiya qilishdan iborat. Bu tizim an'anaviy kalkulyatsiya metodlaridan farqli ravishda, marjinal foyda (hissa marjasi) hamda ishlab chiqarish hajmining rentabellikka qanchalik ta'sir ko'rsatishi bo'yicha chuqur tahliliy axborot shakllantiradi.

Sarf-xarajatlarni qayd etishda “Direkt-kosting” tizimining eng muhim xususiyati — xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy komponentlarga differensiyalash hisoblanadi. Bu mexanizm ishlab chiqarish quvvatlaridagi tebranishlarning umumiy daromadlilik darajasiga ta'sirini baholashda katta ko'mak beradi. Shunga qaramay, mazkur tizimni joriy etmoqchi bo'lgan xo'jalik subyektlari uning tarmoq o'ziga xosliklariga, ishlab chiqarish texnologiyasiga va moliyaviy hisobotlarga bo'lgan ehtiyojlariga qanchalik mos kelishini sinchiklab tahlil qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xarajatlarni hisobga olishda “Direkt-kosting” tizimi, uning asosiy xususiyatlari va prinsiplari, mazkur tizimning tarkibiy elementlari, “Direkt-kosting”ning afzalliklari hamda cheklovlari,

xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qo'llanilishi, to'la tannarx tushunchasi, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, shuningdek o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xarajatlarni boshqarishda "Direkt-kosting" tizimining nazariy asoslari va uning konseptual mohiyatini tavsiflang.

2. "Direkt-kosting" modelining boshqa an'anaviy xarajatlar hisobi tizimlari bilan o'zaro o'xshashliklari va tub farqlarini qiyosiy tahlil qiling.

3. "Direkt-kosting" tizimini yaxlit mexanizm sifatida tashkil etuvchi asosiy tarkibiy unsurlar va komponentlarni sanab o'ting.

4. "Direkt-kosting" tizimning markaziy ko'rsatkichi hisoblangan "hissa marjasi" (marginal foyda) tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uning ahamiyatini tushuntiring.

5. Operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda "Direkt-kosting" tizimidan foydalanishning asosiy afzalliklari nimalardan iborat?

6. "Direkt-kosting" uslubini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan cheklovlar va tizimning ehtimoliy kamchiliklarini yoritib bering.

7. "Direkt-kosting" tizimi doirasida turli xarajat moddalari bo'yicha yuzaga keladigan chetlanishlarni turkumlash (klassifikatsiya qilish) tartibini bayon qiling.

8. "Direkt-kosting" metodologiyasi asosida xarajatlarni tizimli hisobga olish va ularni guruhlash mexanizmini izohlang.

XI BOB. ILG'OR BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH

11.1. Ilg'or boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari

Korxonalarning moliyaviy-xo'jalik ishlarida boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish markaziy o'rinni egallaydi. Bu jarayon mutaxassisdan yuksak malaka hamda boy amaliy tajribani talab etadi. Dastlab, tashkilot oldidagi strategik maqsadlar va asosiy vazifalar aniq belgilab olinishi lozim.

Qaror qabul qilish deganda, rahbarning o'z vakolatlari doirasida mavjud imkoniyatlardan foydalanib, qo'yilgan maqsadga erishish uchun eng samarali va maqbul variantni tanlashi tushuniladi.

Amal qilish muddatiga qarab, ushbu qarorlar uzoq muddatli (strategik) va tezkor (qisqa muddatli) turlarga ajratiladi.

Strategik qarorlar korxonaning uzoq istiqboldagi rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Bunday qarorlar yuqori bo'g'in rahbariyati tomonidan kelajakdagi o'sish va barqarorlikni ta'minlash maqsadida qabul qilinadi.

Qisqa muddatli yoki tezkor qarorlar joriy ishlarni tashkil etish, kadrlar siyosatini yuritish va rejali ko'rsatkichlarni bajarishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida qabul qilinayotgan har bir qaror ishonchli hamda iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi shart. Shu sababli, boshqaruv qarorlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- aniq yo'nalishga ega bo'lishi va korxonaning umumiy manfaatlarini, foydasini ko'zda tutishi lozim;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslanishi shart. Bunda moliyaviy tahlil natijalari, iqtisodiy salohiyat va fan-texnika yutuqlari to'liq inobatga olinishi kerak;
- aniq muddatlarda qabul qilinishi va amalga oshirilishi. Ijro muddatining belgilanishi qarorning sifatli bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi;

- tezkor (operativ) bo'lishi. Bozor konyunkturasi va korxonadagi ichki o'zgarishlarga qarab, qarorlar o'z vaqtida qabul qilinishi zarur;
- yuqori iqtisodiy natijadorlikka ega bo'lishi. Samarasiz va ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'ymasdan, maksimal foyda olishga xizmat qilishi kerak.

Shuningdek, xodimlarning shaxsiy manfaatlarini korxoning umumiy maqsadlari bilan uyg'unlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va subyektning texnik-iqtisodiy salohiyatini doimiy tahlil qilib borish ham muhimdir.

Bu esa tashkilotlardan zamonaviy bozor talablariga javob beradigan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqazo etadi. Bunday tizimlar korxoning raqobatbardoshligini va bozordagi barqaror mavqeini ta'minlashi lozim. Ushbu vazifalarni zamonaviy menejment tamoyillarini o'zlashtirmasdan turib amalga oshirish nihoyatda murakkabdir.

Boshqaruv amaliyoti turli jarayonlarni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Dastlab A. Fayol tomonidan rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik (farmoyish berish), muvofiqlashtirish va nazorat kabi funksiyalar asoslab berilgan edi. Vaqt o'tishi bilan boshqaruv tizimi rivojlanib, bu ro'yxatga motivatsiya, aloqa (kommunikatsiya), baholash va qaror qabul qilish kabi yangi elementlar qo'shildi.

Hozirgi zamon menejmentining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- ishlab chiqarish va biznes samaradorligini oshirib, ko'zlangan pirovard natijaga erishishga intilish;
- tashqi muhitdagi o'zgarishlarga qarab maqsad va dasturlarga muntazam tuzatish kiritib borish;
- rejalashtirish jarayonida uzoq muddatli istiqbolga ko'proq urg'u berish;
- qarorlarni ko'p variantli asosda tanlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish;
- xo'jalik subyekti faoliyatini boshqarishga barcha xodimlarni jalb etish va jamoaviy muhitni yaratish;

- boshqaruv jarayonidagi o'zgarishlarni tahlil qilish orqali moslashuvchan qarorlar qabul qilish;

- boshqaruvning barcha bo'g'inlarida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish.

Samarali boshqaruv — xodimlarning korxona maqsadlari yo'lida mavjud huquqiy va iqtisodiy sharoitlardan foydalangan holda birgalikda harakat qilishini tashkil etadi. Korxonani resurslar, jarayon va tayyor mahsulotdan iborat yaxlit tizim deb hisoblasak, boshqaruv bo'g'ini axborotlarni qayta ishlash orqali tizimni harakatga keltiruvchi qarorlarni shakllantiradi.

Ta'kidlash joizki, boshqaruvning natijadorligi quyidagi omillarga bevosita bog'liq:

- aniq belgilangan maqsadning mavjudligi;

- ichki va tashqi aloqalarni mustahkamlovchi muvofiqlashtirish tizimining samaradorligi;

- barcha ichki jarayonlarning o'z-o'zini tartibga solish tamoyili asosida yuritilishi;

- tashkilotning boshqa subyektlardan ajralib turuvchi o'ziga xos chegarasi;

- kuchli tashkiliy madaniyatning shakllanganligi.

Innovatsion iqtisodiyotda menejment korxonalarining barqaror o'sishini va ularni istiqbolli rivojlantirishni ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan biridir.

Makroiqtisodiy darajada xo'jalik subyektlarining samarali rivojlanishi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- birinchidan, aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga yo'l ochadi;

- ikkinchidan, yalpi ichki mahsulotning (YIM) o'sishi orqali umumiy iqtisodiy yuksalishni ta'minlaydi;


- uchinchidan, aholi yashash darajasi va farovonligini oshiradi;

- to'rtinchidan, mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashadi.

Mikroiqtisodiy nuqtai nazardan esa, korxonaning foydasi ortishi xodimlar daromadi ko'payishiga, investitsiyalar oqimiga va

innovatsion yangilanishlarga zamin yaratadi. Natijada xaridorlarning talablari yuqori darajada qondirilib boriladi.

Amaliyotda, ko'pchilik hollarda qabul qilinadigan qarorlar tor doiraga ega bo'lib, xo'jalik subyektini istiqbolli rivojlantirish yo'nalishlari va tamoyillarini ifodalay olmaydi. Bu holat esa xo'jalik subyektlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishning aniq bosqichlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. (11.1-rasm).



11.1-rasm. Xo'jalik subyektlarida boshqaruv qarorlari qabul qilishning asosiy bosqichlari

Boshqaruv qarorlarini shakllantirishning ilk pallasida korxona tarkibiy bo'linmalari faoliyatida yuzaga kelgan kamchilik va to'siqlarni diagnostika qilishga urg'u beriladi. Mazkur bosqichda mas'ul buxgalter mutaxassis tomonidan aniqlangan muammolarni bartaraf etishning konseptual yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

Masalaning muqobil yechimlari shakllantirilgach, buxgalter har bir variantni sarf-xarajatlar darajasi, resurslarni tejash salohiyati hamda kutilayotgan moliyaviy natijalarga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha tahlildan o'tkazadi. Qaror qabul qilish jarayonining har bir bosqichida turli ko'rinishdagi buxgalteriya ma'lumotlaridan tizimli foydalaniladi.

Boshqaruv hisobi doirasida asosli xulosalarga kelish uchun muammolar yechimida ko'p variantlilik prinsipiga tayaniladi. Agarda muhokama etilayotgan masalaning ikki yoki undan ko'p yechimi mavjud bo'lsa, ular ichidan iqtisodiy jihatdan eng

samaradorini saralab olish tizimning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Baqqbul yo'lni tanlash bosqichida menejerlar tomonidan boshqaruv natijadorligini xolis baholashga alohida e'tibor qaratiladi.

Masalani hal qilish uchun barcha zaruriy ma'lumotlar to'plangandan so'ng, rahbarlar taqqdim etilgan variantlar ichidan eng muvaffaqiyatlisini tasdiqlash imkoniga ega bo'ladilar.

Navbatdagi pallada buxgalteriya xodimi qabul qilingan qarorlarning amaldagi natijalarini sinchiklab tahlil qiladi hamda o'zining yakuniy xulosalarini korxona rahbariyatiga taqqdim etadi.

Agarda ko'rilgan choralar muammoni to'liq bartaraf etsa, qaror qabul qilish jarayoni yakuniga yetgan deb topiladi, aks holda yuqorida keltirilgan barcha bosqichlar qaytadan amalga oshiriladi.

11.2. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish

Raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarish korxonasi rahbari samarali va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

"Sarflar – ishlab chiqarish hajmi – daromad" (CVP) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili menejerlar uchun faoliyatning zarar ko'rmaslik darajasini belgilashda asosiy qurol hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tahliliy tizim yordamida mutaxassislar — buxgalterlar, auditor va ekspertlar — tashkilotning moliyaviy natijalarini xolis baholash hamda ularni optimallashtirish bo'yicha muhim tavsiyalar ishlab chiqadilar.

Zararsizlik nuqtasi (kritik nuqta) – bu subyektning barcha sarflarini olingan daromadlari hisobidan to'liq qoplash bosqichi bo'lib, u moliyaviy holatni aniqlashning sodda va ishonchli usulidir.

Mahsulot narxlari, korxona chiqimlari hamda sotuv hajmi va nomenklaturasi bo'yicha chiqarilgan har bir qaror tashkilotning yakuniy moliyaviy ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi.

"Xarajatlar – ishlab chiqarish hajmi – foyda" tahlili quyidagi imkoniyatlarni taqqdim etadi:

- Ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va monitoring qilish;

- Sarf-xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va daromadlar o'rtasidagi aloqadorlik natijasida chiqimlarning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash;

- Rahbariyatga qisqa muddatli operativ boshqaruv qarorlarini shakllantirishda ko'maklashish;

- Korxonaning istiqbolli taraqqiyotini ta'minlovchi muqobil variantlar orasidan eng foydalisini tanlash va hokazo.

CVP tahlili metodikasi nafaqat kichik biznesda, balki yirik ishlab chiqarish birlashmalarida ham ishonchli boshqaruv qarorlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tizim doirasida xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni va moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi ko'p sonli omillar tadqiq etiladi. Bu esa menejerlardan sotish baholari, o'zgarmas va o'zgaruvchan sarflar hamda resurslarni optimallashtirish bo'yicha uzluksiz qarorlar qabul qilishni taqozo etadi.

CVP tahlili tizimi marjinal daromad, rentabellik chegarasi (zararsizlik nuqtasi), operatsion richag (dastak) va moliyaviy barqarorlikning marjinal zaxirasi kabi muhim tarkibiy qismlardan shakllanadi.

Marjinal daromad (yalpi marja) — bu mahsulot yoki xizmatlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum va ularning o'zgaruvchan tannarxi o'rtasidagi ijobiy farqdir.

Barcha chiqimlarni (doimiy va o'zgaruvchan) qoplay oladigan tushum miqdorini aniqlashda marjinal foyda hajmi va uning koeffitsiyenti ko'rsatkichlariga tayaniladi.

Marjinal daromad — bu korxonaning doimiy chiqimlarini qoplash va kutilayotgan foydani shakllantirishdagi hissasidir. Uni hisoblashning ikki xil yondashuvi mavjud:

- birinchi usulga ko'ra, mahsulot sotuvidan tushgan tushumdan jami o'zgaruvchan xarajatlar ayriladi;

- ikkinchi usulga binoan, marjinal daromad o'zgarmas xarajatlar va sof foyda summasini qo'shish orqali aniqlanadi.

Birlik mahsulot bo'yicha marjinal daromad (o'rtacha hajm) deganda, tovar narxi va uning o'rtacha o'zgaruvchan sarflari o'rtasidagi tafovut nazarda tutiladi. Ushbu ko'rsatkich doimiy chiqimlarni qoplashdagi ulushni va kutilayotgan foydani ifodalaydi.

Marjinal daromad koeffitsiyenti — bu jami tushumdagi marjinal foydaning salmog'i yoki mahsulot narxi tarkibidagi marjinal daromadning o'rtacha ulushidir.

CVP tahlilining fundamental sharti xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan turlarga klassifikatsiya qilishdir. O'zgarmas sarflar ishlab chiqarish ko'lamiga bog'liq emas, o'zgaruvchan sarflar esa ishlab chiqarish va sotuv dinamikasiga mutanosib ravishda o'zgaradi. Shu sababli, zararsizlik nuqtasini aniq belgilashda mahsulotni zararsiz realizatsiya qilish koeffitsiyenti ko'rsatkichidan foydalanish yuqori natija beradi.

U quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_z = \frac{M_z}{M_f}$$

bu yerda,

M_z - mahsulotni zararsiz sotish koeffitsiyenti;

M_z - mahsulotni zararsiz sotish hajmi;

M_f - mahsulotni foydali sotish hajmi.

Quyida mahsulotni zararsiz sotish koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$K_z = \frac{6250}{7500} = 0,83$$

Bu koeffitsiyent yordamida mahsulot sotish hajmiga bog'liq zararsizlik ko'rsatkichini aniqlaymiz.

1. Mahsulot sotish hajmini qiymat ko'rinishida aniqlaymiz.

$$1500000 \times 0,83 = 1245000 \text{ so'm}$$

2. Mahsulotni zararsiz narxini belgilaymiz.

$$100 \times 0,83 = 83 \text{ ming so'm}$$

3. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarni aniqlaymiz.

$$60 \times 0,83 = 49,8 \text{ ming so'm}$$

4. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan marjinal daromad summasini aniqlaymiz.

$$40 \times 0,83 = 33,2 \text{ ming so'm}$$

SVR - tahlil tizimi hisob-kitoblarni soddalashtiradi va ularning mehnat talabliligini kamaytiradi, shuningdek, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishga imkon beradi.

SVR - tahlili amaliyotda goho zararsizlik nuqtasi tahlili deb ham yuritiladi.

Zararsizlik nuqtasi (yoki rentabellik chegarasi) korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonidagi shunday holatidirki, bunda olingan tushum jami sarf-xarajatlarga to'la teng bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich korxonaning na foyda va na zarar ko'radigan sotuvlar hajmini ifodalaydi.

Ushbu holat iqtisodiy tahlilda ko'pincha "Muvozanat" yoki "Xatarli" nuqta deb yuritiladi. Xalqaro adabiyotlarda u BEP ("Break-even point") qisqartmasi bilan belgilanib, o'zbek tilida rentabellik ostonasi yoki kritik nuqta deb ham ataladi.


Boshqaruv hisobi tizimida mazkur rentabellik ostonasini aniqlash uchun grafik chizish, matematik tenglamalar tuzish va marjinal daromad tahlili kabi turli uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi.

Grafikda aks etgan zararsizlik nuqtasiga muvofiq keladigan tushum miqdori ostonaviy tushum, mahsulot miqdori esa ostonaviy ishlab chiqarish hajmi deb yuritiladi. Agarda korxona realizatsiya hajmini ushbu ostonadan past darajada saqlasa, u zarar ko'rishni boshlaydi; ostonadan yuqori hajmdagi sotuvlar esa korxonaga sof foyda keltira boshlaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi va yalpi foyda chizmasini tasvirlashda turli darajadagi ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Zararsizlik nuqtasi chizmasi bo'yicha foyda va zararlar o'rtasidagi oqilona nisbatni aniqlash uchun jami xarajatlar va daromadlar chiziqlari orasidagi masofa aniqlanadi. Bunda foydaning oshishiga mahsulot hajmini o'zgarishi ta'sirini aniqlashda qulay

usullardan biri foyda va mahsulot hajmi chizmasi hisoblanadi (11.2-rasm).

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, gorizontal o'q ishlab chiqarish va sotish hajmini, vertikal o'q esa hisobot davridagi foyda va zararlarni aks ettirgan. Agar sotish hajmi nolga teng bo'lsa, unda maksimal zararlarni doimiy xarajatlar summasiga teng bo'lishi shart, chunki korxonaning zararlari uning doimiy xarajatlari summasidan oshib ketmasligi lozim.



11.2-rasm. Foyda va mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik

Mahsulot birligini realizatsiya qilish natijasida o'zgarmas chiqimlardan tashqari 10 000 so'm miqdorida hissa marjasi (marjinal foyda) shakllanadi. Foyda va zararlarni oralig'i 10 000 so'm qilib belgilangani bois, sotuv hajmi 6 000 donaga yetgan nuqtada jami marjinal foyda o'zgarmas xarajatlar yig'indisini to'liq qoplaydi (zararsizlik nuqtasi).

Mazkur 6 000 donalik ostonadan so'ng realizatsiya qilingan har bir keyingi birlik korxonaga 10 000 so'mdan qo'shimcha daromad keltira boshlaydi. Binobarin, sotuv hajmi 10 000 donaga yetganda, foydaning umumiy miqdori 400 000 000 so'mni (ya'ni 40 000 so'm x 10 000 dona) tashkil qiladi. Realizatsiya ko'lami hamda foyda o'rtasidagi ushbu mutanosiblik grafik chizmasida punktir chiziqlar orqali ifodalangan.

Boshqaruv hisobi tizimida ishlab chiqarish salohiyati (quvvati) texnik vositalarning bekor turishi, texnik xizmat ko'rsatish vaqtlari va ishlab chiqarishdagi uzilishlar bilan bog'liq holda baholanadi. Bunda ideal (optimal) va amaliy (real) quvvat darajalari farqlanadi. Ideal quvvat — uskunalarning maksimal unumdorlik bilan uzluksiz ishlashini anglatadi. Amaliy quvvat esa jihozlarning o'rtacha ish sharoitidagi (normal) unumdorlik darajasidir. Ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi tafovut nazariy quvvat yoki zaxira imkoniyati deb ataladi.

Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish hajmi va o'zgaruvchan sarflar o'rtasida ko'pincha chiziqli (proporsional) bog'liqlik kuzatiladi. Biroq amaliyotda barcha o'zgaruvchan xarajatlar ham quvvat o'zgarishiga nisbatan to'g'ri chiziqli bog'liqlikda bo'lavermaydi. Shuning uchun ularni rejalashtirish yoki tahliliy boshqaruv qarorlari uchun qo'llashda o'ziga xos yondashuv talab etiladi.

Relevant daromad va xarajatlar deganda, o'tmishdagi emas, balki kelajakda kutilayotgan va aynan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari natijasida o'zgarishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar tushuniladi.

Ushbu elementlarni tan olishning ikkita asosiy sharti mavjud:

1) Agarda daromad va xarajatlar istiqboldagi boshqaruv qarorlari ta'sirida o'zgarishi kutilsa, ular relevant hisoblanadi;

2) Daromad va xarajatlar miqdori turli muqobil variantlar tanlanganda farq qilsa, ya'ni qarorga bevosita bog'liq bo'lsa, ular relevant deyiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, allaqachon amalga oshirilgan (o'tmishdagi) xarajatlar va olingan daromadlar relevant bo'la

olmaydi. Chunki qanday qaror qabul qilinishidan qat'i nazar, ularning miqdorini qayta o'zgartirishning imkoni yo'q.

11.3. Xo'jalik subyektida investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Investitsiya faoliyati deganda, subyekt tomonidan mavjud resurslarning (mablag'lar, qimmatli qog'ozlar, intellektual salohiyat, kreditlar, yer va ko'chmas mulk) foyda olish yoki ijtimoiy natijaga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilishi tushuniladi.

Real (ishlab chiqarish) investitsiyalari kapitalning amaliy o'sishini ta'minlashga, ya'ni ishlab chiqarish qurollari, aylanma aktivlar qiymatini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (R&D) ishlanmalarini rivojlantirishga qaratilgan chiqimlardir.

Moliyaviy yoki portfelli investitsiyalar esa qimmatli qog'ozlar hamda boshqa moliyaviy aktivlarga qilingan qo'yilmalarni ifodalaydi. Bunday sarflar moddiy bazani bevosita kengaytirmasada, qimmatli qog'ozlar kursi yoki valyuta tafovuti hisobiga subyektga qo'shimcha daromad keltirishi mumkin.

Sarmoyalarning yo'naltirilish muddatiga ko'ra investitsiyalar ikki turga — qisqa muddatli (bir yilgacha) hamda uzoq muddatli (bir yildan ortiq) guruhlariga bo'linadi.

Investitsiya faoliyati o'ziga xos murakkablikka ega, chunki qilingan sarflarning natijasi faqat kelajakda namoyon bo'ladi. Shu bois, korxonalar asosli qaror qabul qilish uchun loyihalarning iqtisodiy foydasini va kutilayotgan barcha xarajatlarni puxta tahlil qilishlari shart.

Investitsiya loyihasi — bu muayyan maqsadga yo'naltirilgan, puxta ishlab chiqilgan hamda amalga oshirilishi uchun kapital qo'yilmalarni talab etuvchi tizimli xarajatlar dasturidir.

Loyihani ro'yobga chiqarish uchun ikki muhim shart mavjud: yetarli miqdordagi mablag' sarfi va ushbu sarflarning o'zini oqlashi (foyda keltirishi) uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'ining mavjudligi.

Investitsiya loyihasini yaratish hamda hayotga tatbiq etish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini tanlash va uning ekologik-iqtisodiy jihatlarini dastlabki asoslash;
- bozor talabini o'rganish hamda loyiha ishtirokchilari tarkibini belgilash;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asosnomasini (TIA) ishlab chiqish;
- shartnomaviy-huquqiy bazani tayyorlash;
- tender savdolari va investorlar bilan muzokaralar olib borish;
- loyiha hujjatlarini to'liq tayyorlash;
- texnologik uskunalar yetkazib beruvchilarni saralash;
- qurilish va montaj ishlarini bajarish;
- obyektning sinovdan o'tkazish va belgilangan quvvatga yetkazish.

Loyihani amaliyotga joriy etish jarayoni ikki bosqichga ajratiladi:

Birinchi bosqichda loyihaning konsepsiyasi ishlab chiqiladi, dastlabki hisob-kitoblar qilinadi va eng maqbul variant iqtisodiy jihatdan asoslanadi.

Ikkinchi bosqich esa loyihani moliyalashtirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish va batafsil texnik-iqtisodiy asosnomani tayyorlashni ko'zda tutadi. Agar loyiha tijoriy xususiyatga ega bo'lsa, qo'shimcha ravishda biznes-reja ham ishlab chiqilishi shart.

Loyihani ijro etish — uni nazariyadan amaliyotga ko'chirish, muayyan iqtisodiy natijaga aylantirish va ko'zlangan barcha maqsadlarga erishishdir.

Investitsiya jarayoni amaliyotda uchta asosiy fazani o'z ichiga oladi va bu loyihaning to'liq hayotiy sikli deb ataladi.

Dastlabki (investitsiya oldi) fazasi loyihani tadqiq etish bosqichi bo'lib, u amalga oshirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingungacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Ikkinchi faza investitsiya fazasi deb yuritiladi. Bu bosqichda asosiy e'tibor sarmoyalarni to'g'ri taqsimlash va loyihada belgilangan ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga qaratiladi.

Ushbu fazada bino va inshootlar quriladi (ta'mirlanadi), jihozlar o'rnatiladi, infratuzilma yaratiladi hamda mahsulot tayyorlash jarayoni boshlanadi.

Loyiha ishga tushishi bilan investitsiya chiqimlari kamayib, olinadigan foyda hajmi ortib boradi. Bu holat tannarxni pasaytirib, sotuv ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Loyihaning foydalanish (operatsion) deb ataluvchi uchinchi fazasida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda amortizatsiya ajratmalaridan ham manba sifatida foydalaniladi. Bu bosqichda tushumning sarf-xarajatlardan oshishi hisobiga kapital qo'yilmalar to'liq qoplanadi va loyiha "o'zini oqlash" nuqtasiga yetadi.

Loyihani tayyorlash va amalga oshirish davrida uning moliyaviy holati muntazam baholanadi. Bunda investitsiyalarning qaytimi va loyihaning qoplanish darajasi kabi ko'rsatkichlar asosiy mezon hisoblanadi.

Mablag'lar cheklanganligi sababli investitsiya manbalaridan oqilona foydalanish zarurati doimo mavjud. Subyekt har bir sarflangan birlik sarmoyadan maksimal darajadagi iqtisodiy samara olishga intiladi.

Investitsiya samaradorligini o'rganishda "iqtisodiy samara" hamda "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari o'rtasidagi tafovutlarni bilish muhimdir.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi sarmoya qilingan kapitalga nisbatan olingan foyda (kapital qaytimi) darajasi bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy loyiha asosida amalga oshirilgan investitsiyalarning samaradorligi (I_s) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_s = \frac{F}{I_k}$$

bu yerda,

F - investitsiya natijasida olingan foyda.

Ushbu holatda investitsiya samaradorligi bir birlikdan ortiq bo'lishi kerak, shundagina qilingan xarajatlar qoplanadi. Xalqaro amaliyotda investitsiyalarning rentabelligi yillik balans foydasini (F) jami avanslangan kapitalga nisbati bilan aniqlanadi:

$$I_r = \frac{F}{A_1 + A_2 + A_3 + A_4}$$

bu yerda,

I_r - avanslangan investitsiyalarning rentabelligi;

F - yillik balans foyda;

A_1, A_2, A_3, A_4 - choraklar bo'yicha avanslangan kapital qiymati.

Korxonalarining o'z mablag'larini kelgusida foiz stavkasi ko'rinishida foyda olish maqsadida joriy qiymatida vaqtinchalik investitsiyalash jarayoni diskontlash, uning natijasida hosil bo'lgan ko'rsatkich - diskontlangan qiymat deyiladi.

Xarajatlarni diskontlash koeffitsiyenti (D_k) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D_k = \frac{I_k}{P_{mo}}$$

bu yerda,

I_k - investitsiyalarning qiymati;

P_{mo} - yillik pul mablag'lari oqimi.

Investitsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun uzoq muddat talab qilinishi sababli mablag'larni investitsiyalash vaqtida pul mablag'larini ularning qaytimi bilan taqqoslash zaruriyati tug'iladi. Bu maqsadda pul mablag'larining kelgusi va haqiqiy qiymati tushunchalaridan foydalanish zarur.

11.4. Xo'jalik subyektida biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Korxonalarning tarkibiy tuzilmasini yangilash yuzasidan asosli boshqaruv qarorlarini shakllantirish, birinchi navbatda, mavjud

boshqaruv mexanizmlarining natijadorligini chuqur tahlil etishga tayanadi.

Raqobat muhiti kuchaygan bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlarni boshqarish sifatini yuksaltirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda korxonalarning moliya-xo'jalik ishlari turli ichki va tashqi omillar ta'siri ostida muttasil rivojlanib boradi. Binobarin, har bir tashkilot o'z ish uslubini bozor qonuniyatlariga mos ravishda tartibga solishi davr talabidir.


Mazkur ehtiyojlar xo'jalik yurituvchi subyektlardan iste'molchilar talablarini to'laqonli qondirishni, yuqori sifatli va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni hamda o'zgaruvchan tashqi muhitga tez moslashadigan, unumdorlikka xizmat qiluvchi innovatsion boshqaruv tizimini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Ishlab chiqarish unumdorligiga erishishda boshqaruv sifati markaziy ahamiyatga ega, boisi har qanday iqtisodiy munosabat yoki jarayon oqilona tartibga solishga muhtojdir. Iqtisodiy nuqtai nazardan boshqaruv samaradorligi deganda, eng avvalo, boshqaruv amaliyotining pirovard natijasi va kutilgan maqsadlarga erishish darajasi anglanadi.

Agar xo'jalik subyekti boshqaruv faoliyatining natijaviyligi xodimlar faoliyatining pirovard natijaviyligi bilan to'g'ri kelsa, boshqarishda murakkab, ko'p qirrali obyektни baholash bo'yicha to'liq (umumiy) yoki shaklan samaradorlik yuzaga keladi (11.3-rasm).

Natijadorlik ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha sifatida boshqaruvning barcha jabhalarini o'z ichiga oladi hamda iqtisodiy, tashkiliy va marketing kabi turli munosabatlarni qamrab oladi.

Boshqaruvning samarali bo'lishi shunchaki tizimning o'zi uchun emas, balki bevosita ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga xizmat qilishi shart. Bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, mazkur yaxlitlikda ishlab chiqarish jarayoni ustuvor e'tibor markazida bo'lishi lozim.




11.3-rasm. Xo'jalik subyektida boshqaruv samaradorligining turlari

Shu bilan birga, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ishlab chiqarishni, balki marketing tahlili, kadrlar siyosati va moliyaviy boshqaruv kabi yo'nalishlar unumdorligini ham yuksaltirish talab etiladi. Shu bois, boshqaruv samaradorligini tashkilotni yaxlit va barqaror tizim sifatida rivojlanishini ta'minlovchi oqilona harakatlar majmui deb tushunish zarur.

Korxona boshqaruvini baholashda metodologik mezonlar va aniq indikatorlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun boshqaruv tizimining umumiy natijadorligini chuqur tahlil qilish talab etiladi. O'tkaziladigan tadqiqotlar qanchalik mukammal va sifatli bo'lsa, boshqaruv sifatiga beriladigan xolis baho shunchalik aniq bo'ladi. Mazkur tahlil jarayonida aniqlangan mezon va ko'rsatkichlardan foydalanib boshqaruv samaradorligiga baho beriladi (11.4-rasm).

Keltirilgan chizmaga binoan, tahliliy model shartli ravishda uchta asosiy tarkibiy qismga ajratilgan:

I-blok — korxonaning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili (kadrlar salohiyati, moddiy-texnik baza, axborot resurslari va h.k.);



11.4-rasm. Boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish modeli

II-blok — boshqaruvning tashkiliy tuzilishi hamda boshqaruv jarayonlarining borishi tahlili;

III-blok — bevosita ishlab chiqarish bo'linmalarining faoliyati va hisob tizimining joriy holati tahlili.

Ushbu tahliliy yo'nalishlar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikning ta'minlanishi boshqaruv tizimi natijadorligini xolis va ishonchli baholash imkonini beradi.

Shuni yodda tutish lozimki, muayyan subyektning boshqaruv samaradorligini tahlil qilishda uning tarmoq xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Masalan, agrosanoat

tarmog'idagi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ishlab chiqarishning quyidagi o'ziga xos jihatlari xarakterlidir:

1. Subyektlarning davlat iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etishi;

2. Ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlariga xos xususiyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi. Chunonchi, sanoat uslubidagi ishlab chiqarishda bo'lgani kabi, mahsulot tannarxida xomashyo ulushining yuqoriligi (moddiy sig'imning kattaligi);

3. Korxona faoliyati natijalariga tabiiy-iqlimiy omillarning bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatishi.

Xo'jalik subyektlarida boshqaruv natijadorligini belgilovchi asosiy mezonlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori darajadagi unumdorligi;

- bozordagi egallangan ulushning muttasil ortib borishi;

- sarf-xarajatlarning maqbul darajada saqlanishi;

- tashqi muhit omillari bilan samarali muloqotning yo'lga qo'yilganligi;

- boshqaruv qarorlarining asosli, to'g'ri va tezkor qabul qilinishi;

- tizimning o'z-o'zini tartibga solish hamda takomillashtirish salohiyati.

Bu mezonlardan kelib chiqib boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini quyidagicha asoslash mumkin (11.1-jadval):

11.1-jadval

Xo'jalik subyektlarida boshqaruv samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi

T. r	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar hisob-kitobi	Tarkibiy ko'rsatkichlarning izohi
1.	Boshqaruv faoliyatining iqtisodiy samaradorligi (K_{is})	$K_{is} = \frac{D}{X_{is}}$	D - yillik daromad; X_{is} - mahsulotni ishlab chiqarish va sotishga sarflangan bir yillik xarajatlar

2.	Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi (K_t)	$K_t = \frac{I_d}{A_o}$	I_d - ishlab chiqarish davrining davomiyligi; A_o - aylanma mablag'lar oborotining davomiyligi.
3.	Ishlab chiqarish va sotish rentabelligi (K_r)	$K_r = \frac{F_s}{S_x}$	F_s - sof foyda; S_x - mahsulotni sotish hajmi.
4.	Kapitalni manevrlik darajasi (K_m)	$K_m = \frac{K_{\text{av}}}{K_a}$	K_{av} - aylanma mablag'lar summasi; K_a - o'zining kapitalini o'rtacha yillik kapitalidagi ulushi.
5.	Amortizatsiya ajratmalarining jam'arilishi (K_i)	$K_i = \frac{AF_b}{A}$	AF_b - asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati; A - amortizatsiya ajratmalari summasi.
6.	Mahsulot rentabelligi (K_{mx})	$K_{mx} = \frac{T}{X}$	T - mahsulot sotishdan olingan tushum; X - mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar.
7.	Aksioner kapitalidan foydalanish samaradorligi. Bitta aksiyaning qiymati (K_a)	$K_a = \frac{K_{ch}}{S_a}$	K_{ch} - muomalaga chiqarilgan aksiyalarning qiymati; S_a - sotilgan aksiyalarning qiymati.

Ushbu ko'rsatkichlar xo'jalik subyekting nafaqat ichki samaradorligi, balki tashqi samaradorligini ham o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, xo'jalik subyektlarida boshqaruv samaradorligini haqqoniy baholash quyidagi tamoyillarni hisobga olishni taqozo qiladi:

- tezkorlik hamda boshqaruv jarayoni maqsad va vazifalarini bozor iqtisodiyoti talablarini e'tiborga olgan holda amalga oshirish;
- foydalilik va boshqaruvning tashkiliyligi ya'ni ishlab chiqarish hamda korxona boshqaruvining o'zaro muvofiqligini ta'minlash;

– tejamkorlik yoki natijaviylik ya'ni boshqaruvni imkon darajada kam mehnat, moddiy va moliyaviy xarajatlar sarflash orqali tashkil etish.

11-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Mazkur bo'limda xo'jalik yurituvchi subyektlarni operativ boshqarishga doir zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar va qisqa muddatli qarorlar qabul qilish jarayonlari tadqiq etildi. Rahbarlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan samarali qaror qabul qilish tamoyillari, uslubiy yo'l-yo'riqlar hamda strategik yondashuvlar atroflicha bayon etildi.

Boshqaruv hisobining fundamental vazifalaridan biri — rahbariyatni tayyorlanayotgan mahsulot yoki xizmatlarning real tannarxi haqidagi axborotlar bilan muntazam ta'minlashdan iboratdir. Ushbu ma'lumotlar narx shakllanishi, moddiy zaxiralarni baholash, joriy rejalashtirish va monitoring jarayonlari uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, turli biznes jarayonlarida aniq va asosli qarorlar qabul qilish maqsadida xarajatlar dinamikasiga oid maxsus tahliliy ko'rsatkichlar uzluksiz yetkazib beriladi.

Shu bilan birga, boshqaruv tizimida muhim o'rin tutuvchi "relevantlilik" tushunchasining mazmun-mohiyati o'rganilib, muqobil variantlar orasidan eng unumdorini tanlab olishda relevant yondashuvning o'rni va ahamiyati keng yoritildi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv tizimi bilan bog'liq xarajatlar, "xarajatlar – mahsulot hajmi – foyda" o'zaro bog'liqligi, zararsizlik darajasi, marjinal daromad tushunchasi, ishlab chiqarish dastagi va marjinal xavfsizlik zaxirasi, CVP-tahlil usuli, iqtisodiy hamda boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari, investitsiya loyihalari va investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Korxona ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda "Xarajatlar – hajm – foyda" (CVP) tahlilining tutgan o'рни va strategik ahamiyatini yoritib bering.

2. CVP tahlili mexanizmini tashkil etuvchi asosiy elementlar va tahliliy ko'rsatkichlar tizimini sanab o'ting.

3. Zararsizlik nuqtasi (kritik nuqta) tushunchasining iqtisodiy mazmuni hamda uni aniqlash metodikasini tushuntiring.

4. Hissa marjasini (marjinal daromadni) hisoblashda qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlarni ko'rsating.

5. Moliyaviy barqarorlik (chidamlilik) zaxirasining iqtisodiy mohiyati va uning korxona xavfsizligidagi rolini izohlang.

6. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda operatsion (ishlab chiqarish) dastagi mexanizmini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.

7. Ishlab chiqarish dastagi darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinantlarni tahlil qiling.

8. "Iqtisodiy samara" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari o'rtasidagi fundamental farqlarni va ularning o'zaro bog'liqligini tushuntiring.

9. Investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyati va ushbu jarayonning asosiy ishtirokchilari (subyektlari) haqida ma'lumot bering.

10. Investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etishning mantiqiy bosqichlari va loyiha siklini yoritib bering.

11. Investitsion loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladigan mezonlar va ko'rsatkichlarni sanang.

12. Xo'jalik subyektlarida biznes jarayonlarini boshqarish samaradorligini belgilovchi ichki va tashqi omillarni tahlil qiling.

13. Korxonaning boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qilish va baholash modellarining mazmunini tushuntiring.

14. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv faoliyati natijadorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini izohlang.

XII BOB. BOSHQARUV HISOBIDA REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISH

12.1. Xo'jalik subyektida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va rejalashtirish

Boshqaruv hisobining ustuvor yo'nalishlaridan biri xo'jalik subyektida ishlab chiqarish jarayonlarini tizimli tashkil etish hamda loyihalashtirish hisoblanadi. Korxonani boshqarishda nazorat mexanizmi qanchalik zarur bo'lsa, rejalashtirish ham shunchalik salmoqli funksiyani bajaradi. Rejalashtirish — bu muayyan vazifalarni bajarish uchun kelajakda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni oldindan belgilab olish jarayonidir.

Ishlab chiqarishni tizimlashtirish va rejalashtirish xomashyoni tayyor mahsulot yoki xizmatga aylantirish uchun zarur bo'lgan resurslar, faoliyatlar va jarayonlarni tartibga solishni anglatadi. Bu jarayon ishlab chiqarish tizimlarini loyihalash, ish unumdorligini optimallashtirish va samaradorlikka erishish uchun resurslarni oqilona taqsimlashni qamrab oladi.

Aksariyat hollarda, boshqaruv qarorlari asosidagi rejalar ishlab chiqarish dasturlarini tayyorlash jarayonida shakllantiriladi va byudjetlarni ishlab chiqish bosqichida mazmunan yanada aniqlashtiriladi.

Byudjetlarni tayyorlash davrida alohida faoliyat turlari o'zaro muvofiqlashtiriladi, natijada barcha bo'linmalar korxonaning umumiy strategiyasidan kelib chiqib, hamjihatlikda harakat qiladi. Bunda ishlab chiqarish dasturini marketing rejasi bilan bog'lash, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini kutilayotgan sotuvlar va tayyor mahsulot zaxiralari bilan qiyoslash asosiy talablardan sanaladi. Materiallar xaridini rejalashtirishda esa ishlab chiqarish byudjetida aks etgan mahsulotga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilinadi.

Ishlab chiqilgan rejaviy ko'rsatkichlar barcha ijrochilar ularning shartlari bilan to'liq tanishib chiqmaguncha amaliyotga tatbiq etilmasligi lozim.

Rejalar odatda quyidagi tarkibiy qismlardan shakllanadi:

- ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot (tovar, xizmat) miqdori;

- jarayonda ishtirok etuvchi xodimlar, qo'llaniladigan metodlar va texnik jihozlar haqidagi ma'lumotlar;

- xarid qilinadigan xomashyo va ashyolar hajmi;

- sotuv narxlarini belgilash tartibi va kelgusidagi cheklovlar.

Mazkur ma'lumotlar reklama, servis xizmati, ma'muriy xarajatlar va mehnatga haq to'lash sarflarini rejalashtirish hamda mahsulot sifatini tizimli boshqarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni unumli rejalashtirishga F.Teylning ilmiy boshqaruv tamoyillari poydevor bo'lib xizmat qilgan. U jarayonlarni standartlashtirish, vaqt sarfini o'rganish va mehnat taqsimotini samaradorlik asosi deb hisoblagan. Boshqaruv nazoratini ta'minlashda muhim bo'lgan rejalashtirish quyidagi mezonlarga tayanadi:

- subyekt strategiyasini hayotga tatbiq etish uchun o'rta va uzoq muddatli maxsus dasturlar ishlab chiqish;

- zaruriy byudjet hamda smetalarni shakllantirish (bu rejalarining asosli bo'lishini va yetarli mablag'lar bilan ta'minlanganligini belgilaydi).

Xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarishni rejalashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Talab darajasini prognoz qilish

2. Imkoniyat va quvvatlarni rejalashtirish

3. Asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalashtirish

Odatda, rejalashtirish jarayoni muddatiga ko'ra uzoq, o'rta va qisqa muddatli, qo'yilgan maqsadiga ko'ra esa operativ, taktik va strategik turlarga ajratiladi.

Tezkor yoki qisqa muddatli rejalashtirish bir yilgacha bo'lgan davrni (kun, hafta, oy, chorak) qamrab oladi. Ushbu rejalar bosh dastur asosida tuzilib, aniq maqsadga ega bo'ladi. Ular korxonaning taktik vazifalarini, jumladan, ishlab chiqarish rejasi, ustama

xarajatlar rejasi hamda moddiy-texnika ta'minoti rejalarini ifodalaydi.

Taktik yoki o'rta muddatli rejalashtirish 3-5 yilga mo'ljallangan bo'lib, uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bunda korxona maqsadlarining resurslar bilan ta'minlanganligi tahlil qilinadi va turli moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosiblik o'rnatiladi.

Strategik yoki uzoq muddatli rejalashtirish doirasida korxonaning 5-10 yillik rivojlanish konsepsiyasi tayyorlanadi. Ushbu konsepsiya bozorda barqaror mavqega ega bo'lish, eksportni kengaytirish, to'lov qobiliyatini yaxshilash, foydani maksimallashtirish va rentabellikni oshirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Bu bosh rejalar bo'lib, ularga yangi texnologiyalarni tatbiq etish va yangi bozorlarni o'zlashtirish kabi masalalar kiritiladi.

Uzoq va o'rta muddatli rejalar korxona strategiyasini, qisqa muddatli rejalar esa uning taktikasini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Biznesni rejalashtirishda quyidagi fundamental tamoyillarga amal qilinadi:

- rejalashtirish jarayonining uzluksizligi;
- ko'p variantlilik (eng maqbul yo'lni tanlash imkoniyati);
- barcha xodimlarning jarayonga to'liq jalb etilishini ta'minlovchi ishtirok etishlilik.

Ishlab chiqarishni samarali rejalashtirish operatsion unumdorlikka erishish, mijozlar ehtiyojini qondirish, chiqimlarni kamaytirish va yakuniy foydani yanada oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

12.2. Xarajatlar va mahsulot tannarxini rejalashtirishning xususiyatlari

Raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti muhitida sarf-xarajatlarni rejalashtirish jarayoni chiqimlar tarkibini hamda mahsulot (ish,

xizmat)larning kutilayotgan tannarxini dastlabki tahlildan o'tkazish bilan boshlanadi.

Xarajatlarni prognozlash ishlab chiqarish siklida foydalaniladigan moddiy zaxiralarning qiymatini belgilash hamda kutilayotgan foyda miqdorini aniq hisoblashda yuqori natijadorlikni ta'minlaydi.

Xarajatlarni oldindan baholash mexanizmi bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Bu jarayon quyidagi omillarga tayanadi:

- ishlab chiqarish ko'lamini aniq belgilash;
- mahsulot tayyorlashning texnologik bosqichlari;
- xomashyo va materiallarni muqobil turlar bilan almashtirish variantlari;
- resurslar va tashqi servis xizmatlarining iqtisodiy jihatdan qulayligini tahlil qilish.

Ishlab chiqarish chiqimlari byudjetini shakllantirishda, asosan, smeta va normativ (me'yoriy) metodologiyalardan keng foydalaniladi.

Smeta uslubida korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalari rejalari umumlashtirilib, yaxlit xo'jalik subyekti miqyosidagi yig'ma xarajatlar rejasi tuziladi. Ushbu metod keng ommalashgan bo'lib, u kompleks rejalashtirish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari byudjetini tuzishda o'rnatilgan me'yorlarga asoslanadigan normativ usul ham muhim o'rin egallaydi.

Xalqaro amaliyotda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni rejalashtirishda me'yoriy usuldan keng foydalaniladi. Me'yoriy xarajatlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M_x = M_{mx} + M_{ms} + M_{ux}$$

bu yerda:

M_x - mahsulot birligini ishlab chiqarishning me'yoriy xarajatlari;

M_{mx} - me'yoriy moddiy xarajatlar;

M_{ms} - me'yoriy mehnat sarflari;

Mux - me'yoriy ustama xarajatlar.

Me'yoriy ustama xarajatlar me'yoriy bevosita mehnat xarajatlari bo'yicha foizlarda ifodalanadi. Me'yoriy mehnat xarajatlaridan ishchi kuchi xarajatlarini rejalashtirish maqsadida foydalaniladi, ularning hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{kx} = M_{mm} \times M_{ss}$$

bu yerda:

I_{kx} - ishchi kuchining rejalashtiriladigan xarajatlari;

M_{mm} - me'yorlashtirilgan mahsulot miqdori;

M_{ss} - mehnatga haq to'lash soatbay stavkalari (mukofotlarsiz).

Me'yoriy xarajatlardan chetlanishni baholash va quyidagi uning kelib chiqish sabablarini aniqlash zarur:

- bevosita va bilvosita xarajatlarni o'zgarishi, sotib olingan materiallar qiymatidagi chetlanishlar natijasida;

- mahsulot sifatini ta'minlashga sarflangan xarajatlar natijasida;

- me'yorlar va normativlarni o'zgarishlari natijasida;

- ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, talab, baho ta'siri yoki boshqa omillar natijasida.

Xarajatlarni dastlabki baholash tannarxi yuqori va foyda keltirmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni to'xtatish imkonini beradi.

Xarajatlarni baholashning so'nggi bosqichida rejalashtirish jarayoni standart mahsulot tayyorlash uchun barcha zaruriy xarajatlarni hisobga olishni nazarda tutadi, chunki yangi mahsulot ishlab chiqarish katta miqdordagi moddiy, mehnat va qo'shimcha xarajatlarni talab etadi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan taxminiy moddiy xarajatlar mahsulotlar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar moddiy xarajatlar normatividan va bozor baholaridan kelib chiqqan holda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$M_{tx} = T_{mmb} \times M_{xs}$$

bu yerda:

M_{tx} - taxminiy moddiy xarajatlar;

T_{mmb} - tovar-moddiy zaxiralarning bozor bahosi;

Mxs - moddiy xarajatlarning bir birligini me'yori.

Xodimlarning asosiy mehnat haqiga ketadigan taxminiy xarajatlar asosiy va qo'shimcha mehnat haqi, umumishlab chiqarish, ma'muriy-boshqarish, sotish xarajatlarini rejalashtirilgan ulushini qo'shib aniqlanadi.

Agar mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan taxminiy xarajatlar hajmi kutilgan foydadan oshib ketsa, bu holat mahsulotni iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh emasligini anglatadi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish choralari ko'rish talab qilinadi.

Mahsulotni alohida turlari tannarxini rejalashtirish xomashyo va materiallar, texnologik maqsadlar uchun foydalaniladigan yonilg'i va energiya, mehnat haqi xarajatlari me'yorlariga rioya etishni nazarda tutadi. Shuningdek, rejalashtirish bilvosita umumishlab chiqarish, davr xarajatlari va sotish xarajatlari me'yorlari uchun ham zarur.

Mahsulot tannarxi rejasini ishlab chiqishda texnik, tashkiliy va boshqa omillar hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish manbalari aniqlanadi.

Bunday holatda mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasi bo'yicha o'rtacha tannarx (T_0), mahsulot tannarxining haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farqni mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali topiladi:

$$T_y = \sum_{i=1}^n (T_1 - T_2) \cdot M$$

bu yerda:

T_1 - mahsulot birligining bazaviy tannarxi;

T_2 - mahsulot birligining rejalashtiriladigan tannarxi;

M - mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi.

Rejalashtirish jarayonida, odatda, jami va bir birlik mahsulot xarajatlarini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Shu maqsadda barcha xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'lish qabul qilingan.

Jami tannarx - bu mahsulotni yillik hajmini ishlab chiqarishga sarflangan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi, bir birlik

mahsulotni tannarxi - bu jami ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulotlar miqdoriga bo'lish orqali aniqlangan tannarxdir.

Umumiy sarf-xarajatlar o'zgarmas (doimiy) va o'zgaruvchan komponentlar yig'indisidan shakllanadi, mahsulot birligi tannarxi ham ushbu ikki turdagi chiqimlar asosida alohida hisob-kitob qilinadi. O'zgaruvchan sarflar bevosita moddiy va mehnat resurslari qiymatiga teng. O'zgarmas xarajatlar esa ma'muriy boshqaruv, realizatsiya chiqimlari, bino ijarasi, umumxo'jalik obyektlarining amortizatsiyasi hamda xodimlarning belgilangan ish haqini o'z ichiga oladi. Birlik mahsulotga to'g'ri keladigan chegaraviy (marginal) xarajatlarni aniqlash uchun joriy davrdagi jami chiqimlar miqdorini bazis davridagi ko'rsatkichlarga nisbatan tahlil qilish va uni ishlab chiqarish hajmiga muvofiqlashtirish talab etiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish ko'lamini kengayishi bilan umumiy tannarx miqdori oshib boradi. Biroq, mahsulot miqdori ortishi natijasida "masshtab samarasi" hisobiga birlik mahsulotning solishtirma tannarxi pasayishi kuzatiladi.

Rejalashtirish — monitoring va nazorat tizimi kabi boshqaruvning eng fundamental funksiyalaridan biri bo'lib, kelajakda amalga oshirilishi ko'zlangan harakatlar strategiyasini oldindan belgilash jarayonidir.

Amaliyotda ko'pincha biznes-rejalashtirish va ichki xo'jalik rejalashtirish tushunchalari o'zaro aralashtiriladi. Vaholanki, ular o'rtasida quyidagi fundamental tafovutlar mavjud:

1. Ichki xo'jalik rejalashtirishidan farqli o'laroq, biznes-rejalashtirish tashkilotning umumiy faoliyatini emas, balki aniq bir yo'nalishni yoki yangi loyihani amalga oshirish strategiyasini qamrab oladi. Biznes-reja ko'proq rivojlanishning strategik va taktik jihatlariga urg'u bersa, ichki xo'jalik rejalashtirishi korxonaning barcha joriy hamda istiqbolli jarayonlarini qamrab oladi.

2. Biznes-reja, odatda, aniq muddatga mo'ljallangan innovatsion loyihalar uchun tayyorlanadi va belgilangan maqsadga erishilgach, u yakunlanadi. Ichki xo'jalik rejalashtirishi esa korxonani boshqarish davomida uzluksiz davom etadigan siklik jarayon bo'lib, har yili

tegishli tuzatishlar bilan yangilab boriladi. Biznes-reja aniqroq va torroq chegaralarga ega bo'lsa, xo'jalik rejalari keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

3. Biznes-reja tadbirkorga yangi faoliyatni boshlash, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda ishonchli hamkorlar topish uchun zarurdir. Unda nafaqat ichki omillar, balki bank-moliya tizimidagi tavakkalchiliklar (risklar) ham chuqur tahlil qilinadi. Ichki xo'jalik rejalari ko'proq korxona ichki boshqaruvi uchun mo'ljallangan bo'lsa, biznes-rejalar investorlar va kreditorlarni jalb qilish uchun asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

4. Biznes-rejalar bevosita korxona oliy rahbariyati ishtirokida shakllantiriladi. Ichki xo'jalik rejalarini ishlab chiqish bilan esa asosan tajribali menejerlar va tarkibiy bo'linmalarning mutaxassisleri shug'ullanadilar.

Byudjetlashtirish rejalashtirish jarayonining eng batafsil bosqichi bo'lib, u tashkilotning bo'linmalari yoki faoliyat sohalari bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida alohida moliyaviy rejalar tayyorlashni anglatadi. Mazkur atama ba'zan korxonaning kelgusidagi barcha operatsiyalarini (daromad va xarajatlarni smetasini) tartibga soluvchi hamda ularning ijrosini nazorat qiluvchi yaxlit ichki moliyaviy boshqaruv tizimi sifatida ham talqin etiladi.

Rejalar vazifasiga ko'ra quyidagicha turkumlanadi:

1. Operativ rejalar — korxona maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan taktik harakatlar rejasi. Bular yillik yoki choraklik byudjetlar ko'rinishidagi qisqa muddatli hujjatlar bo'lib, ishlab chiqarish, ta'minot va umumiy xarajatlarni tartibga soladi.

2. Ma'muriy rejalar — tashkilotning tashkiliy tuzilmasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan rejalar. Ulardan maqsad — rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlaydigan samarali boshqaruv apparatini shakllantirishdir. Bu rejalar odatda o'rta muddatli bo'lib, har yili qayta ko'rib chiqiladi.

3. Strategik rejalar — biznesni rivojlantirishning hamda tashkilotning uzoq muddatli istiqbolini belgilovchi bosh dasturdir.

Korxona strategiyasi har kuni yangilanmaydi, balki bozorda yangi raqobatchi paydo bo'lganda, iste'molchilar talabi o'zgarganda yoki yangi texnologiyalar joriy etilgandagina transformatsiya qilinadi.

12.3. Xo'jalik subyekti faoliyatini rejalashtirishda byudjetlashtirish

Raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti muhitida xo'jalik subyektlari daromadlilik darajasini yuksaltirish uchun o'z faoliyatlarini istiqbolli rejalashtirishga ehtiyoj sezadilar. Ushbu jarayonning negizini byudjetlashtirish tizimi tashkil etadi.

Byudjetlashtirish boshqaruvning samarali metodlaridan biri bo'lib, quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- korxona va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatini kompleks tarzda loyihalashtiradi;
- istiqbolli byudjet loyihalarini tayyorlash uchun zamin yaratadi;
- ishlab chiqilgan biznes-rejalarning asosli ekanligini tasdiqlaydi;
- o'zgaruvchan ichki va tashqi salbiy omillarning ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

"Byudjet" tushunchasi keng ma'noda davlat miqyosidagi iqtisodiy siyosatni, ya'ni yalpi ichki mahsulotni taqsimlash orqali markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish hamda ulardan unumli foydalanishni anglatadi. Tor ma'noda esa, mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda "byudjetlashtirish" tushunchasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Buning sababi, korxonalarda rejalashtirish va nazorat tizimi uzoq vaqt davomida faqat biznes-rejalashtirish doirasi bilan cheklanib kelganidir.

Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xo'jalik subyekti doirasida bir qancha xususiy byudjetlar va ularni umumlashtiruvchi bosh byudjet shakllantiriladi. Korxona amaliyotida qo'llaniladigan ushbu hujjatlarning mazmun-mohiyati an'anaviy byudjet tizimiga yaqin bo'lganligi bois, ko'plab iqtisodchi olimlar ularni aynan shu nom bilan atashni taklif etadilar.

Byudjetlashtirish — bu korxonaning muayyan vaqt oralig'idagi moliyaviy-xo'jalik ishlarini rejalashtirish jarayonidir. Uning asosiy afzalligi moddiy, insoniy va moliyaviy resurslarni turli muddatlarga prognoz qilish, raqobatchilar strategiyasini baholash va bozor talabini chuqur o'rganishda namoyon bo'ladi. Bunda asosiy diqqat-e'tibor mahsulot va xizmatlar realizatsiyasidan kutilayotgan daromad (foyda) miqdorini aniqlashga qaratiladi.

Byudjetlashtirish tizimining bir qator ijobiy jihatlari mavjud:

- korxonaning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi jarayonlarni tizimlashtiradi;

- tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi;

- bo'linma rahbarlariga o'z funksional vazifalarini sifatli bajarishda ko'maklashadi;

- xodimlarning ichki tartib-qoidalarga rioya etish darajasini oshiradi;

- rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning amaldagi ijrosini baholash uchun mezon vazifasini o'taydi.

Byudjetlashtirish jarayoni doirasida quyidagi muhim vazifalar amalga oshiriladi:

- subyektning maqsadlariga erishishini kafolatlovchi xo'jalik operatsiyalarini rejalashtirish;

- barcha bo'g'indagi rahbarlarni o'zlariga birlashtirilgan mas'uliyat markazlari natijadorligi uchun rag'batlantirish;

- turli bo'limlar faoliyatini xodimlarning manfaatlarini inobatga olgan holda uyg'unlashtirish;

- joriy faoliyat ustidan doimiy monitoring o'rnatish va belgilangan reglamentlarga amal qilinishini nazorat qilish;

- menejerlar oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini xolis baholash;

- boshqaruv xodimlarining professional malakasini doimiy oshirib borish.

Ichki xo'jalik rejalarini shakllantirishda tadbirkorning bevosita ishtirok etishi nafaqat real strategik maqsadlarni belgilashga yo'l ochadi, balki kelajakdagi xarajatlar va kutilayotgan daromadlarni

o'zaro qiyoslash orqali biznes-loyihani amalga oshirishning eng mukammal shaklini tanlash imkonini beradi.

12.4. Xo'jalik subyekti ishlab chiqarish faoliyatida byudjet va uni tuzish tartibi

Byudjet — boshqaruv nazorati tizimidagi markaziy vosita bo'lib, barcha xo'jalik subyektlari byudjet (smeta) ishlab chiqish amaliyotidan foydalanadilar. Ko'pgina tashkilotlar foyda olish uchun mas'ul bo'lgan markazlar kesimida korxonaning rejalashtirilgan faoliyatini ifodalovchi foyda rejasini yillik byudjet sifatida qabul qiladilar. Shuningdek, foyda olishni maqsad qilmagan (notijorat) tashkilotlar ham o'z faoliyatini rejalashtirishda byudjet (smeta) tizimiga tayanadilar.

Byudjet — rejalashtirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgunga qadar shakllantiriladigan moliyaviy hujjatdir. Uni ko'pincha moliyaviy harakatlar rejasi deb ham yuritishadi. "Byudjet" tushunchasining tub mohiyati shundaki, u shunchaki qog'oz varag'i emas, balki kelajakda sodir bo'ladigan voqealar ketma-ketligini loyihalashtiruvchi moliyaviy va tahliliy ma'lumotlar majmuidir.

Byudjet turlari va shakllarining soni cheksizdir. An'anaviy foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdan yoki buxgalteriya balansidan farqli ravishda, byudjetning qat'iy va majburiy standart shakli mavjud emas. Byudjetning tuzilishi uning maqsadiga, tashkilotning ko'lamiga, korxonaning moliyaviy arxitekturasiga integratsiyalashganlik darajasiga hamda uni tuzuvchi mutaxassislarning malakasiga bog'liq bo'ladi.

Byudjetda aks etgan axborotlar aniq va tushunarli bo'lishi shart. Keragidan ortiqcha ma'lumotlar ko'rsatkichlarning ahamiyatini va aniqqligini anglashni qiyinlashtirsa, axborotning yetishmasligi qabul qilingan cheklovlarni hamda ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Byudjetda bir vaqtning o'zida ham daromadlar, ham xarajatlar aks etishi yoki ularning balanslashgan bo'lishi har doim ham talab

etilmaydi. Masalan, materiallardan foydalanish byudjeti faqat xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning rejalashtirilgan sarfini ko'rsatadi. Shuningdek, byudjetlar faqat pul ifodasida emas, balki ish soatlari, mahsulot birligi yoki xizmat ko'rsatish hajmi kabi natural o'lchovlarda ham shakllantirilishi mumkin.

Byudjetni tayyorlash jarayonida mutaxassislar uning mazmuni va maqsadidan kelib chiqib, taqdim etishning eng maqbul shaklini yaratadilar. Kompaniya o'zining maxsus byudjet formatini ishlab chiqishi va undan doimiy foydalanishi mumkin. Agar byudjetda yangi mahsulot yoki xizmat turlari haqida ma'lumot talab etilsa, hujjatning yangicha tuzilmasi shakllantirilishi lozim. Biroq, har doim asosiy qoidaga amal qilish shart: byudjetdagi axborot qaror qabul qiluvchi foydalanuvchilar uchun aniq, dolzarb va muhim bo'lishi lozim.

Byudjet (smeta) — bu ma'lum davr uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, erishilishi kutilayotgan daromadlar yoki qilinishi lozim bo'lgan sarf-xarajatlarning, shuningdek, ushbu maqsadlarga yetishish uchun jalb etilishi zarur bo'lgan kapitalning miqdoriy (asosan pul ko'rinishidagi) rejasidir.

Byudjetlashtirishning asosiy afzalligi korxonaning moddiy, insoniy va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa hamda o'rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilar strategiyasini baholash va bozor talabini o'rganish imkoniyatini berishidir. Byudjetlashtirish jarayonida asosiy diqqat mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiyasidan kelib tushadigan daromad (foyda) hajmini prognoz qilishga qaratiladi. Bunda quyidagi muhim vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Rejalashtirish. Strategik yechimlar odatda dastur tayyorlash bosqichida shakllansa, byudjetlashtirish jarayoni ushbu rejalarni yanada detallashtiradi va yaqin istiqboldagi operatsiyalarga aniqlik kiritadi.

- Muvofiqlashtirish va aloqa. Har bir mas'uliyat markazining faoliyati boshqa bo'limlarga ta'sir ko'rsatadi va o'zi ham ularga bog'liq bo'ladi. Byudjetni ishlab chiqish orqali barcha bo'linmalar

korxonaning umumiy strategiyasidan kelib chiqib, hamjihatlikda harakat qilishi ta'minlanadi. Masalan, ishlab chiqarish hajmi marketing bo'limining sotuv rejalari hamda tayyor mahsulot zaxiralarining kutilayotgan darajasi bilan muvofiqlashtirilishi shart.

- Rag'batlantirish. Byudjet tuzish jarayoni mas'uliyat markazlari rahbarlarini korxona maqsadlariga erishish yo'lida faollashtiruvchi kuchli motivatsiya vositasidir. Har bir menejer o'z bo'linmasidan nimalar kutilayotganini aniq bilishi lozim.

- Nazorat. Byudjet — kutilayotgan natijalar ifodalangan andozadir. Puxta tayyorlangan reja standart vazifasini o'taydi va unga real erishilgan natijalar qiyoslanadi. Chunki byudjet o'zida barcha bashorat qilingan o'zgarishlarni mujassam etadi.

Haqiqiy natijalarni byudjet ko'rsatkichlari bilan solishtirish rahbarlarga asosiy e'tiborni qaysi yo'nalishga qaratish lozimligini hamda qanday boshqaruv choralari ko'rishni ko'rsatib beradi. Og'ishlarni (chetlanishlarni) tahlil qilish:

- birinchi navbatda yechim talab etadigan muammoli sohalarni aniqlashga yordam beradi;

- byudjetni ishlab chiqishda inobatga olinmagan omillar mavjudligini yoki dastlabki rejaning qanchalik real ekanligini ko'rsatadi.


- Baholash. Byudjetdan og'ishlarni har oy tahlil qilish yil davomida doimiy nazoratni ta'minlaydi. Haqiqiy va rejaviy ma'lumotlarni bir yillik qiyoslash — har bir mas'uliyat markazi va ularning rahbarlari faoliyatini yil oxirida xolis baholashning bosh mezonidir.

- O'qitish. Byudjet menejerlarning professional saviyasini oshirish vositasi hamdir. Uni tuzish orqali rahbarlar o'z bo'linmalarining ish jarayonini hamda korxonaning boshqa markazlari bilan o'zaro aloqalarini batafsilroq o'rganadilar.

Bosh byudjet xo'jalik subyekti rahbarlari uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u rejalashtirilgan davrda oldinda turgan maqsadlarni aniq belgilash, ishlab chiqarish dasturi ijrosini, foyda va

xarajatlar dinamikasini hamda hisob-kitoblar va to'lovlar intizomini muntazam nazorat qilib borish imkonini beradi.

Xo'jalik subyektlarida byudjetlashtirish jarayoni bosh byudjetni tuzishdan boshlanadi. Uni tuzish to'rtta asosiy bosqichga ajratiladi (12.1-rasm).



12.1-rasm. Byudjetlashtirish bosqichlari va uni amalga oshirish

Bosh byudjetni shakllantirish nafaqat boshqaruv xodimlari, balki investitsiya qilingan kapitalning samaradorligini kuzatib boruvchi korxona mulkdorlari uchun ham nihoyatda muhimdir.

Byudjetlarni tayyorlash jarayoni quyidagi xususiy smetalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi:

- moddiy resurslar sarfi smetasi;
- asosiy ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash smetasi;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama (bilvosita) xarajatlar smetasi;

- ma'muriy va boshqaruv faoliyati bilan bog'liq chiqimlar smetasi.

Yaxlit byudjetni tuzishning yakunlovchi bosqichi kutilayotgan moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) to'g'risidagi umumlashtirilgan smetani tayyorlashdan iborat. Ushbu hujjatda quyidagi asosiy indikatorlar o'z aksini topadi:

- mahsulotlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatishdan olingan jami tushum;

- ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xomashyo va materiallar sarfi;

- bevosita ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi xarajatlari;

- ishlab chiqarish xususiyatidagi bilvosita (ustama) sarflar;

- sotilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi;

- sotuv va ma'muriy-boshqaruv faoliyatiga oid davr xarajatlari;

- ishlab chiqarish faoliyatidan kutilayotgan yakuniy foyda yoki zarar.

Xo'jalik subyektining bosh byudjeti operatsion, investitsiyaviy va moliyaviy byudjetlar majmuasidan tashkil topadi (12.2-rasm).

Operatsion byudjetning bosh vazifasi moliyaviy resurslarning ehtimoliy manbalarini aniqlash va ularni sarflash yo'nalishlarini rejalashtirishdir. Uni shakllantirish, eng avvalo, sotuv rejasini tuzishdan boshlanadi. Zero, ishlab chiqarish hajmi, tannarx va foyda kabi boshqa barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar bevosita sotuvlar ko'lamiga hamda mahsulot qiymatiga bog'liq bo'ladi.


Shuningdek, operatsion byudjet doirasida korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bosqichlarini tavsiflovchi maxsus texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar ham belgilanadi. Bunda marketing bo'limi tomonidan taqdim etiladigan tahliliy ma'lumotlar asosiy axborot paydevori bo'lib xizmat qiladi.

Subyektning operatsion byudjetida barcha daromad va xarajatlar ham miqdoriy (natural), ham qiymat (pul) ko'rinishida tizimli ravishda ifodalanadi.

Operatsion byudjetni tuzishda quyidagi byudjetlardan foydalaniladi:

1. Ishlab chiqarish byudjeti;

2. Tovar-moddiy zaxiralar va asosiy vositalarni sotib olish byudjeti;
3. Tayyor mahsulotlar zaxiralari byudjeti;
4. Davr xarajatlari byudjeti:
 - a) sotish xarajatlari byudjeti;
 - b) ma'muriy xarajatlar byudjeti.



12.2-rasm. Xo'jalik subyekti bosh byudjetining namunaviy tuzilmasi

Sotuv xarajatlari byudjeti strategik rejalashtirishga tayangan holda, iste'molchilarning xarid qobiliyati va mahsulot ko'lamini inobatga olib, vertikal hamda gorizontal uslubda shakllantiriladi. Aksariyat vaziyatlarda realizatsiya hajmi korxonaning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi.

Sotuv byudjetini ishlab chiqish rejalashtirish jarayonining eng murakkab bosqichlaridan biri sanaladi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- mahsulot yoki xizmatlarni sotishdan keladigan tushum faqatgina korxonaning texnik salohiyatiga bog'liq emasligi;

- tashqi bozorda nazorat qilish qiyin bo'lgan hamda sotuv ko'rsatkichlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarning mavjudligi. Ularga quyidagilar kiradi:

- raqobatchi kompaniyalarning harakatlari;
- milliy va xalqaro bozorlardagi umumiy iqtisodiy konjunktura;
- xaridorlar hamda resurs yetkazib beruvchilarning moliyaviy barqarorlik darajasi;

- marketing va reklama tadbirlarining samaradorligi;
- korxonaning narx belgilash siyosati;
- tayyorlanayotgan mahsulotning rentabellik darajasi.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, sotish byudjetini shakllantirishda asosan ikki xil metodga tayaniladi:

- Statistik prognozlash (umumiy iqtisodiy sharoitlar va bozor holatining matematik tahlili hamda grafikli modellashtirish);

- Ekspert tahlili (sotuv bo'limi mutaxassisleri hamda tajribali menejerlarning xulosalarini umumlashtirish orqali).

Kutilayotgan realizatsiya hajmi aniqlab olingach, navbatdagi bosqichda ishlab chiqarish byudjeti shakllantiriladi va uning asosida moddiy zaxiralar, asosiy vositalar xaridi hamda ma'muriy chiqimlar rejalari ishlab chiqiladi.

Investitsiya byudjeti — bu korxonaning rejalashtirilgan davrdagi kapital sarf-xarajatlari va uzoq muddatli sarmoyaviy qo'yilmalari dasturidir. Mazkur hujjat joriy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qoplashga yo'naltirilgan texnik xaridlar bilan bir

qatorda, kapital qurilish hamda modernizatsiya kabi uzoq muddatli strategik loyihalarni ham qamrab oladi. Investitsiya byudjeti doirasida subyektning byudjetlashtirish davridagi barcha kapital va uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalari loyihalashtiriladi.

Xo'jalik subyektining umumiy byudjet tizimida moliyaviy byudjet markaziy o'rin tutadi. Uning yordamida sotuvlar hajmi, ishlab chiqarish tannarxi, daromad va chiqimlar mutanosibligi, sof foyda miqdori hamda investitsiyalarning o'zini oqlash muddatlari kabi strategik ma'lumotlar tizimlashtiriladi.

Byudjetlashtirish jarayoni o'tmishdagi haqiqiy xarajatlar tahliliga asoslanadi. Bunda rejaviy ko'rsatkichlar bilan amaldagi natijalar o'rtasidagi tafovutlar o'rganilib, aniqlangan og'ishlar kelgusi davr rejalarini mukammallashtirishda inobatga olinadi.

Byudjet rejalarini tayyorlashda quyidagi fundamental talablarga amal qilish zarur:

- aniqlik va ehtiyotkorlik tamoyillarini ustuvor deb bilish;
- daromad va xarajatlarning muvozanatlangan bo'lishini ta'minlash;
- barcha ko'rsatkichlarni moddiy, mehnat va pul o'lchovlarida baholash;
- byudjetni ishlab chiqish uchun tayinlangan xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish.

Byudjet loyihasini ishlab chiqish jarayonda ishtirok etgan barcha tarkibiy bo'linmalar bilan o'zaro kelishilgan holda yakunlanishi va tasdiqlash uchun rahbariyatga havola etilishi lozim. Korxona rahbari tomonidan ma'qullangandan so'ng byudjet rasmiy kuchga ega bo'ladi. Tasdiqlangan hujjat asosida oylik daromad va xarajat rejaları shakllantirilib, bu korxonaning moliyaviy barqarorligini hamda strategik maqsadlarga erishishini kafolatlaydi.

12-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Boshqaruv hisobi korxona faoliyatining turli qirralari haqida muhim tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish orqali strategik qarorlar qabul qilish jarayonida tayanch vazifasini o'taydi. Subyektida ishlab

chiqarish operatsiyalarini oqilona yo'lga qo'yish va ularni tizimli rejalashtirish mazkur sohaning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mazkur bo'lim doirasida ishlab chiqarishni tartibga solish hamda loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari nazariy manbalar va amaliy misollar yordamida chuqur tadqiq etildi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish jarayoni xomashyoni tayyor tovar yoki xizmatga aylantirish yo'lidagi barcha resurslar, harakatlar va bosqichlarni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tartibga solishni anglatadi. Bu o'z ichiga ishlab chiqarish modellarini loyihalashni, ish jarayonlarini optimallashtirishni hamda yuqori unumdorlikka erishish uchun mavjud resurslarni oqilona taqsimlashni qamrab oladi.

Byudjetlashtirish amaliyoti orqali xo'jalik subyektlarining strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi operatsiyalarni loyihalashtirish, xodimlarni rag'batlantirish, tarkibiy bo'linmalararo hamkorlikni mustahkamlash, joriy faoliyat ustidan doimiy monitoring o'rnatish hamda mas'uliyat markazlari oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini xolis baholash kabi funksiyalarni bajarish ijobiy samara beradi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Rejalashtirish va byudjetlashtirish jarayonlari, ishlab chiqarish faoliyati, Teylorning ilmiy boshqaruv nazariyasi, sotish hajmini va moliyaviy ko'rsatkichlarni rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, bosh byudjet va smeta tushunchalari, byudjetlashtirishning asosiy bosqichlari, investitsiya, operatsion hamda moliyaviy byudjet turlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ishlab chiqarish jarayonlarini oqilona tashkil etish va tizimli rejalashtirishning korxona samaradorligini oshirishdagi roli va ta'sirini tahlil qiling.

2. Boshqaruv funksiyasi sifatida rejalashtirish tushunchasining mazmun-mohiyati va uning strategik ahamiyatini tavsiflang.

3. Biznesni rejalashtirish jarayoni qanday fundamental tamoyillar va metodologik asoslarga tayanadi?

4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni prognozlash va rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.

5. Faoliyatni byudjetlashtirish tizimining korxonani moliyaviy barqarorlashtirishdagi ijobiy jihatlari va afzalliklarini sanang.

6. Korxonaning bosh byudjeti (Master Budget) oldida turgan asosiy maqsad va funksional vazifalarni ko'rsating.

7. Xo'jalik subyekti bosh byudjeti qanday tarkibiy qismlar va yordamchi byudjetlardan tashkil topadi?

8. Korxonaning ishlab chiqarish dasturini shakllantirish bosqichlari va uning amalga oshirilish tartibini izohlang.

9. Ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar va yondashuvlarni sanab o'ting.

10. Operativ rejalashtirishning mohiyati va uning kundalik ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishdagi o'rnini tushuntiring.

11. Ma'muriy rejalar tushunchasi va ularning tashkiliy boshqaruv tizimidagi ahamiyatini ochib bering.

12. Strategik rejalashtirishning konseptual asoslari va korxonaning uzoq muddatli rivojlanishidagi rolini izohlang.

13. Byudjet (smeta) tuzish jarayonining uslubiy jihatlari va uni rejalashtirish texnologiyasini yoritib bering.

14. Savdo hajmini prognoz qilish ishlab chiqarishga oid qarorlar qabul qilish va resurslarni taqsimlashga qanday ta'sir ko'rsatadi?

XIII BOB. BOSHQARUV HISOBIDA TRANSFERT BAHO VA UNI BELGILASH

13.1. Boshqaruv hisobida transfert bahoning tutgan o'rnini va mazmuni

Bozor iqtisodiyoti tamoyillari chuqurlashib borayotgan bugungi sharoitda, realizatsiya qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun ilmiy asoslangan narx strategiyasini shakllantirish boshqaruv hisobining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda korxonalar doirasidagi asosiy xo'jalik jarayonlari bevosita ishlab chiqarish bo'linmalarida kechadi. Har bir tarkibiy bo'lim muayyan texnologik bosqichlarni amalga oshirar ekan, boshqa bo'linmalar bilan uzviy iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Bunday aloqalar bir bo'linma mahsulotining boshqasi uchun xomashyo vazifasini o'tashi yoki xizmat ko'rsatuvchi bo'g'inlarning faoliyati natijasida vujudga keladi. Garchi ushbu bo'linmalar alohida yuridik maqomga ega bo'lmasa-da, operatsion jihatdan nisbatan mustaqil faoliyat yuritadi. Shu sababli, har bir bo'g'inning natijadorligini baholashda ularning sarf-xarajatlari va daromadlari tahlili markaziy o'ringa chiqadi. Bo'linmalar daromadini aniqlash uchun esa ichki almashinuv jarayonlarida qo'llaniladigan maxsus narxlar — transfert baholarini belgilash talab etiladi.

Transfert baholash tizimi makroiqtisodiy darajada hamda soliqqa tortish sohasida keng qo'llaniladi. Mazkur yo'nalishda o'tkazilgan ko'plab tadqiqot natijalari ilmiy adabiyotlarda atroflicha tahlil qilingan.

Transfert bahosi — bu o'zaro bog'liq bo'lgan tomonlar o'rtasidagi bitimlarni baholash mexanizmidir. Odatda, fiskal organlar turdosh kompaniyalar guruhi o'z foydasini soliq yuklamasi past bo'lgan yurisdiksiyalarga yo'naltirmasligi uchun ushbu narxlar ustidan doimiy nazorat o'rnatadi.

Kanadalik professor Entoni Atkinson transfert bahoni korxona ichidagi mas'uliyat markazlari o'rtasida tovar va xizmatlarni

o'tkazishda foydalaniladigan usul va mexanizmlar majmui sifatida ta'riflaydi.

Professor M.Z. Pizengolsning fikricha, transfert baholari asosan boshqaruv hisobi ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Moliyaviy hisobda materiallar xaridi va mahsulot sotuvi real bozor narxlarida aks etsa, boshqaruv hisobida tarkibiy bo'linmalararo mahsulot, ish va xizmat almashinuvi uchun shartli (ichki) baholardan keng foydalaniladi.

Shuningdek, V.Y. Kerimov transfert bahoni faqat korxona ichki ehtiyojlari uchun, ya'ni bir javobgarlik markazidan ikkinchisiga xomashyo, yarim tayyor yoki tayyor mahsulotlarni uzatishda qo'llaniladigan vosita deb hisoblaydi.

Professorlar B.A. Xasanov va A.A. Xashimovlar ham transfert bahoni korxona ichidagi tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi mahsulot va xizmatlar almashinuvini baholash mezonini sifatida e'tirof etadilar.

Professor A.X. Pardayev va Z.A. Pardayevlar mazkur tushunchani xo'jalik subyekting ichki segmentlari o'rtasidagi moddiy boyliklar uzatiladigan narx deb atashadi. Ularning fikricha, bunday narxlar bozor ko'rsatkichlariga, tannarxga asoslanishi yoki tomonlarning o'zaro kelishuvi (shartnomaviy) asosida belgilanishi mumkin.

Transfert baholar bo'yicha mavjud ilmiy-uslubiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa tortish nuqtai nazaridan yuritiladigan baholash bilan korxona ichki tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi hisob-kitoblar uchun qo'llaniladigan narxlash tizimi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

13.2. Transfert bahoni aniqlash tartibi va shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Bozor iqtisodiyoti islohotlari yanada jadallashayotgan bir paytda, transfert baholarini belgilash tartibi ishlab chiqarishni boshqarishning markazlashgan yoki markazlashmagan modellariga tizimli ravishda uzviy aloqadorlik kasb etadi. Transfert narxlash

mexanizmini shakllantirish korxonaning umumiy narx strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Transfert bahosi — bu xo'jalik subyekti doirasida bir mas'uliyat markazidan boshqasiga o'tkaziladigan moddiy resurslar (xomashyo, butlovchi buyumlar, tayyor mahsulotlar) yoki ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini baholash uchun qo'llaniladigan ichki hisob ko'rsatkichidir.

Boshqaruv markazlashtirilgan tizimda tashkil etilganda, tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro almashinuv jarayonlari asosan haqiqiy yoki me'yoriy (normativ) tannarx ko'rsatkichlariga tayanadi.

Boshqaruv markazlashtirilmagan sharoitda esa, mas'uliyat markazlari yuqori darajadagi operatsion mustaqillikka ega bo'ladi. Shu bois, ichki uzatish narxlari har bir bo'linmaning moliyaviy natijasini va foydasini xolis aks ettirishi shart. Ichki transfert bahosini tanlash nafaqat bo'linma ishiga baho berishda, balki "ishlab chiqarish yoki sotib olish", "sotish yoki qayta ishlashni davom ettirish" kabi strategik qarorlarni qabul qilishda hamda muqobil variantlarni tahlil etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Transfert baholarni shakllantirish quyidagi fundamental mezonlarga asoslanadi:

- korxonaning yakuniy strategik maqsadlariga erishishini ta'minlash hamda alohida bo'linmalar manfaatlarini umumiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish;

- turli darajadagi menejerlar uchun tushunarli, adolatli va moslashuvchan mexanizmni yaratish;

- markazlashmagan boshqaruvda sotuvchi va xaridor vazifasini bajaruvchi bo'linma rahbarlarining mustaqil qaror qabul qilish huquqini saqlab qolish;

- bozor kon'yunkturasiidagi o'zgarishlarga tezkor moslashish hamda foydani iqtisodiy jihatdan eng samarali va soliq imtiyozlari mavjud bo'lgan yo'nalishlarga qayta taqsimlash imkonini berish;

- amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunchilik talablariga to'la muvofiq kelish.

Amaliyotda har qanday subyekt mahsulot tayyorlashni boshlashdan avval kutilayotgan foyda miqdorini rejalashtiradi. Korxonaning foydasi mahsulotning bozordagi narxi va uni tayyorlashga ketgan real xarajatlarga bog'liq. Bunda mahsulot bahosi shunchaki ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishi bilan emas, balki bozorning talab va taklif qonuniyatlari asosida muvozanatlashadi.

Ishlab chiqarish hajmi va narxlar darajasi o'zgaruvchan bo'lganda, foyda miqdorini qiyoslashning turli usullari qo'llaniladi. Mahsulotning har bir qo'shimcha birligini tayyorlash natijasida umumiy tushumdagi o'sish "chegaraviy (marginal) tushum", xarajatlardagi o'sish esa "chegaraviy (marginal) xarajatlar" deb ataladi. Maksimal foyda darajasiga chegaraviy tushum va chegaraviy xarajatlar bir-biriga tenglashgan yoki o'zaro maksimal darajada yaqinlashgan nuqtada erishiladi.

Marginal foyda nazariyasiga binoan, ishlab chiqarish hajmi oshishi natijasida chegaraviy tushum chegaraviy xarajatlardan yuqori bo'lgan muddatgacha foyda o'sishda davom etadi. Biroq, qo'shimcha xarajatlar qo'shimcha tushumdan oshib ketgan lahzada mahsulot tayyorlash hajmini qisqartirish talab etiladi. Demak, xarajatlar va tushum o'rtasidagi eng maqbul mutanosiblik ta'minlanganda korxona eng yuqori daromadlilikka erishadi.

Innovatsion iqtisodiy sharoitda korxonalar narx shakllanishini operativ boshqarishga majbur. Buning uchun boshqaruv tizimidagi funksional bo'g'inlarning o'zaro aloqasini tadqiq etish muhimdir.

Tashqi muhitdagi quyidagi makroiqtisodiy omillar narx siyosatiga bevosita ta'sir o'tkazadi:

1. Iqtisodiy o'sish va pasayish davrlari (iste'mol talabi aholining real daromadlari, investitsiya muhiti, davlat chiqimlari va kredit imkoniyatlariga bog'liq). Shu sababli tashqi kon'yunkturani o'rganish narx belgilashning strategik asosi hisoblanadi.

2. Tabiiy resurslar bazasiga yaqinlik va xomashyo zaxiralariga egalik qilish nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki qayta ishlovchi korxonalarning barqarorligi uchun ham zarurdir.

3. Siyosiy-huquqiy muhit. Davlatdagi barqarorlik, mulk huquqining himoyalanganligi, soliq va bojxona qonunchiligidagi o'zgarishlar narx shakllanishida hal qiluvchi omillardir.

4. Demografik omillar. Aholi soni, yosh tarkibi va tug'ilish darajasi ma'lum turdagi mahsulotlarga (masalan, bolalar yoki keksalar uchun tovarlar) bo'lgan talabni shakllantiradi.

5. Ijtimoiy-madaniy omillar. Jamiyatning farovonlik darajasi ortishi bilan ijtimoiy himoya va iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj hamda imkoniyatlar kengayib boradi.

Xulosasiga ko'ra, narx shakllanishi bo'yicha qarorlarga ta'sir etuvchi omillar tashqi va ichki guruhlariga bo'linadi.

Tashqi omillar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulotga nisbatan bozordagi umumiy talabning holati;
2. Raqobatchi firmalar tomonidan bozorga chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi;
3. Tovarlarning narx va sifat ko'rsatkichlari;
4. Iste'molchilarning arzon narx yoki yuqori sifatga bo'lgan moyilligi.

Narx belgilashga ta'sir etuvchi ichki omillar quyidagilardan iborat:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;
- uzoq muddatli investitsiyalarning o'zini oqlash salohiyati;
- ishchi kuchi va xomashyo sifati;
- ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy darajasi;
- cheklangan resurslardan foydalanish samaradorligi.

13.3. Boshqaruv hisobida transfert bahoni belgilash usullari

Amaldagi me'yoriy hujjatlar tizimida, xususan, "Soliq kodeksi"ning VI bo'limi "Transfert narxni belgilashda soliq nazorati" deb nomlanib, unda transfert baholarni shakllantirishning umumiy qoidalari hamda soliq monitoringida qo'llaniladigan metodlar batafsil bayon etilgan. Xususan, 186-moddaga binoan, nazorat ostidagi bitimlarning tijorat yoki

moliyaviy shartlari hamda ularning natijalari qiyoslanganda, Davlat soliq qo'mitasi quyidagi beshta uslubdan foydalanishi belgilab qo'yilgan:

- 1) bozor narxlarini o'zaro qiyoslash usuli;
- 2) qayta realizatsiya qilish narxi usuli;
- 3) sarf-xarajatlar usuli;
- 4) qiyosiy rentabellik ko'rsatkichlari usuli;
- 5) foydani taqsimlash usuli.

Transfert bahosini aniqlashning ham xalqaro, ham milliy amaliyotda bir necha turlari mavjud bo'lib, iqtisodchi olimlar A.X.Pardayev va Z.A.Pardayevalar ko'proq to'rtta metoddan foydalanishni tavsiya etadilar:

1. O'zgaruvchan chiqimlar usuli
2. Yalpi foyda mezon usuli
3. Sotuv rentabelligini aniqlash usuli
4. Aktivlar qaytimi (rentabelligi) usuli

Professor Entoni Atkinson transfert narxini belgilashning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tgan:

1. Bozor ko'rsatkichlari asosida;
2. Sarf-xarajatlar poydevorida;
3. Shartnomaviy kelishuvga ko'ra;
4. Tomonlar roziligi bilan tartibga solinadigan asosda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) tavsiyalariga ko'ra, transfert baholarni aniqlash metodlari ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. Tranzaksiyalar tahliliga tayangan usullar:
 - qiyoslanadigan nazoratsiz baholar metodi;
 - keyingi sotuv narxi yondashuvi;
 - "xarajatlar plyus" (cost-plus) usuli.
2. Foyda darajasini tahlil qilishga asoslangan usullar:
 - foydani o'zaro taqsimlash usuli;
 - sof foyda koeffitsiyenti usuli.

Ko'jalik subyektlarining ichki bo'linmalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda (masalan, bir sex mahsuloti boshqasi uchun

xomashyo vazifasini o'taganda) transfert baholarini to'g'ri belgilash markaziy o'rin tutadi. Bu borada professorlar B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlar shunday fikr bildirganlar: "Ichki tarkibiy tuzilmalararo transfert narxlarni shakllantirishda ularni belgilash metodikasiga alohida e'tibor berish lozim. Quyidagi usullar mavjud:

- bozor bahosi;
- foyda ustamasi qo'shilgan to'liq tannarx;
- foyda ustamasi qo'shilgan o'zgaruvchan sarflar;
- tomonlar o'rtasidagi kelishuvga binoan shartnomaviy baho;
- yaxlit yoki qisqartirilgan tannarx ko'rsatkichi.

Barcha ishtirokchilar (sotuvchi bo'linma, xaridor bo'lim va umumiy boshqaruv) manfaatlariga birdek mos keladigan universal transfert narxi mavjud emas. Amaliyotda ayrim korxonalar shartnomaviy bozor narxlaridan foydalansa, boshqalari 'to'liq tannarx plyus foyda' uslubini afzal ko'radilar".

Transfert baholarini belgilash metodikasi korxona mansub bo'lgan iqtisodiyot tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqdir. Sanoat korxonalari amaliyotida ko'pincha "shartnomaviy bozor bahosi" transfert narxi sifatida qo'llanilsa, boshqa sohalarda "to'liq tannarx plyus foyda" modelidan ko'proq foydalaniladi.

Mahsulot yoki xizmatlarning kelishilgan bozor narxi miqdori eng qulay transfert baho sanaladi, chunki u har bir mas'uliyat markazining daromadlilik darajasini mustaqil xo'jalik birligi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Agar tashqi bozorda aniq narx ko'rsatkichlari mavjud bo'lmasa (masalan, mutlaqo yangi mahsulot yaratilganda yoki muqobil tovarlar bo'lmaganda), "to'liq tannarx plyus foyda" usulini, ya'ni tannarxga ma'lum foiz qo'shish tartibini qo'llash lozim. Bunday yondashuv bozor narxiga yaqin natija beradi va bo'linmalar ishining samaradorligini baholashga yordam beradi.

Narxga qo'shiladigan ustamani belgilashda butun korxonaning foydalilik darajasini emas, balki aynan o'sha bo'linmaning xarajatlar tuzilishini hisobga olish shart. Amaliyotda foyda ko'pincha sarmoya qaytimi sifatida ko'riladi va belgilangan reja

bilan qiyoslanadi. Agar transfert baho sifatida "o'zgaruvchan xarajatlar plyus foyda" usuli tanlansa, xomashyo, materiallar va ish haqi kabi chiqimlarning o'zgarishiga qarab narxlarga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

Transfert baho haqiqiy tannarxga qo'shimcha foyda marjasini qo'shish orqali ham belgilanishi mumkin. Mazkur uslubdan menejerlar o'z bo'linmalaridagi mablag' sarfi uchun mas'ul bo'lgan hollarda foydalanadilar. Biroq, bu usulning kamchiligi shundaki, u tejamkorlikka rag'batlantirmaydi: haqiqiy tannarx qancha baland bo'lsa, sotuvchi bo'linma shuncha yuqori narx belgilaydi. Shuni inobatga olish zarurki, tannarx asosidagi narxlashda bo'linmalarni foyda markazi emas, balki xarajat markazi sifatida ko'rish o'rinlidir. Bunday vaziyatda o'zgaruvchan xarajatlarga asoslangan transfert baholar samaraliroq hisoblanadi. Bunda quyidagi ikki shartga amal qilinadi:

1) tayyorlanayotgan mahsulot birligiga sarflangan aktivlar qiymatining o'xshashligi;

2) mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan sarflar darajasining barqarorligi.

O'zgaruvchan sarflar poydevorida shakllangan ichki narxlar tizimi to'liq tannarx usuliga qaraganda korxona zaxiralaridan yanada unumli foydalanishni ta'minlashi bilan ajralib turadi.

Transfert baho siyosati masalasi bo'yicha moliyachi va marketologlar o'rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv - xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahsmunozara kelib chiqadi. Ularning mohiyatini 13.1-jadval yordamida ifodalash mumkin.

Transfert baholarini shakllantirishda sarf-xarajatlarga tayanish eng ko'p sinovdan o'tgan va ishonchli usublardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning fundamentini mahsulot tayyorlash va uni realizatsiya qilish bilan bog'liq real iqtisodiy chiqimlar tashkil etadi.

13.1.-jadval

Transfert bahoni belgilashga nisbatan yondashuvlar

T/r	Xarajatlar asosidagi yondashuv	Qiymat yondashuvi
1.	Mahsulot	Xaridorlar
2.	Texnologiya	Qiymatliklar
3.	Xarajatlar	Baho
4.	Baho	Xarajatlar
5.	Qiymatliklar	Texnologiya
6.	Xaridorlar	Mahsulot

Mazkur chiqimlar mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan haqiqiy sarflar kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi hamda buxgalteriya tizimida birlamchi hujjatlar yordamida qat'iy rasmiylashtiriladi.

Ushbu yondashuvning nufuzi uning iqtisodiy nazariya tamoyillariga to'la muvofiqligi bilan ham izohlanadi. Zero, xarajatlarni mahsulotlar o'rtasida adolatli taqsimlash, tannarxni tizimli shakllantirish va boshqarish mexanizmi narxni korxona uchun samarali daromad manbaiga aylantiradi.

Mahsulotni sotishda narx darajasi kutilayotgan realizatsiya va ishlab chiqarish ko'lamiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobi tamoyillari shuni e'tirof etadiki, birlik mahsulotni tayyorlash sarflarining o'zgarishi ishlab chiqarish masshtabiga daxldordir. Ishlab chiqarish chiqimlarining ortishi bilan bir dona buyumga to'g'ri keladigan o'zgarmas sarflar ulushi va o'rtacha xarajatlar hajmi ham yuksalishi mumkin. Shu sababli, menejer transfert bahoni belgilashda faqat xarajatlar usuliga suyanib qolmasdan yoki raqobatchilarning qarorlari ta'sirida passiv yo'l tutmasligi lozim.

Eng samarali strategiya — transfert bahoni shakllantirishga nisbatan faol yondashuv uslubidir. Bunda narxlarni oqilona boshqarish orqali kutilayotgan sotuv hajmiga mos keluvchi o'rtacha

xarajatlar darajasiga erishiladi, bu esa o'z navbatida korxonani ko'zlangan rentabellik ko'rsatkichlariga olib chiqadi.

Transfert baholarining belgilanishi bozordagi raqobatchi subyektlarning ta'siriga ham chambarchas bog'liqdir. Shu bois, subyektning narx siyosati buxgalterlar, moliya mutaxassislari, marketologlar va menejerlarning o'zaro hamkorligi natijasida takomillashib boradi. Bunday sharoitda ishlab chiqilgan narx strategiyasi ham korxona foydasini, ham xaridorning ehtiyojlarini birdek qondirishi shart.

Xulosa qilib aytganda, moslashuvchan transfert narx siyosatini yuritish hamda ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilish, iste'molchilarni rag'batlantirish bilan bir qatorda tovar bozoridagi raqobatda ustunlikka erishish imkonini yaratadi.

13-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Tayyorlanayotgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat birligiga narx belgilash jarayonida qo'llaniladigan axborotlarning asosiy qismi buxgalteriya hisobi bazasidan olinadi. Bu esa narx shakllanishi bosqichida buxgalteriya ma'lumotlarining strategik ahamiyati naqadar yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Buxgalteriya tizimi, eng avvalo, obyektning real tannarxi va uning sarf-xarajatlar strukturasi haqida aniq ko'rsatkichlarni taqdim etadi, bu esa o'z navbatida oqilona narx siyosatini yuritishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida transfert baholarini shakllantirishda tarkibiy bo'linmalar manfaatlarini korxonaning umumiy strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirish muhim shartdir. Shu bilan birga, ushbu narxlar barcha darajadagi menejerlar uchun tushunarli va moslashuvchan bo'lishi, markazlashmagan boshqaruv tizimida bo'lim rahbarlarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini saqlab qolishi zarur. Transfert baholash mexanizmi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tezkor javob berishi, foydani iqtisodiy jihatdan eng samarali yo'nalishlarga safarbar etishi

hamda amaldagi qonunchilik me'yorlariga to'la muvofiq ravishda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Transfert baho va transfert baho siyosati, javobgarlik markazlari, transfert bahoni belgilash hamda shakllantirish mexanizmlari, o'zgaruvchan xarajatlar asosidagi yondashuv, yalpi foyda usuli, sotish rentabelligi va aktivlar rentabelligi ko'rsatkichlariga tayangan usullar, "xarajatlar plyus" modeli, to'liq tannarxga foyda qo'shish hamda o'zgaruvchan xarajatlarga foyda qo'shish usullari, tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadigan shartnomaviy baho.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. "Transfert baho" tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uning boshqaruv hisobidagi mohiyatiga ta'rif bering.

2. Transfert baholarini shakllantirish siyosati deganda nima tushuniladi va uni ishlab chiqishga kim mas'ul hisoblanadi?

3. Xo'jalik subyekting barqaror rivojlanishida oqilona transfert baho siyosatini joriy etishning obyektiv zaruriyatini asoslab bering.

4. Javobgarlik markazlari tushunchasi va ularni korxona tarkibida shakllantirishning tashkiliy asoslarini yoritib bering.

5. Transfert baholari va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi funksional bog'liqlik va o'zaro aloqadorlikni tushuntiring.

6. Transfert bahoni belgilashda xarajatlarga asoslangan yondashuvning o'ziga xos xususiyat va mexanizmlari nimadan iborat?

7. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda transfert baholarni o'rnatishda rioya qilinishi lozim bo'lgan talab va mezonlarni sanab o'ting.

8. Transfert baholarini belgilashning asosiy metodologik usullari va ularning qo'llanilish tartibiga sharh bering.

9. Ichki baho belgilashda "xarajatlar plyus" (cost-plus) uslubining iqtisodiy mazmuni va uning qo'llanilish mohiyatini ayting.

10. "O'zgaruvchan xarajatlar hamda belgilangan foyda" mezoniga asoslangan transfert bahoni aniqlash uslubini izohlang.

11. Transfert bahosini o'rnatishda mahsulotning zararsizlik darajasini hisobga olishning ahamiyati nimada?

12. Transfert narxlarini belgilashning kelishilgan (shartnomaviy) usuli mohiyatini va uning afzalliklarini tushuntiring.

XIV BOB. BOSHQARUV HISOBIDA SEGMENTAR HISOBOT

14.1. Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish

Buxgalteriya hisobi tizimida "segment" tushunchasi korxona moliyaviy hisobotlarida mavjud faoliyatning turli tarkibiy qismlari haqidagi axborotlarni alohida va batafsil aks ettirish zaruriyatini ifodalaydi. Bunday segmentlar har xil turdagi tovarlarni tayyorlash, ish va xizmatlar ko'rsatish yoki muayyan mahsulot turini turli mintaqaviy bozorlarda realizatsiya qilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

"Segment" so'zi lotincha "segmentum" atamasidan olingan bo'lib, u muayyan butunlikning bir bo'lagi yoki qismi degan ma'noni anglatadi.

Segmentar hisobot — bu xo'jalik subyekting alohida tarkibiy bo'linmalari, operatsion yo'nalishlari hamda mas'uliyat markazlari kesimida tayyorlanadigan maxsus hisobot shaklidir.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga tizimli o'tishni ta'minlash maqsadida 2020-yil 24-fevralda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlar ancha avval boshlangan bo'lib, 2014-yilda O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi tomonidan MHXS matnlari davlat tiliga tarjima qilingan edi. Ushbu standartlar orasida 8-sonli "Operatsion segmentlar" nomli MHXS alohida o'rin tutadi. Mazkur standartning 6-bandida operatsion segmentlarga xos xususiyatlar sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, bevosita daromad keltirmaydigan boshqaruv apparati (bosh ofis) va ayrim yordamchi bo'limlar segmentlar tarkibiga kiritilmasligi ta'kidlangan.

Boshqaruv hisobi korxonaning tashkiliy tuzilmasiga tayangan holda, turli javobgarlik markazlari (biznes segmentlari) majmuidan shakllanadi. Shu sababli, segmentar hisobotni bevosita mas'uliyat

markazlari faoliyati bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar yig'indisi deb atash mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ushbu jarayonlar MHXS talablari (masalan, 14-sonli standart) bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, segmentlarning ikki asosiy turi: xo'jalik va geografik segmentlar o'zaro farqlanadi.

Boshqaruv hisobotining namunaviy (minimal) to'plami quyidagi muhim shakllarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

- xomashyo, material va butlovchi qismlar zaxiralari to'g'risidagi hisobot;

- tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha hisobot;

- tayyorlangan mahsulot (ish, xizmatlar) hajmi to'g'risidagi hisobot;

- xarid qilingan moddiy qiymatliklar haqida ma'lumot;

- ombordagi tayyor mahsulot zaxiralari hisoboti;

- realizatsiya (sotish) jarayonlari to'g'risidagi hisobot;

- pul mablag'larining harakati haqida tahliliy hisobot;

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning joriy holati to'g'risida hisobot;

- umumlashtirilgan yig'ma hisobot.

Yaxlit moliyaviy hisobotning ustunligi korxonaning umumiy iqtisodiy ahvolini baholashda ko'rinsa, segmentar hisobot ma'lumotlari biznesning har bir tarkibiy qismi qanchalik samarali ishlayotganini xolis tahlil qilish imkonini beradi.

Xalqaro amaliyotda segmentlar bo'yicha hisobotni shakllantirish tartibi 14-sonli MHXS kabi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinib, unda segmentlarni xo'jalik faoliyati yo'nalishi hamda geografik joylashuviga ko'ra tasniflash ko'zda tutilgan.

Geografik segment — bu muayyan mintaqaviy iqtisodiy muhitda tovar va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi, o'ziga xos xavf-xatarlar (risklar) hamda daromadlilik darajasiga ega bo'lgan, tashkilotning alohida ajratilgan tarkibiy bo'lagidir.

Segmentlarni ajratishni taqozo etadigan, farq qiluvchi holatlarni ya'ni ko'pchilik omillarning mos tushishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (14.1- jadval).

Xo'jalik va geografik segmentlarning belgilari bo'yicha qiyosiy tavsifi

Segment hosil qilish uchun mezon	Segmentlar	
	Xo'jalik	Geografik
- Xo'jalik yoki geografik segmentlarni hisobot segmenti sifatida ajratishni taqozo etadigan omillar: - sotishlarning 50% dan ortig'i tashqarida sodir bo'lgan holda; - jami segmentlarni sotishdan olingan tushumlari, segment faoliyati natijalari aktivlarning 10%idan ortiq yoki unga teng bo'lgan umumiy summasiga ega bo'lganda; - korxona jami tushumlarini 75%idan kam bo'lmagan ulushi hisobot segmentlarini tashqi faoliyatining birgalikdagi jami tushumiga to'g'ri kelganda hisobotlar muvofiqlashtiriladi	Agarda quyidagi belgilar bo'yicha o'xshashliklar mavjud bo'lsa, mahsulot (ish, xizmat) lar ishlab chiqaruvchi xo'jalik bo'linmalari o'zaro bog'liq bo'ladi: - ularning tavsiflanishida; - ishlab chiqarish jarayonlari tavsifida; - mijozlar turi va tavsifida; - segmentning asosiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan xarajatlar va daromadlarni taqsimlash usullarida; - muayyan faoliyat turlari uchun tartibga soluvchi muhit talablarida (masalan, soliqlar, banklar va sug'urtada)	Bir nechta mamlakatlardagi guruh, alohida mamlakat, mamlakat ichidagi mintaqada joylashgan segmentlar quyidagi belgilarga ko'ra geografik segment hisoblanadi: - o'xshash iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar; - amalga oshiriladigan muomalalarning o'xshashligi; - mazkur geografik hududdagi muomalalar bilan bog'liq favqulodda risklar kutilayotganda; - valyuta nazoratining alohida qoidalari amal qilganda; - valyuta muomalalaridan kutilayotgan risklar mavjud bo'lganda

Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar moliyaviy hisobotlarni shakllantirish mezonlari 1-sonli BHMS ("Hisob siyosati va moliyaviy hisobot") talablari bilan tartibga solinadi. Mazkur

standartning 96-bandida qayd etilishicha, subyekt rahbarlari hisob siyosatini yoritishda axborotdan foydalanuvchilarga korxonadagi ehtimoliy risklarni hamda kelgusidagi pul oqimlari dinamikasini xolis baholash imkoniyatini yaratib berishlari lozim.

Moliyaviy hisob ma'lumotlari asosida tayyorlanadigan ochiq hisobotlardan farqli ravishda, segmentar hisobotlar faqat ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlab chiqiladi va maxfiy xarakterga ega. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga binoan, hisob yuritish jarayonida ma'lumotlarning daxlsizligi va maxfiyligini ta'minlash shartdir. Buxgalteriya qaydlaridagi ma'lumotlar bilan tanishishga faqat tashkilot rahbariyatining ruxsati bilan yoki qonunchilikda belgilangan alohida hollardagina yo'l qo'yiladi. Shunga qaramay, amaliyot tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p hollarda soliq va boshqa nazorat qiluvchi idoralar korxonaning ichki boshqaruv hisobi hamda hisobotlari bazasiga bevosita kirish imkoniga ega bo'lmoqda.

14.2. Segmentar hisobotni tuzish qoidalari va tamoyillari

Boshqaruv hisobi tizimida subyekt tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan yoki markazlashgan tartibda tasdiqlangan hisobot shakllaridan foydalanish yuqori natija beradi. Ushbu hisobotlarni nafaqat an'anaviy jurnal-order tizimidan foydalanmaydigan subyektlar (masalan, kichik biznes vakillari, fermer xo'jaliklari va soddalashtirilgan hisob yurituvchilar), balki amaldagi jurnal-order shakliga moslashgan yirik korxonalar ham qo'llashlari mumkin. Bunda mavjud hisob tizimining yaxlitligiga putur yetkazmagan holda, analitik registrlar tarkibiga qo'shimcha satr va ustunlar kiritish orqali zaruriy tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Birlamchi buxgalteriya hujjatlari xo'jalik obyektlari harakatini qayd etish, ularning butligini ta'minlash va operatsiyalar bajarilganini huquqiy jihatdan tasdiqlashda fundamental ahamiyatga ega. Mazkur hujjatlardagi axborotlar tahlil qilinishi

natijasida muhim boshqaruv qarorlari shakllantiriladi. Binobarin, birlamchi ma'lumotlarni tizimli umumlashtirish tezkor tahlil o'tkazish va boshqaruv sifatini oshirishga zamin yaratadi. Shu munosabat bilan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning biznes jarayonlarida segmentar hisobot uslubiyotini joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Birlamchi hisob ma'lumotlari asosida segmentar hisobotlarni tayyorlashda quyidagi fundamental tamoyillarga amal qilish talab etiladi:

- segmentar hisobot aniq bir manzilga yo'naltirilgan, ishonchli va tushunarli bo'lishi, shuningdek, biznes jarayonlarining o'ziga xosligini to'liq aks ettirishi lozim;

- ichki hisobot tizimi axborotlarning tezkorligi, ehtiyotkorligi va o'zaro qiyoslanuvchanligini kafolatlashi shart;

- taqdim etilayotgan segmentar ma'lumotlar xolis, haqqoniy, mantiqan tugallangan bo'lishi va bevosita mas'uliyat markazlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi kerak;

- hisobot shakllari ma'lum vaqt oralig'ida barqaror (o'zgarmas) bo'lishi, ortiqcha murakkabliklardan xoli hamda tizimlashtirilgan ko'rinishda shakllantirilishi zarur;

- hisobotdan ko'zlangan asosiy maqsad subyektning investitsion salohiyatini yuksaltirish va biznes-strategiyani samarali amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim;

- segmentar hisobotlar korxonaning ichki hisob siyosatiga mos kelishi bilan bir qatorda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) hamda milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga tayanishi shart.

"O'zbekim O'zbekiston-Germaniya" MChJda sut mahsulotlarini sotish bo'yicha tuzilgan segmentar hisobotning tuzilishi (14.2-jadval):

Ushbu hisobotning axborotlari asosida sut mahsulotlari sotish jarayoni tahlil qilinadi va tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos bo'ladi. Xuddi shunday hisobotlar boshqa turdagi sotilgan mahsulotlar bo'yicha ham tayyorlanadi.

14.2-jadval

"O'zbekim O'zbekiston-Germaniya" MChJda sut mahsulotlarini sotishning segmentar hisoboti

(sentabr oyi uchun, ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Xaridorlar			Jami
	Savdo do'koniga	O'ziga tegishli yosh hayvonlarga	Maktabgacha ta'lim tashkilotiga	
Sotishdan olingan tushum	76900	21500	34600	133000
Chegirmalar ustamalar	7100	-	5200	12300
Sotish-netto	84000	21500	39800	145300
Sotilgan mahsulot tannarxi	63800	21500	28400	113700
Sotish xarajatlari	7700	-	2400	10100
Sotilgan mahsulotga tegishli jami xarajatlar	71500	21500	30800	123800
Sut sotishning moliyaviy natijasi	12500	-	9000	21500

14.3. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash

Raqobat muhiti kuchaygan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar amaliyotida har bir segment kesimida daromad va xarajatlarni aniqlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik jarayonlari bo'yicha segmentar hisobotlarni shakllantirish uchun boshqaruv hisobi tizimida ushbu bo'linmalarning qamrov doirasini aniq mezonlar asosida belgilash talab etiladi. Mazkur mezonlar quyidagilardan iborat:

- segmentar hisobot shakllarining tarkibi va mazmunini aniqlash;
- korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasidagi ichki iqtisodiy aloqalarda transfert narxlarini belgilash uslubiyatini tanlash;
- daromadlar, sarf-xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalarni hisoblashda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarni belgilash.

14-sonli «Segmentlar bo'yicha hisobot» nomli xalqaro standart (MHXS) talablariga muvofiq, segmentar hisobotda quyidagi fundamental ko'rsatkichlar aks ettirilishi ko'zda tutiladi:

- tashqi iste'molchilardan kelib tushgan tushumlar;
- ichki segmentlararo muomalalar natijasida shakllangan daromadlar;
- aktivlarning joriy balans qiymati;
- segment zimmasidagi majburiyatlar hajmi;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish uchun yo'naltirilgan kapital sarflar;
- hisoblangan amortizatsiya ajratmalari;
- qo'shma yoki assotsiatsiyalashgan korxonalar faoliyatidagi ishtirokdan olingan ulushlar hamda sof foyda yoki zararlar;
- daromad, xarajat, aktiv va majburiyatlarning o'zaro muvofiqligi tahlili.

Segmentar hisobotni, mohiyatan, javobgarlik markazlari faoliyati yuzasidan tayyorlangan hisobot tizimi deb atash mumkin. Mas'uliyat markazlari kesimida hisob yuritish zaruriyatidan kelib chiqib, ularning chegaralari quyidagi mezonlar asosida mustahkamlanadi:

- segmentar hisobot birliklarini ajratish tartibi va mustaqil hisobot shakllarining ko'rinishi;

- bo'linmalararo o'zaro hisob-kitob jarayonida narx shakllantirishning (transfert bahoning) qaysi metodidan foydalanish;

- aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni aniq segmentlarga taqsimlashning uslubiy asosi.

Segment daromadlari bevosita muayyan tarkibiy bo'limga tegishli bo'lishi yoki korxoning umumiy yalpi tushumi tarkibida aks ettirilishi mumkin.

Segment daromadlari xo'jalik subyektlari segmentiga yoki umumiy tushum tarkibiga bevosita kiritilishi mumkin. 14.2-jadval alohida segmentlar daromadlarini xo'jalik subyektlari moliyaviy

natijasidagi ulushini ifodalaydi va ularni tarkibiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

14.2-jadval

“Samarqand Kamalak Invest Tekstil” MCHJning moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisoboti va uning muomala segmentlari, (mln. so’mda)

Ko’rsatkichlar	Tovarlar ishlab chiqarish segmentlari				Jami
	Fermer-lar uchun	Qayta ishlash korxona-lari uchun	Tekstil korxona-lari uchun	Boshqa tashki-lotlar uchun	
1	2	3	4	5	6
1. Sotishdan olingan tushum	260	1320	390,8	500,8	2471,6
2. Chegirmalar ^{***} ustamalar “+”	+100,6	-380,6	+340	+160,8	+220,8
3. Sotish-netto	360,6	930,4	730,8	660,4	2682,2
4. Segmentlarning xarajatlari	170	120,6	290,2	180,8	761,6
5. Segmentlarning moliyaviy natijalari	490,4	240	640,2	550	1920,6
6. Taqsimlanmagan xarajatlar (ma’muriy)	150,4	70,5	190,9	170,2	582
7. Xo’jalik subyektining moliyaviy natijasi	340	160,5	440,3	370,8	1311,6

Segment daromadlariga quyidagi ko’rsatkichlar tegishli emas:

– moliyaviy qo’yilmalarni sotishdan olingan foizlar, dividendlar va daromadlar (bunday daromadlar segmentning asosiy faoliyati bo’lgan hollar bundan mustasno);

– favqulodda daromadlar (fors-major majburiyatlar). Segment xarajatlariga quyidagilar kiritilmaydi:

– qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo’yilmalar bo’yicha xarajatlar (ular segmentning asosiy faoliyati bo’lgan hol bundan mustasno);

– daromad (foyda) solig’i;

– favqulodda xarajatlar (fors-major majburiyatlari).

Xo'jalik subyektlarida ichki (segmentar) hisobotlarni buxgalter boshqaruv hisobi ma'lumotlariga asoslanib tuzadi.

Xulosa qilganimizda, xo'jalik subyektlarida xalqaro amaliyotda tan olingan segmentar hisob yuritish va hisobot tuzish tamoyillari va standartlariga o'tish tadbirlarini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Xo'jalik subyektlarining faoliyat turlari va sohalarini segmentlarga ajratish subyekt rahbariyatining boshqaruv siyosati asosida amalga oshiriladi. Shu sababli, segmentlar bo'yicha ochib berilgan moliyaviy axborotlar oshkoralik nuqtai nazaridan olganda shaffof bo'lmay, tijorat siri hisoblanadi. Shuningdek, segmentar hisobot axborotlaridan turli xo'jalik subyektlari faoliyatini bir-biri bilan taqqoslash uchun foydalanish mumkin emas.

14-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Segmentar hisobot — bu korxonaning tarkibiy tuzilmalari yoki muayyan faoliyat yo'nalishlari kesimida shakllantiriladigan maxsus axborot majmuidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ushbu hisobot tizimini yo'lga qo'yishda uning tayanch prinsiplarini aniq belgilab olish zarur. Xususan, hisobotning asosi sifatida javobgarlik markazlarining muayyan turi (ishlab chiqarish, xarajat, foyda yoki investitsiya markazi) tanlanishi lozim. Shuningdek, mahsulot realizatsiyasi yoki xizmat ko'rsatishdan olingan umumiy tushumda har bir segmentning ulushini aniq ko'rsatish hamda daromadlar miqdorini tezkor va haqqoniy aniqlash imkoniyati bo'lishi shart. Agarda segmentlar o'rtasida o'zaro tovar yoki xizmat almashinuvi mavjud bo'lsa, hisob-kitoblar jarayonida faqat ichki transfert narxlariga tayanib qolmasdan, joriy bozor kon'yunkturasini ham e'tiborga olish korxona faoliyatini xolis baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Biznes jarayonlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, biznes faoliyatining samaradorligi, segmentar hisobot, xo'jalik va geografik

segmentlar, segmentlar bo'yicha daromad hamda xarajatlar, segmentar hisobotni shakllantirish tamoyillari, transfert baholariga asoslangan segmentar hisobot.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xo'jalik subyektlarida biznes jarayonlari samaradorligini tahlil qilishda segmentar boshqaruv hisobdorligining o'rni va ahamiyatini yoritib bering.

2. "Geografik segment" tushunchasining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy qismlariga ta'rif bering.

3. Operatsion (xo'jalik) segmentlari hamda geografik segmentlarning o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro farqli jihatlarini tushuntiring.

4. Segmentlar kesimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirishning asosiy metodologik tamoyillarini bayon qiling.

5. Mas'uliyat markazlari faoliyati natijadorligini moliyaviy jihatdan baholashda qo'llaniladigan asosiy mezonlarni sanab o'ting.

6. Transfert (ichki) narxlardan foydalangan holda segmentar hisobotlarni tuzishning o'ziga xos tartibi va xususiyatlarini izohlang.

7. Segmentar hisobdorlik tizimini yo'lga qo'yishda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar va fundamental prinsiplarni tavsiflang.

8. Boshqaruv amaliyotida segmentar hisobotlarning qanday shakllari va ko'rinishlaridan foydalaniladi?

9. "Segment xarajatlari" tushunchasining mazmuni va ularning shakllanish manbalarini tushuntiring.

10. Segment daromadlarining tarkibi va ularni hisobda aks ettirishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

11. Biznes jarayonlarining birlamchi ma'lumotlari asosida segmentar hisobotni shakllantirishda qaysi tamoyillarga tayaniladi?

12. Segmentlar bo'yicha hisob yuritishda ularning chegaralarini va qamrov doirasini belgilovchi asosiy iqtisodiy mezonlarni izohlang.

XV BOB. ILG'OR BOSHQARUV HISOBİ TIZİMİDİ HİSÖB SİYOSATI

15.1. Boshqaruv hisobida hisob siyosati va uning nazariy asoslari

Zamonaviy boshqaruv hisobi amaliyotida hisob yuritish siyosati bu korxona faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazada ko'zda tutilgan muqobil variantlar orasidan subyekt tomonidan o'z ehtiyojlariga mos ravishda tanlab olingan hamda e'lon qilingan buxgalteriya uslublari va vositalari majmuidir.

Hisob siyosati amaldagi me'yoriy hujjatlarda turlicha tavsiflanadi. Jumladan, milliy standartlarda ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beriladi: "Hisob siyosati — xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etish va hisobotlarni shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar, asoslar va usullar yig'indisidir. Buxgalteriya hisobini yuritish metodlari sirasiga ma'lumotlarni guruhlash, xo'jalik jarayonlarini baholash, aktivlar qiymatini qoplash (amortizatsiya), hujjatlar aylanishi va inventarizatsiyani boshqarish, schyotlar rejasini tatbiq etish, hisob registrleri tizimi hamda axborotlarni qayta ishlashning boshqa texnik usullari kiradi".

Bugungi kunda subyektlarning hisob siyosatini shakllantirish va hayotga tatbiq etish masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan bo'lsa-da, bu borada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Chunonchi, L.R. Smirnova o'z tadqiqotlarida hisob siyosati turli operatsiyalarni aks ettirishda qulay va moslashuvchan bo'lishi, shuningdek, tijorat banklarida ushbu siyosatni ishlab chiqishda soliqlarni rejalashtirish va baholash jarayonlari bilan uzviy bog'liqlik ta'minlanishi lozimligini e'tirof etadi.

Iqtisodchi V.P. Astaxov o'z tadqiqotlarida hisob siyosatini tizimli ravishda quyidagi uchta asosiy yo'nalishga ajratib o'rganishni taklif etadi:

1. Buxgalteriya hisobi metodologiyasi — hisob obyektlarini tan olish, o'lchash va ularni balans hamda boshqa hisobot shakllarida aks ettirishning tanlangan uslublarini ifodalaydi.

2. Hisob yuritish texnikasi — bu yerda ishchi schyotlar rejasi, registrlar tizimi, hujjatlar albomi, inventarizatsiya tartibi hamda zamonaviy axborot texnologiyalari va kodifikatorlardan foydalanish masalalari qamrab olinadi.

3. Hisobni tashkil etish — buxgalteriya xizmatining tashkiliy shakli, xodimlar o'rtasida vazifalar taqsimoti, hujjatlar aylanishi tartibi hamda bosh buxgalterning huquqiy maqomi va mas'uliyatini belgilaydi.

A.X. Pardayev va Z.A. Pardayevalar tomonidan berilgan izohga ko'ra: «Korxonaning hisob siyosati — bu subyektning o'zi uchun ustuvor deb bilgan hamda umumiy qoidalarga tayangan holda belgilagan va e'lon qilgan buxgalteriya hisobining shakl va metodlari to'plamidir».

N.Yu. Jurayevning fikricha esa, «Hisob siyosati — bu xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda ruxsat etilgan muqobil usullar orasidan korxona tomonidan tanlab olingan hamda e'lon qilingan buxgalteriya hisobi tizimi hisoblanadi».

B. Hoshimov xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatini maksimal samaradorlikka erishish nuqtai nazaridan quyidagicha asoslaydi: "Shunday qoidalar va tamoyillar majmuini yaratish lozimki, ularni amalda qo'llash natijasida moliyaviy va boshqaruv ma'lumotlari foydalanuvchilar uchun ishonchli, tushunarli va foydali bo'lishi ta'minlansin".

F.G'. G'ulomova o'z ilmiy ishlarida korxonalarining hisob siyosatini to'rt tarkibiy qismga ajratib o'rganishni tavsiya etadi:

1. Umumiy tartiblar — hisob yuritish maqsadlari, rahbar va bosh buxgalterning huquq va majburiyatlari.

2. Hisob metodikasi — buxgalteriya hisobi obyektlarini baholash va qayd etishning tanlangan variantlari.

3. Hisob texnikasi — schyotlar rejasi, inventarizatsiya muddatlari va hisob yuritishning aniq texnik usullari.

4. Buxgalteriya hisobini tashkil etilishi — hisob xizmatining tanlangan tashkiliy shakli va ijrochilar tarkibi.

B.A. Xasanov hisob siyosatiga “foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini to’liq qoniqtirishga xizmat qiluvchi ichki me’yoriy hujjat” sifatida ta’rif berib, uni milliy standartlarga kiritishni maqsadga muvofiq deb biladi. Uning fikricha, ushbu ichki hujjat quyidagi talablarga javob berishi shart:

- muayyan subyekt faoliyatining o’ziga xos tarmoq xususiyatlarini ifodalashi;
- ham ichki, ham tashqi foydalanuvchilar manfaatlarini ko’zda tutishi;
- ichki talablarga rioya etilishini kunlik faoliyatda nazorat qilish imkonini yaratishi;
- buxgalteriya ma’lumotlarining tashqi foydalanuvchilar uchun tushunarli bo’lishini osonlashtirishi.

J.Qurbonboyevning ilmiy asarlarida ushbu tushunchaga quyidagicha yondashilgan: «Hisob siyosati — bu buxgalteriya hisobini yo’lga qo’yish, yuritish va hisobotlarni shakllantirish uchun muqobil tamoyillar asosida subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan eng maqbul usullar va qoidalar majmuidir».

Hisob siyosati subyekt buxgalteriya hisobining analitik jihatini ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilar manfaatlariga mos keltirishga qaratilishi kerakligini, olimlar o’z ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobining konseptual masalalarida belgilab bergan.

Erkin raqobat muhiti hukm surayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish ustuvor vazifalardan biri bo’lib, bu jarayon amaldagi moliyaviy qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlar doirasida subyektlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilmoqda.

Boshqaruv hisobi konsepsiyasini shakllantirishda zamonaviy yondashuvning asosi shundaki, xo’jalik yurituvchi subyektlar davlat tomonidan belgilangan umumiy buxgalteriya qoidalariga tayangan holda, o’z oldilariga qo’yilgan amaliy vazifalardan kelib chiqib, mustaqil hisob yuritish siyosatini ishlab chiqadilar.

Buxgalteriya hisobini yuritishning normativ hujjatlarda belgilangan usullaridan foydalanish tartibini muayyanlashtirish

Mustaqil ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobini yuritish usullariga normativ hujjat maqomini berish

Subyekt tuzilishi va faoliyat xususiyatlariga muvofiq buxgalteriya hisobi usullarini amalga oshirish mexanizmlarini o'rnatish

15.1-rasm. Xo'jalik subyektlarida hisob siyosatini ishlab chiqish maqsadi

Korxonaning hisob siyosati 1-sonli BHMS talablariga muvofiq rahbar tomonidan tasdiqlanishi shart. Bunda turli yillar uchun tayyorlangan moliyaviy hisobotlardagi ko'rsatkichlarning o'zaro qiyoslanuvchanligi hamda boshqa buxgalteriya standartlari (BHMS) bilan muvofiqligi ta'minlanishi lozim. Har bir kalendar yili uchun subyekt o'zining yangilangan hisob siyosatini shakllantirishi talab etiladi.

Boshqaruv hisobi doirasidagi hisob siyosatida xarajatlarni turkumlash, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, byudjetlashtirish, segmentar hisob va hisobotlarni tayyorlash, transfert narxlarini belgilash, boshqaruv qarorlari metodikasi hamda ishchi schyotlar rejasini tuzish kabi muhim masalalar o'z aksini topadi. Navbatdagi hisobot davri uchun ishlab chiqilgan mazkur hujjat korxona rahbari tomonidan imzolangandan so'ng rasmiy huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning hisob siyosati bevosita rahbarning maxsus buyrug'i bilan tasdiqlanadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Hisob siyosatini shakllantirishda subyekt tomonidan qabul qilingan uslublar buyruq imzolangan yildan keyingi yilning 1-yanvar sanasidan e'tiboran kuchga kiradi. Ushbu qoidalar korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalari va filiallari uchun, ularning geografik joylashuvidan qat'i nazar, majburiy hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar o'zlarining ilk hisob siyosatlarini moliyaviy hisobotning birinchi nashrigacha, biroq davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab 90 kalendar kundan kechiktirmasdan rasmiylashtirishlari shart.

Kalendar yili davomida belgilangan hisob siyosati o'zgarishsiz saqlanadi. Uni qayta ko'rib chiqish faqat quyidagi alohida holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

- subyekt qayta tashkil etilganda (reorganizatsiya);
- mulkdorlarning almashishi natijasida;
- buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazada o'zgarishlar yuz berganda;
- hisob yuritishning yanada takomillashtirilgan va samarali yangi metodlari joriy etilganda.

Hisob siyosati oldiga quyidagi fundamental talablar qo'yiladi:


- to'liqlilik (barcha xo'jalik faktlarining hisobda nuqsonsiz aks ettirilishini ta'minlash);
- ehtiyotkorlik (ehtimoliy nobudgarchilik va zararlarni qayd etishga doimo tayyor bo'lish);
- mazmunning shakldan ustunligi (operatsiyalarning huquqiy shakldan ko'ra iqtisodiy mohiyatiga urg'u berish);
- ziddiyatsizlik (ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligi);
- oqilonalik (hisob tizimining tejamkorligi va samaradorligi).

Xo'jalik subyektida hisob yuritish siyosatini shakllantirishga juda ko'p omillar ta'sir qiladi. Ulardan asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (15.2-rasm):

Mulk shakllarining tashkiliy huquqiy asoslari (aksiyonerlik jamiyati, jamoa korxonalari va xokazalar)	Baho siyosatini yuritishdagi mustaqillik	Subyektning iqtisodiy va huquqiy axborotlar bilan ta'minlash darajasi
Iqtisodiyotning qaysi tarmoqqa mansubligi (qishloq xo'jaligi, sanoat, savdo va xokazo)	Subyektning boshqaruv faoliyatida kompyuterlardan foydalanish darajasi	Xo'jalik, soliq, buxgalteriya to'g'risidagi qonunlarning ahvoli va ma'lumotlar darajasi
Soliqqa tortish tizimi bilan o'zaro bog'liqligi	Moliya xo'jalik faoliyatini rivojlantirish strategiyasi	Buxgalteriyaning malakasi, subyekt rahbarlarining iqtisodiy tejamkorligi, tashabbuskorligi, moddiy rag'batlantirish tizimlari

15.2-rasm. Hisob siyosatini shakllantirishga ta'sir qiladigan omillar

Hisob yuritish siyosati oldiga qator talabalar ham qo'yiladiki, ulardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:



15.3-rasm. Hisob siyosati shakllantirish talabalari

Umuman olganda, hisob siyosati o'z ichiga moliyaviy hisob va boshqaruv hisobning xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

15.2. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining uslubiy jihatlari

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, hisob yuritish siyosati ikki pog'onali tizimga tayanadi:

Birinchidan, umummilliy hisob yuritish siyosati — bu davlat organlari yoki vakolatli nodavlat muassasalar tomonidan ishlab chiqiladigan metodologiya bo'lib, u barcha tarmoq subyektlari uchun majburiy bo'lgan yagona huquqiy va uslubiy asoslarni belgilaydi.

Ikkinchidan, xo'jalik subyektlarining xususiy hisob siyosati — korxonalar umummilliy qoidalarga tayangan holda, o'z faoliyatini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan usullarni tanlab oladilar va ularni ichki hujjatlar orqali mustahkamlaydilar.

Hisob siyosatining mazmunini quyidagi ma'lumotlar majmuasi tashkil etadi:

- subyekt rahbari tomonidan tasdiqlangan hisob siyosati to'g'risidagi buyruq yoki farmoyish;
- amaliyotda foydalaniladigan buxgalteriya ishchi hisobvaraqlar rejas;
- korxonaning ichki hisobotlari va birlamchi hujjatlari uchun belgilangan maxsus shakllar ro'yxati;
- axborotlarni qayta ishlash texnologiyasi hamda hujjatlar aylanishining reja-jadvali;
- ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish bo'yicha tasdiqlangan maxsus uslubiyot va buyruqqa ilova qilingan boshqa hujjatlar;
- asosiy holatlarni batafsil tushuntirib beruvchi izohli xat.


Xo'jalik subyekting hisob siyosatida quyidagi dolzarb ma'lumotlar ham o'z aksini topishi shart:

- joriy yilda tanlab olingan va avvalgi davrlardagidan farq qiluvchi yangi hisob yuritish metodlari;

- hisobot davrida yoki kelajakda foydalanuvchilarning qaror qabul qilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan uslubiy o'zgarishlar;

- hisobot sanasidan keyin yuz bergan muhim hodisalar, xo'jalik faoliyatidagi shartli faktlar, ayrim operatsiyalarning to'xtatilishi hamda aksiyadorlik foydasi haqidagi ma'lumotlar.

Korxonalarda hisob yuritish siyosati uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarni yaxlit qamrab olishi zarur. Boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan uslubiy asoslarda, asosan, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash mezonlari, aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi hamda boshqa metodologik yondashuvlar qat'iy belgilab qo'yiladi.



15.2-rasm. Xo'jalik subyekti hisob siyosatining asosiy jihatlari

Hisob siyosatining uslubiy qismida korxona buxgalteriyasida qo'llaniladigan boshqaruv hisobining fundamental tamoyillari va metodologik qoidalari o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, hisob siyosatida quyidagi yo'nalishlar batafsil yoritilishi talab etiladi:

I. Tashkiliy va texnik masalalar:

- hujjatlar aylanishi tartibi va uning reja-grafigi;
- ichki hisobot tizimi (uning tarkibi, shakllari, shakllantirish davriyligi, tayyorlash va taqdim etish muddatlari hamda foydalanuvchilar doirasi) - bevosita boshqaruv hisobi ehtiyojlari uchun;

- ichki nazorat mexanizmlari (ichki audit xizmati, mas'ul mutaxassislar va rahbariyat nazorati) - boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan;

- buxgalteriya (yoki moliya-hisob markazi) to'g'risidagi ichki Nizom hamda xodimlar o'rtasidagi xizmat vazifalarining taqsimoti;

- moddiy qiymatliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish reglamenti va tartibi.

II. Uslubiy (metodik) masalalar:

- tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy sarfi belgilangan me'yorlardan chetga chiqishini monitoring qilish usullari (ta'minot faoliyati doirasida);

- umumishlab chiqarish xarajatlari va boshqa turdagi bilvosita chiqimlarni taqsimlash metodikasi;

- davr xarajatlarini hisobdan chiqarish tartib-qoidalari;

- tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini aniqlash va baholash usullari.

III. Soliqqa tortish bilan bog'liq masalalar:

- alohida hisob yuritishni tashkil etish tartibi (faoliyat yo'nalishlari, sotilgan tovarlar, qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va tortilmaydigan aylanmalar kesimida);

- ijtimoiy infratuzilma obyektlarini alohida hisobga olishni yo'lga qo'yish.

Avval qayd etilganidek, hisob siyosatining metodologik jihati aktivlar va majburiyatlarni baholash, mulk turlari bo'yicha

amortizatsiya hisoblash tizimi bilan bir qatorda, xarajatlar tahlili, byudjetlashtirish jarayonlari va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi uslubiy yondashuvlarni ham qamrab oladi.

15.3. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining texnikaviy va tashkiliy jihatlar

Hisob yuritishning texnik asosida hisob registrlari, schyotlarda xo'jalik jarayonlarini aks ettirish sxemasi, hujjatlar aylanishi kabilar o'z aksini topadi. Hisob yuritishning tashkiliy tomonida buxgalteriyada hisob ishlarining taqsimlanishi, hisob ishlarin tashkil qilish va boshqaruv jarayonidagi o'rni aniq ko'rsatiladi.

Hisob siyosatining tashkiliy jihatida xo'jalik subyektida tashkil qilingan buxgalteriya xizmatining tashkiliy shakllari, buxgalteriya xizmatining tarkibi va hisobning markazlashtirilgan darajasi, subyekt bo'linmalarini alohida balansga ajratish va ichki nazoratni tashkil qilish masalalarini o'z ichiga oladi. Hisob siyosatining texnik jihatida esa quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

Schyotlar rejasi asosida ishlab chiqilgan ishchi schyotlar rejasi

Dastlabki hujjatlarning hisob shakllaridan foydalanish tartibi

Buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi va ularni qayta ishlash

Mulk va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish

15.3-rasm. Hisob siyosatining texnik jihatlar

Boshqaruv hisobi doirasida hisob siyosatining tashkiliy asosi buxgalteriya xizmatining tuzilishi, shtat birliklari hamda xodimlarning lavozim yo'riqnomalariga binoan huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beradi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq, subyektda hisob yuritish va hisobotlarni tayyorlash jarayonini tashkil etish uchun bevosita tashkilot rahbari mas'ul hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi subyekting rahbari quyidagi vakolatlarga ega:

- maxsus rahbar boshchiligida alohida buxgalteriya xizmatini shakllantirish yoki shartnoma asosida jalb etilgan buxgalter xizmatidan foydalanish;

- hisob yuritish vazifasini ixtisoslashgan tashkilotlarga (auditorlik firmalari, soliq maslahatchilari va h.k.) outsorsing shaklida topshirish;

- buxgalteriya hisobi ishlarini shaxsan (mustaqil) amalga oshirish.

Buxgalteriya hisobi subyekting rahbari quyidagilarni ta'minlashga majbur:

- ichki hisob siyosati hamda hisobot tizimining ishlab chiqilishini;

- ichki nazorat mexanizmlarining yo'lga qo'yilishini;

- buxgalteriya qaydlarining to'liq va haqqoniy yuritilishini;

- barcha hisob hujjatlarining but saqlanishini;

- moliyaviy va soliq hisobotlarining qonunchilikda belgilangan muddatlarda tayyorlanishi va e'lon qilinishini;

- o'zaro hisob-kitoblarning o'z vaqtida bajarilishini hamda amaldagi qonun talablariga qat'iy rioya etilishini.

Bosh buxgalter yoki moliyaviy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi boshqa mas'ul shaxs buxgalteriya xizmatining rahbari hisoblanadi.

Buxgalteriya xizmati rahbari o'z faoliyatida bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.

Buxgalteriya xizmati rahbarining xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularni hisobga taqdim etish borasidagi talablari tashkilotning barcha xodimlari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma hisoblanadi.

Agar tashkilot rahbari va bosh buxgalter o'rtasida ayrim xo'jalik amallarini bajarish bo'yicha kelishmovchilik vujudga kelsa, tegishli hujjatlar subyekt rahbarining yozma farmoyishi asosida ijroga qabul

qilinadi. Bunday holatda operatsiyaning oqibatlari uchun shaxsan rahbar javobgar sanaladi.

Hisob siyosatining texnik jihatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy schyotlar rejasi asosida ichki "ishchi schyotlar rejasi"ni shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda subyekt o'z faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ikkinchi tartibli (subschyotlar) schyotlar ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Bu jarayonda muomalalarning iqtisodiy mazmuni va uslubi tamoyillarga rioya etilishi shartdir.

Hisob siyosatini ishlab chiqish, hisobni yuritish va hisobotlarni o'z vaqtida topshirishga bosh buxgalter mas'uldir. Subyektlarda buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishi (masalan, moddiy bo'lim, ish haqi bo'limi, kassa, asosiy vositalar hisobi va h.k.) mustaqil belgilanadi. Tuzilishidan qat'i nazar, barcha hisob xodimlari bosh buxgalterga bo'ysunadilar. Quyida boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan hisob siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz.

Buxgalteriya hisobvaraqlarining ishchi rejasi. Unda uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar), joriy aktivlar (tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari), majburiyatlar, xususiy kapital (ustav kapitali, rezervlar), shuningdek, moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi daromad va xarajatlar schyotlari hamda balansdan tashqari hisobvaraqlar ro'yxati aks ettirilishi tavsiya etiladi.

Aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi. Asosiy vositalar xarid qilinganda, ular barcha sotib olish xarajatlari (yetkazib beruvchiga to'lov, bojxona bojlari, qoplanmaydigan soliqlar, davlat bojlari, transport va montaj xarajatlari hamda vositachilik haqlari) yig'indisidan iborat bo'lgan boshlang'ich qiymat bo'yicha kirim qilinadi.

Asosiy vositalarning hisobga olingan qiymati, qonunchilikda ko'zda tutilgan alohida holatlardan tashqari, o'zgartirilishi mumkin emas.

Boshlang'ich qiymatni qayta ko'rib chiqishga faqat obyektlar to'liq qurib bitkazilganda, qo'shimcha jihozlanganda, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish amalga oshirilganda yoki obyektlar qayta baholanganda yo'l qo'yiladi.

Qurib bitkazish va modernizatsiya qilish ishlari obyektning texnologik vazifasini o'zgartirish, uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash yoki ish ko'lamini oshirish maqsadida bajariladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Rekonstruksiya qilish esa mavjud asosiy vositalarni ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulot sifatini yuksaltirish yoki assortimentni yangilash maqsadida loyiha asosida qayta qurish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash jarayonidir.

Boshqaruv hisobining muayyan yo'nalishi bo'yicha hisob siyosatini shakllantirishda me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ruxsat etilgan bir necha muqobil usullardan eng samaralisi tanlab olinadi. Tanlangan siyosat buxgalteriya tizimining yaxlitligini ta'minlashi, ya'ni hisob jarayonining uslubiy, texnik va tashkiliy jihatlarini to'liq qamrab olishi lozim.

15-bob bo'yicha qisqacha xulosa

Hisob yuritish strategiyasi (siyosati) — bu tashkilot rahbariyati tomonidan buxgalteriya amaliyotini tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda foydalaniladigan usul, qoida va metodologik asoslar yig'indisidir.

Korxonaning hisob siyosati asosiy ichki lokal hujjat hisoblanib, u muayyan faoliyat yo'nalishlarining o'ziga xos tarmoq jihatlarini aks ettirishi, shuningdek, barcha darajadagi axborot iste'molchilari (ham ichki, ham tashqi) manfaatlarini himoya qilishi shart. Shu bilan birga, mazkur hujjat ichki foydalanuvchilar uchun tashkilot reglamentlariga rioya etilishini muntazam monitoring qilish imkonini berishi hamda tashqi hamkorlar uchun hisob ma'lumotlaridan foydalanish jarayonini soddalashtirishi kabi muhim mezonlarga javob berishi talab etiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, hisob siyosati va uning tarkibiy qismlari, hisob siyosatining uslubiy, tashkiliy hamda texnik jihatlari, ishchi schyotlar rejasi, hujjatlar aylanishi va ularni qayta ishlash jarayoni, inventarizatsiya o'tkazish tartibi, buxgalteriya hisobi subyekti rahbarining vakolatlari, buxgalteriya hisobi xizmati rahbarining mas'uliyati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Boshqaruv hisobining ichki hisob siyosati tushunchasi va uning korxonadagi asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Hisob siyosatini shakllantirish va uni rasmiy ravishda tasdiqlash vakolatiga ega bo'lgan subyektlarni ko'rsating.
3. Boshqaruv hisobi doirasidagi hisob siyosatining strukturaviy tuzilishi va uning asosiy komponentlarini tavsiflang.
4. Boshqaruv hisobi tizimining uslubiy poydevorini belgilashda hisob siyosatining tutgan o'rni qanday?
5. Hisob siyosatining tashkiliy jihatlari korxonaning ichki boshqaruv mexanizmida qanday aks etadi?
6. Boshqaruv hisobini yuritishning texnik ta'minoti va vositalari hisob siyosatida qanday tartibga solinadi?
7. Hisob siyosatini ishlab chiqish muddatlari va uning kuchga kirish tartibiga oid talablarni tushuntiring.
8. Hisob siyosatining barqarorligi (izchilligi) prinsipi va unga tuzatishlar kiritishning qonuniy asoslari nimalardan iborat?
9. Boshqaruv hisobi obyektlari hisob siyosatida qanday aks ettiriladi va ularning qamrov doirasi nimaga bog'liq?
10. Korxonada hisob siyosatining to'g'ri va asosli shakllantirilishi hamda ijro etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni ayting.

GLOSSARIY

Biznes jarayonlar — korxonaning o'z strategik maqsadlariga erishishi va mijozlar uchun qo'shimcha qiymat yaratishi yo'lida amalga oshiradigan tizimli harakatlar hamda vazifalar to'plamidir.

Biznes segment — xo'jalik subyektining boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida muayyan mas'uliyat va vakolatlar yuklangan holda ajratilgan tarkibiy bo'linmasi.

Bilvosita xarajatlar — mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'lanmagan, biroq korxonani ma'muriy boshqarish, binolarni saqlash va umumxo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan xarajatlar turi.

Bevosita xarajatlar — muayyan mahsulot yoki xizmat tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan xomashyo, materiallar, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi hamda texnik vositalar amortizatsiyasi kabi sarf-xarajatlar.

Boshqaruv hisobi — tashkilot bo'linmalari faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni shakllantiruvchi tizim. U o'z ichiga byudjetlashtirish, tannarx kalkulyatsiyasi va investitsiya tahlili kabi yo'nalishlarni oladi.

Boshqaruv hisobining axborot bazasi — korxonaning moliyaviy hisobotlari bilan bir qatorda, marketing tadqiqotlari, soliq va sug'urta ma'lumotlaridan tashkil topgan axborotlar majmui.

Boshqaruv ma'lumotlaridan foydalanuvchilar — korxonaning ichki boshqaruv xodimlari (menejerlar), ta'sischilar hamda kuzatuv kengashi vakillari.

Boshqaruv hisobining o'lchov ko'rsatkichlari — faoliyatni baholashda qo'llaniladigan natural (moddiy), mehnat (vaqt) va pul (qiymat) o'lchov birliklari.

Boshqaruv hisobi obyekti — xo'jalik subyektining alohida sexlari, uchastkalari, xizmat ko'rsatish joylari va boshqa tarkibiy bo'linmalari faoliyati haqidagi axborotlardir.

Boshqaruv hisobining metodologiyasi — obyektlar haqidagi ma'lumotlarni yagona tizimda jamlash va qayta ishlash imkonini beruvchi uslublar va vositalar yig'indisi.

Boshqaruv strategiyasi — korxonaning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishini belgilovchi loyihalar tahlili, byudjetni rejalashtirish va transfert narxlarni muvofiqlashtirish tizimi.

Boshqaruv hisobi tamoyillari — hisobning uzluksizligi, ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi, shuningdek, ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish imkoniyati kabi asosiy qoidalar.

Boshqaruv predmeti — ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida xodimlar faoliyatini tartibga solish va boshqaruv jarayonlariga maqsadli ta'sir o'tkazish.

Buyurtma bo'yicha hisob usuli — murakkab va o'ziga xos (eksperimental) ishlarni bajarishda har bir alohida buyurtma uchun sarflangan xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlash usuli.

Byudjet (smeta) — ma'lum bir muddat uchun belgilangan daromadlar, xarajatlar va zaruriy kapital miqdorini ifodalovchi miqdoriy (pul shaklidagi) rejadir.

Byudjetlashtirish — subyektning kelajakdagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ma'lum davrlar kesimida rejalashtirish jarayoni.

Foyda markazi — korxonaning o'z xarajatlari va daromadlari uchun bevosita mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasi.

Geografik segment — risk va daromadlilik darajasi bilan ajralib turadigan, muayyan hududiy sharoitlarda faoliyat yurituvchi korxona bo'linmasi.

Hisob siyosati — korxona tomonidan amaldagi qonunchilik doirasida buxgalteriya hisobini yuritish uchun tanlab olingan va e'lon qilingan usul hamda qoidalar majmui.

Investitsiya faoliyati — sarmoyalarni safarbar etish va ulardan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan barcha harakatlar majmui.

Investitsiya loyihasi — belgilangan muddatda iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraga erishish uchun yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq tadbirlar rejasi.

Investor — foyda olish maqsadida o'z mablag'larini yoki jalb qilingan resurslarni turli loyihalarga yo'naltiruvchi subyekt.

Iqtisodiy ko'rsatkich — xo'jalik jarayonlarining holati va rivojlanishini raqamli ifodalovchi kategoriya bo'lib, u orqali rejalarning bajarilishi va resurslardan foydalanish nazorat qilinadi.

Ishlab chiqarish dastagi (leveraj) — doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar nisbatini o'zgartirish orqali foydani samarali boshqarish mexanizmi.

Ishlab chiqarish dasturi — bozor talablaridan kelib chiqib, mahsulot tayyorlash va sotishning hajmi, sifati hamda muddatlarini belgilovchi kompleks reja.

Tannarx — mahsulot birligini ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan barcha resurslarning puldagi ifodasi.

Marjinal daromad — mahsulotni sotishdan tushgan tushum va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi farq.

Operatsion byudjet — korxonaning joriy faoliyati, jumladan xaridlar, ishlab chiqarish va davr xarajatlarini aks ettiruvchi reja.

Zararsizlik nuqtasi — korxona daromadlari barcha xarajatlarni to'liq qoplaydigan, foyda ham, zarar ham mavjud bo'lmagan faoliyat hajmi.

Transfert baho — korxona ichidagi turli bo'linmalar o'rtasida mahsulot yoki xizmat almashinuvi paytida qo'llaniladigan ichki narx.

"Direkt-kosting" — tannarxni hisoblashda faqat o'zgaruvchan xarajatlarni inobatga olishga asoslangan tizim.

"JIT" (aynan vaqtida) — zaxiralarni minimallashtirish va mahsulotni faqat buyurtma asosida, kerakli vaqtda ishlab chiqarishga qaratilgan samarali boshqaruv tizimi.

"Standart-kost" — xarajatlarni oldindan belgilangan normativlar asosida hisobga olish va haqiqiy sarflarni ushbu me'yorlar bilan solishtirish tizimi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023.
<https://www.lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016 yildagi O'RQ-404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.
<https://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". <https://www.lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.
<https://www.lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 10.11.2022 yildagi 61-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida" buyrug'i. <https://www.lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi 1-son BHMS "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot". <https://lex.uz/docs/828581>
8. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". <https://lex.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5 fevraldagi 54-sonli "Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom". <https://lex.uz>
10. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) (01.02.2020 yil holatiga).

II. Darslik va o'quv qo'llanmalar

11. Bhimani, A., Horngren, C.T., Datar, S.M., & Rajan, M. (2015). Management and Cost Accounting. Pearson Education Limited.
12. Bhimani, A. (2017). Management Accounting in the Digital Economy. Oxford University Press.
13. Burns, J. & Baldvinsdottir, G. (2017). Management Accounting Demystified. Routledge.
14. Chenhall, R.H., & Smith, D. (2018). Management Control Systems: Performance Measurement. Evaluation and Incentives. Pearson UK.
15. Drury, C. (2018). Management and Cost Accounting, eighth edition. Cengage Learning EMEA.
16. Drury, C. (2018) Management Accounting for Business. Cengage Learning EMEA.
17. Drury, C. (2019) Cost and Management Accounting: An Introduction. Cengage Learning EMEA.
18. Garrison, R.H., Noreen, E.W., Brewer, P.C., & McGowan, A. (2018). Managerial Accounting. McGraw-Hill Education.
19. Hansen, D.R., & Mowen, M.M. (2018). Cost Management: Accounting and Control. Cengage Learning.
20. Horngren, C.T., & Harrison, W.T. (2017). Accounting. Pearson Education.
21. Jiambalvo, J. (2018). Managerial Accounting. Wiley.
22. Kaplan, R.S., & Atkinson, A.A. (2015). Advanced Management Accounting. PHI Learning Pvt Ltd.
23. Morse, W.J., & Davis, T.W. (2018). Managerial Accounting: Tools for Business Decision Making. Wiley.
24. Shank, J.K., & Govindarajan, V. (2017). Strategic Cost Management. The New Tool for Competitive Advantage. Simon and Schuster.
25. Srikant M., Padmanabhan, G. (2016). Management Accounting. PHI Learning Pvt. Ltd.
26. Alikulov A.I., Xasanov B.A., Eshmuradov U.T. Boshqaruv hisobi. Darslik. – Samarqand.: "STEP-SELL", 2024. –390 b.

27. Апчерч А.М. Управленческий учет: принципы и практика. Под ред. Апчерч А.М.: Финансы и статистика, 2002. – 952 с.

28. Друри К. Управленческий и производственный учет. Вводный курс: учеб. Для студентов вузов /К.Друри. -5-е изд., перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 735 с.

29. Друри К. Управленческий и производственный учет. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2003.

30. Dusmuratov R.D., Menglikulov B.Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014. – 383 b.

31. Ergasheva Sh.T., Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 230 bet.

32. Eshmuradov U.T. Agroklastarlarda sotish jarayoni hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – 59 b.

33. Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник / В.Б.Ивашкевич. -3-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – 448 с.

34. Керимов В.Э. Бухгалтерский управленческий учет/ Керимов В.Э. -8-е изд. - М.: «Дашков и К», 2017. – 484 с.

35. Керимов В.Е. Учет затрат, калькулирование и бюджетирование в отдельных отраслях производственной сферы. - Москва, 2005. - 246 с.

36. Лунин П.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости научно-технической продукции: На примере отрасли "Наука и научное обслуживание"
<https://www.dissercat.com/content/uchet-zatrat>

37. Mardonov M.Sh. Boshqaruv hisobiga kirish. O'quv qo'llanma. – T.: "NIF MSH", 2024. – 305 bet.

38. Махкамбоев А.Т., Абдувохидов Ф.Т., Сотиболдиева Д.А., Шодиев Э.Т. Калкуляция себестоимости: Учебное пособие. -Т: "ILM ZIYO", 2012. - 208 с.

39. Палий В.Ф. Управленческий учет издержек и доходов (с элементами финансового учета) /В.Ф. Палий. -М.: ИНФРА-М, 2006. – 279 с.

40. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. –556 b.

41. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "TAFAKKUR" nashriyoti, 2014. – 396 b.

42. Ro'zmetov B., Bekturdiyev O., Yo'ldasheva Q., Matkarimov S. Tannarx kalkulyatsiyasi. –T.: "ILM ZIYO", 2006.-230 b.

43. Смирнова Л.Р. «Банковский учёт»-М.: 2000-55 бет

44. Себестоимость / Кузнецов О.В. // Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М.: Большая российская энциклопедия, 2004 —2017

45. Toshnazarova D.S. Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi <https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files>

46. Уорд К. Стратегический управленческий учет. – М.: ОЗОН.РУ – 2002. – 448 с.

47. Управленческий учет. Пер. с англ. -10-е изд. СПб.: Питер, 2005. – 1008 с.

48. Urazov K.B., Po'latov M.Y. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 415 b.

49. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Cho'lpon nomidagi NMIU nashriyoti, 2013. – 213 b.

50. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. – T.: Yangi nashr". 2011. – 312 b.

51. Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: "Zamin nashr", 2021. -856 b.

52. Фуломова Ф.Ф. "Учетная политика предприятия"-Т.: 2004.

53. Qurbonboyev J. Korxonalarda hisob siyosatini shakillantirish, yuritish va rivojlantirish istiqbollari. - T., 2005.

III. Internet saytlar

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

www.uza.uz – O'zbekiston Milliy Axborot agentligi.

www.ziyonet.uz – Ziyonet ta'lim portali

www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.

www.catback.ru – iqtisodiyot bo'yicha ilmiy maqolalar va o'quv materiallari qidiruv sayti.

www.consultant.ru – Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi notijorat qidiruv sayti.

www.glossaru.ru – elektron ensiklopediya rasmiy sayti.

www.aicpa.org – Amerika CPA institute (AICPA).

www.accaglobal.com – Sertifikatlangan buxgalterlar uyushmasi (ACCA).

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. "BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH" FANIGA KIRISH	6
1.1. Boshqaruvning ahamiyati, paydo bo'lishi va rivojlanishi	6
1.2. Boshqaruv hisobining predmeti, metodi va vazifalari	9
1-bob bo'yicha qisqacha xulosa	13
2-BOB. BOSHQARUV HISOBIGA KIRISHNI TASHKIL QILISH	15
2.1. Boshqaruv hisobi funksiyalari, tamoyillari, hisob tizimi va tarkibiy qismlari	15
2.2. Boshqaruv va moliyaviy hisobning farqli jihatlar	19
2-bob bo'yicha qisqacha xulosa	23
3-BOB. BIZNES JARAYONLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH	25
3.1. Biznes jarayonlarining ahamiyati va hisob ko'rsatkichlari	25
3.2. Ta'minot jarayoni va uni hisobga olish	28
3.3. Ishlab chiqarish jarayoni va uni hisobga olish	30
3.4. Sotish (realizatsiya) jarayoni va uni hisobga olish	34
3-bob bo'yicha qisqacha xulosa	38
4-BOB. BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBINI YURITISH	40
4.1. Xarajatlar haqida tushuncha va ularning turkumlanishi	40
4.2. Moddiy xarajatlarning tavsifi va ularning hisobini yuritish	45
4.3. Mehnat xarajatlari, mehnatga haq to'lash shakllari va mehnat xarajatlarini hisoblash	47
4-bob bo'yicha qisqacha xulosa	50
5-BOB. BOSHQARUV HISOBIDA MAHSULOTLAR TANNARXI VA ULARNI KALKULYATSIYA QILISH	52
5.1. Boshqaruv hisobida mahsulot tannarxi va uning mohiyati	52
5.2. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	56

5.3.	Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish amaliyoti	60
	5-bob bo'yicha qisqacha xulosa	64
6-BOB.	BUYURTMALI USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH	66
6.1.	Buyurtmali usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati	66
6.2.	Buyurtmali usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi	68
	6-bob bo'yicha qisqacha xulosa	71
7-BOB.	JARAYONLI USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH	73
7.1.	Jarayonli usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati	73
7.2.	Jarayonli usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi	74
	7-bob bo'yicha qisqacha xulosa	81
8-BOB.	ME'YORIY (NORMATIV) USUL BO'YICHA MAHSULOTLAR KALKULYATSIYASINI AMALGA OSHIRISH	83
8.1.	Me'yoriy (normativ) usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi	83
8.2.	Kalkulyatsiyalashning me'yoriy (normativ) va haqiqiy usullarining farqli jihatlari	85
	8-bob bo'yicha qisqacha xulosa	88
9-BOB.	ZAMONAVIY "STANDART-KOST" TIZIMI ASOSIDA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH	90
9.1.	Zamonaviy "Standart-kost" tizimining mohiyati va ahamiyati	90
9.2.	"Standart-kost" tizimining afzalliklari va kamchiliklari	94
9.3.	"Standart-kost" tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish	96
	9-bob bo'yicha qisqacha xulosa	99

10-BOB. ZAMONAVIY "DIREKT-KOSTING" TIZIMI BO'YICHA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH	101
10.1. Zamonaviy "Direkt-kosting" tizimining mohiyati va ahamiyati	101
10.2. "Direkt-kosting" tizimining afzalliklari va kamchiliklari	104
10.3. "Direkt-kosting" tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish	106
10-bob bo'yicha qisqacha xulosa	109
11-BOB. ILG'OR BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH	111
11.1. Ilg'or boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari	111
11.2. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish	115
11.3. Xo'jalik subyektida investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish	121
11.4. Xo'jalik subyektida biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish	124
11-bob bo'yicha qisqacha xulosa	130
12-BOB. BOSHQARUV HISOBIDA REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISH	132
12.1. Xo'jalik subyektida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va rejalashtirish	132
12.2. Xarajatlar va mahsulot tannarxini rejalashtirishning xususiyatlari	134
12.3. Xo'jalik subyektida faoliyatini rejalashtirishda byudjetlashtirish	140
12.4. Xo'jalik subyektida ishlab chiqarish faoliyatida byudjet va uni tuzish tartibi	142
12-bob bo'yicha qisqacha xulosa	149
13-BOB. BOSHQARUV HISOBIDA TRANSFERT BAHO VA UNI BELGILASH	152
13.1. Boshqaruv hisobida transfert bahoning tutgan o'rnini va mazmuni	152

13.2. Transfert bahoni aniqlash tartibi va shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar	153
13.3. Boshqaruv hisobida transfert bahoni belgilash usullari	156
13-bob bo'yicha qisqacha xulosa	161
14-BOB. BOSHQARUV HISOBIDA SEGMENTAR HISOBOT	164
14.1. Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish	164
14.2. Segmentar hisobotni tuzish qoidolari va tamoyillari	167
14.3. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash	169
14-bob bo'yicha qisqacha xulosa	172
15-BOB. ILG'OR BOSHQARUV HISOBI TIZIMIDA HISOB SIYOSATI	174
15.1. Boshqaruv hisobida hisob siyosati va uning nazariy asoslari	174
15.2. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining uslubiy jihatleri	180
15.3. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining texnikaviy va tashkiliy jihatleri	183
15-bob bo'yicha qisqacha xulosa	186
GLOSSARIY	188
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	191

**ALIKULOV ABDIMO'MIN ISMATOVICH
ESHMURADOV ULUG'BEK TASHMURATOVICH
RAXIMOVA UMIDA RABBIMOVNA**

BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH

O'quv qo'llanma

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi**

Nashr-matbaa faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 10.05.2024 y. № 273109
va 24.05.2024 y. № 283607-sorli tasdiqnomalar berilgan



Direktor
Muharrir
Tex. muharrir

J.Shukurov
L.Xoshimov
A.Umarov

ISBN: 978-9910-640-88-9

1948



Bosishga ruxsat etildi 01. 04. 2026 yil.

Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Times New Roman gamiturası.

Shartli hisob tabog'i –12,5. Nashriyot hisob tabog'i – 13,0

Adadi 15 nusxa. Buyurtma № 06/03

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Nashr matbaa markazida chop etildi.

Samarqand sh., Mirzo Ulug'bek k., 77

Tel. 93 359 70 98